

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILIS INSTITUTI

TRANSPORT FAKULTETI



Transport logistikasi

kafedrası

“XALQARO LOGISTIKA XIZMATLAR TIZIMI”

FANI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

NAMANGAN-2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISHI INSTITUTI

NamMQI
Ro'yhatga olindi:
o'quv-uslubiy bo'limi
№ _____
2021 yil № 63
"18" 11 2021 y.



"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
prof. M. Dadamirzaev

2021 yil

TRANSPORT LOGISTIKASI KAFEDRASI

A. Normirzayev, X. Soliev, Z. Turg'unov, U. Xidirov,
Sh. Yoqubbekov

"XALQARO LOGISTIKA XIZMATLAR TIZIMI"

Xalqaro logistika xizmatlar tizimi fanidan o'quv-uslubiy majmua 5620300-Transport logistikasi (avtomodil transporti) ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar; Transport logistikasi kafedrası mudiri t.f.f.d.,
A.Normirzayev

Transport logistikasi kafedrası o'qituvchisi
t.f.f.d., PhD X.Soliev

Transport logistikasi kafedrası kat.
o'qituvchisi U.Xidirov

Transport logistikasi kafedrası o'qituvchisi
Z.Turg'unov

Transport logistikasi kafedrası o'qituvchisi
Sh.Yoqubbekov

Taqrizchi; Transport logistikasi va xizmatlar sohasi
kafedrası o'qituvchisi t.f.f.d., (PhD)., dots
M.To'xtaboev

O'quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy-uslubiy kengashining _____2021-yil yig'ilishida (_-sonli majlis bayoni) ko'rib chiqildi va foydalanishga tavsiya etildi. (ruyhat raqami №_____)

MUNDARIJA

I	O'QUV MATERIALLAR	
1	Xalqaro logistikaning rivojlantirishning mohiyati va omillari	
2	Xalqaro logistikaning mintakaviy omillari. Xalqaro logistikada rakobat.	
3	Xalqaro logistik xizmatlar tizimi va uning rivojlanish yo'nalishlari.	
4	Xalqaro logistik tizimlarning faoliyat kursatishi. Logistikada globallashtirishning xarakteristik kuchlari. Xalqaro savdo va uni ragbatlantiruvchi omillar.	
5	Xalqaro transport faoliyatlari logistikasi	
6	Xalqaro logistik faoliyatda tovarni kodlash va yozish tizimi. Bojxona faoliyatining rejimi, turlari va tasniflanishi.	
7	Xalqaro logistika infratuzilmasi .	
8	Xalqaro avtotransport infratuzilmasi. Xalqaro logistika infratuzilmasining bog'lamlari.	
9	Xalqaro logistikaning rivojlanishi	
10	Xalqaro logistikani tashkil etish va qaror qabul qilish usullari. Xalqaro logistikada boshqarishning tashkiliy tuzilmasi va korxonalarni internatsionalizatsiyalash	
11	Xalqaro logistikada axborot va servis xizmati .	
12	Xalqaro logistikada elektron tijorat. Xalqaro logistikada globalpozitsiyalash tizimlari va axborotlashtirilgan tizimlararo taksimot zanjirlari.	
13	Xalqaro logistikaning xukukiy aspektlari. O'zbekiston hududida yuklarni Xalqaro avtomobil-yul bog'lamlarida tashishlarni xukukiy tartibga solish.	
14	Xalqaro logistikaning rivojlanish muammolari. Xalqaro logistikaning bojxona ta'minotining asoslari.	
II	AMALIY VA TAJRIBA MASHGULOT MATERIALLAR	
III	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	
IV	GLOSSARIY	
V	ILOVALAR	
4.1	Fan dasturi	
4.2	Ishchi dastur	
4.3	Baholash mezonlari	
4.4	Testlar	
VI	ADABIYOTLAR RO'YXATI	

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari ichida ishlab chiqarish va industrial qurilishi hamda qishloq xo'jaligi maqsulotlarini yetishtirishi bo'yicha oldingi o'rinlardan birida turadi va ularning barchasi birgalikda turli transport xizmatlaridan foydalanadilar. Xozirgi kunda transport vositalari, ular yordamida tashilayotgan yuklar va passajirlar unumdorligi bo'yicha yuqori natijalarga erishish uchun axborot texnologiyalari va xalqaro logistika xizmatlar tizimlarini boshqarishning o'rni beqiyosdir. Xalqaro logistikaning xozirgi kundagi xolati axborot-kommunikatsion texnologiyalarni uning barcha sohalariga izchil tatbiq etish bilan tavsiflanadi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalari oldiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim uchun zarur bo'lgan zamonaviy innovatsion va pedagogik texnologiyalariga asoslangan o'quv-uslubiy ta'minotni yaratish kabi bir qator strategik vazifalarni qo'yadi.

Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishi "**Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish**" bo'limida mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish nazarda tutilgan.

Shu boisdan ham bu soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash sifatiga katta e'tibor berishni davr taqozo etadi. Xalqaro logistika xizmatlar tizimi butun jahonda yo'l-transport majmuasi samadorligini oshirish va qator muammolarni xalqaro etish uchun ishlatilmoqda: tashish xarajatlarini optimallashtirish, zararli chiqindilarni kamaytirish va ekologik xolatni yaxshilash, yo'l-transport xodisalarini kamaytirish. Ushbu qo'llanmada xalqaro logistika xizmatlar tizimi yuklarni tashishda, transport oqimlari va yo'l xarakatini optimal va xavfsiz tashkil etishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarining qo'llanilishi ifodalangan.

1-MAVZU: “Xalkaro logistika” fanining mohiyati va mazmuni.

Reja:

1. “Xalkaro logistika” fanining predmeti, uning mohiyati va maqsadi.
2. “Xalkaro logistika” fanini o’rganish ob’ektlari.
3. Logistikaning rivojlanish bosqichlari.

Tayanch iboralar: tahlil, tizimli tahlil, ob’ekt, sub’ekt, marketing, jarayon, biznes birlik, analitik ko’rsatkichlar

Ishdan maqsad; Xalkaro logistika fanining predmeti, uning mohiyati va maqsadini o’rganish.

Mamlakatimizda 1990-yillardan boshlab bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi logistika kabi ilmiy-amaliy yo’nalishni maqsadli ko’rib chiqish zaruratini asoslab berdi.

*Logistika** – barcha (moddiy, moliyaviy, axborot, mehnat, intellektual va b.) resurslar optimal xarajatlari bilan korxonalar maqsadlariga erishish uchun moddiy va unga hamrohlik qiladigan (axborot, moliyaviy, servis) oqimlarini boshqarish samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini izlab topish bilan bevosita bog’liq bo’lgan amaliy faoliyat yo’nalishidir.

* «*» билан белгиланган атамалар изоҳи китобнинг охирида келтирилади

«Logistika» so’zining semantikasi Qadimgi YUnonistonga borib taqaladi, bu erda «logistike» atamasi «hisoblab chiqish, mulohaza yuritish san’ati» ma’nosini anglatardi. Rim imperiyasida logistika deganda oziq-ovqatlarni taqsimlash qoidalari tushunilgan. Vizantiya imperatori Lev VI (816-912) davrida logistika harbiy qo’shinlar ta’minoti va uning harakatlanishini boshqarish san’ati sifatida ta’riflangan. Mazkur atamaning hozirgi kunlargacha etib kelgan ikkita asosiy talqinini kuzatish mumkin:

1) logistikani harbiy ishda qo’llash. Harbiy logistika sohasida dastlabki ilmiy mehnatlar ijodkori sanalgan XIX asr boshida frantsuz harbiy mutaxassisi baron A.A. Jomini (1779-1869) logistikaga «qo’shinlar bilan harakat qilish amaliy san’ati» deya ta’rif bergan. Uning ta’kidlashicha, logistika nafaqat tashuvlarni, balki rejalashtirish, boshqarish va ta’minot, qo’shinlar dislokatsiyasini aniqlash, shuningdek, ko’priklar,

yo'llar qurilishi va h.k. masalalarni o'z ichiga oladi. 1884 yil Amerika harbiy-dengiz floti instituti navigatsiya ehtiyojlarini belgilash uchun

1.2. "Xalkaro logistika" fanini o'rganish ob'ektlari

Global logistika davri logistikaning kelgusi rivoji bilan asoslanadi. Ushbu atama ostida qoidaga ko'ra, mehnat taqsimoti, davlatlararo darajada qo'llab-quvvatlanadigan shartnoma, bitim va umumiy rejalar shaklida kooperatsiya va hamkorlik asosida dunyoning turli mamlakatlari biznes-strukturalarini bog'laydigan barqaror makrologistika tizimlari tushuniladi. Kelajak logistikasi nazariyasi va amaliyoti faol rivojlanishining katalizatorlari jahon iqtisodiyotidagi quyidagi jiddiy o'zgarishlar hisoblanadi: bozor globallasuvi; iqtisodiyot infratuzilmasini davlat tomonidan tartibga solishdagi o'zgarishlar; umumiy sifat boshqaruvi (Total Quality Management - TQM) kontseptsiyasining hamma joyda keng tarqalishi; axborot-kompyuter texnologiyalari inqilobi va tez rivojlanayotgan telekommunikatsiyalar bozori; hamkorlik va strategik ittifoqlar o'sishi va b.

Logistika yondashuvining moddiy resurslar anʼanaviy harakatini boshqarishdan asosiy farq shundaki, logistika yondashuvida boshqaruv ob'ekti bo'lib oqim – umumiy bir yaxlitlik sifatida qabul qilinadigan predmetlar yig'indisi namoyon bo'ladi.

Oqim – ma'lum bir vaqt oralig'ida jarayon sifatida mavjud bo'ladigan va belgilangan vaqt davrida mutlaq birliklarda o'lchanadigan, yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan harakatdagi predmetlar yig'indisi.

Ko'rinib turibdiki, strategik boshqaruvda barcha resurslar yig'indisi oqimlar ko'rinishida, xususiyl holatda esa – zaxiralar ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

Zaxira – yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan va berilgan vaqt mahali uchun mutlaq birliklarda o'lchanadigan predmetlar yig'indisi.

Ko'rinib turibdiki, strategik boshqaruvda barcha resurslar yig'indisi oqimlar ko'rinishida, xususiyl holatda esa – zaxiralar ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

Zaxira – yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan va berilgan vaqt mahali uchun mutlaq birliklarda o'lchanadigan predmetlar yig'indisi.

Taktik boshqaruvga nisbatan oqimlar va zaxiralarni paritetli* logistika toifalari sifatida maqsadli ajratishni amalga oshirish lozim.

SHunday qilib, logistika asosiy toifalariga* oqim va zaxiralar aylanadi. Zaxiralar statik ko'rsatkichlari va oqimlar dinamik tavsifnomasi o'rtasida qalin o'zaro bog'liqlik mavjud:

R oqim Z zaxira o'zgarishini tavsiflaydi

$$P = dZ/dt;$$

zaxira oqim to'planishi va o'zgarish natijasini aks ettiradi

$$21 \text{ tt } PdT Z$$

Oqim va zaxira toifalari logistika jarayonlarini ko'rib chiqishda talab qilinadigan darajada chuqur va batafsil bo'lmasada, makroiqtisodiy modellarda* juda keng foydalaniladi. Logistikada oqimlar va zaxiralar umumlashtirilgan iqtisodiy toifalarning xususiy holati hisoblanadi, xuddi shu tarzda logistika qonuniyatlari umumiy iqtisodiy qonunlarning xususiy tarzda namoyon bo'lishi sanaladi. Moddiy oqim tushunchasi logistikada asosiy tushunchadir. Ko'rinib turibdiki, moddiy oqimlar mavjud bo'lish shakllari transport vositasida tashish, omborga joylashtirish va birlamchi xomashyo manbasidan yakuniy mahsulot iste'molchisiga etkazish bo'yicha boshqa moddiy operatsiyalarni bajarish jarayonida barcha mahsulot turlarining harakati bo'lishi lozim (moddiy resurslar*, tugallanmagan ishlab chiqarish*, tayyor mahsulot*).

Uchinchi bosqich XX asrning 80 - yillari o'rtalariga to'g'ri keladi va material o'tkazuvchi tarmoqni hamma bo'g'inlarining integratsiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Logistika kontseptsiyasining asosi bo'lgan integratsiyalashuv zaruriyatini, ta'minot, ishlab chiqarish va taqsimot bo'g'inlarining ko'pchilik qatnashchilari tan ola boshlaydi.

Moddiy va axborot oqimlarining tez o'tishini ta'minlash va mahsulotning xom - ashyoni birinchi manбайдan to oxirgi iste'molchigacha harakatining hamma bosqichlari monitoringini amalga oshirish imkonini beruvchi zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari vujudga keladi.

Birinchi bob buyicha nazorat savollari.

1. Xalqaro logistika deganda nima tushunasiz?
2. Logistikaning rivojlanish bosqichlari to'g'risida gapiring?
3. Xalqaro logistikada transport vositalarini ahamiyati qanday?
4. Xalqaro yuk tashuvlari qanday me'yoriy xuquqiy xujjatlar asosida amalga oshiriladi?
5. Xalqaro yuk tashuvlarini qaysi xalqaro tashkilotlar tartibga solishi mumkin?
6. Xalqaro yuk tashuvlarini tashkiliy mexanizmlari qaysilar?
7. Xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishda transport koridorlarini ahamiyati qanday.

8. O'zbekiston Respublikasi xalqaro yuk tashuvlarini nechta transport yo'laklari orqali amalga oshiradi.

9. Xalqaro yuk tashuvlarida transport infratuzilmasi qanday ahamiyatga ega.

10. Logistik infratuzilma deganda nima tushinasiz.

2- Mavzu; Xalqaro logistikaning mintakaviy omillari. Xalqaro logistikada rakobat.

Reja;

1.Xalqaro logistikani tashkiliy aspektlari

2Transport xizmatlari bozori tushunchasi.

3Temir yo'l transporti.

4Avtomobil transporti.

Ishdan maqsad; Xalqaro logistikani tashkiliy aspektlari o'rganish.

Umumiy ma'lumotlar;

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Respublikada transport mustaqilligi ta'minlandi va respublikaning barcha hududlarini bir-biri bilan bog'laydigan milliy tizim yaratildi. Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

Transport sohasiga qariyb 13,3 mingta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ularning soni 11,1 foizga ko'paydi. 2019 yil 1 yanvar holatiga transport sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,1 mingtaga etdi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan bu ko'rsatkich 282 taga ko'paydi.



2018 yil yanvar-dekabr oylarida transportning barcha turlari tomonidan 1209,0 mln. tonna yuklar tashildi, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,6 % ni tashkil etadi. SHu bilan birga, yuk aylanmasi 70,6 mlrd. t-kmni tashkil etdi yoki 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,7 % ga yuqori bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Qozog'iston korxon va tashkilotlari tomonidan 4103,6 mln. tonna yuk tashilgan. Qirg'izistonda transportning barcha turlarida yuk tashish hajmi 33,0 mln. tonnaga teng bo'lgan.

Transportning barcha turlarida yuk tashish bo'yicha avtomobil transporti (1068,2 mln. tonna) ustunlik qiladi. Quvur yo'li transporti orqali 72,4 mln. tonna neft va gaz quyilgan, temir yo'l transporti orqali - 68,4 mln. tonna yuk tashildi. Yuk tashish bo'yicha eng kichik ko'rsatkich havo transportida 13,1 ming tonna qayd qilindi. 1-rasm. **Transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxon va tashkilotlarning taqqoslanishi** (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)

1-jadval

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi

	2018 yil yanvar dekabr	2017yil yanvar dekabrga nisbatan %
Transportda tashilgan yuklar, mln.tonna	1209,0	105,6
Temir yo'l transporti	68,4	100,8
Avtomobil transporti	1068,2	105,6

Havo transporti ming/t	13,1	49,6
Quvurlar transporti	72,4	111,2
Transport yuk aylanmasi mln/t	70560,6	105,7
Avtomobilъ transporti	22942,1	100,0
Havo transporti ming/t	13851,9	103,0
Quvurlar transporti	33643,2	111,4

Manba: DSQ statistik ma'lumotlari.

umumiy yuk tashish hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transporti – 88,3 % egallaydi, boshqa transport turlarida yuk tashish ulushi 11,7 % ga to'g'ri keladi.




2-rasm. Transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi, %

(2018 yil yanvarъ-dekabrъ oylari uchun) Manba: DSQ stistik ma'lumotlari

2018 yilda transportning barcha turlarida yuklarni tashishning jadal o'sishi kuzatilmoqda. 2018 yil yanvarъ-mart oylariga nisbatan o'sish surъati 1,9 f.p. ga oshdi. 2018 yil yanvarъ-dekabrъ oylarida umumiy yuk aylanmasi hajmining o'sish surъati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Quvur yo'li transporti yuk aylanmasi o'sishi 11,4 % ni tashkil etdi, 2017 yil yanvarъ-dekabrъ oylaridagi 4,5 foiz o'sishga qaraganda 6,9 f.p. ga oshdi, shuningdek, avtomobilъ transporti - 2,3 % o'rniga 3,0 % (0,7 f.p. ga oshdi).



3-rasm. YUk aylanmasini o'sish sur'atlarining taqqoslanishi,% Manba: DSQ statistik ma'lumotlari

Transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



4-rasm. Transport turlari buyicha yuk aylanmasi %

Umumiy yuk aylanmasi hajmida 47,7 % ulush quvur yo'li transportiga, 32,5 % ulush temir yo'l transportiga, 19,6 % ulush avtomobil transportiga va 0,2 % ulush havo yo'li transportiga to'g'ri keladi.

2-jadval

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2018yil yanvar-dekabr	Jami hajmga nisbatan ulushi, %	2017 yil yanvar-dekabr nisbatan %

Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi		100,0	102,4
Temir yo'l transporti	22,3	0,4	106,1
Avtomobil transporti		98,3	102,3
Havo transporti	2,6	0,04	118,7
SHaxar elektr transporti	74,1	1,3	114,9
Transport yo'lovchi aylanmasi mln. Yo'lovchi/km	134426,5	100,0	103,4
Temir yo'l transporti	4350,1	3,2	101,3
Avtomobil transporti	120696,3	6,6	102,6
Havo transporti	8835,1	89,8	117,0
SHaxar elektr transporti	545,0	0,4	114,1

Manba: DSQ statistik ma'lumotlari

Ma'lumot uchun: Qirg'izistonda yo'lovchilar tashish ko'rsatkichi 731,6 mln. yo'lovchiga teng bo'ldi. Qozog'istonda 23021,6 mln. yo'lovchi tashilgan.

Ma'lumot uchun: Qirg'izistonda yo'lovchilar tashish ko'rsatkichi 731,6 mln. yo'lovchiga teng bo'ldi. Qozog'istonda 23021,6 mln. yo'lovchi tashilgan. Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibida avtomobil transporti etakchilik qilmoqda. Uning jami yo'lovchi tashish hajmidagi ulushi – 98,3 % ni tashkil etadi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Temir yo'l transporti

2018 yil yanvar-dekabr oylarida yuklar temir yo'l transporti orqali o'tgan yilning mos davriga nisbatan 511,7 ming tonna ko'p tashildi. Temir yo'l transporti yuk aylanmasi 22942,1 mln. tonna-kmga etdi. O'tgan yilning mos davrida yuk aylanmasi 22939,5 mln. tonna-kmni tashkil etdi.

Temir yo'l transportining yuk va yo'lovchi aylanmasini taqqoslanishi

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish ko'rsatkichi 1289,5 ming kishiga oshdi. Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish 6,1 % ga o'sdi va 22,3 mln. kishini tashkil etdi. Yo'lovchi aylanmasi 4350,1 mln. yo'lovchi-km ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun 2017 yil yanvar-dekabr oylarida temir yo'l transporti yo'lovchi aylanmasi 4293,9 mln. yo'lovchi-km ga teng bo'lgan. Magistral temir yo'l transporti orqali yuklarni jo'natish 0,8 % ga oshib, 68,4 mln. tonnani tashkil etdi.


4-jadval

Magistral temir yo'l transportida ortilgan asosiy turdagi yuklar ko'rsatkichi (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun temir yo'l transportida)

	Hjmi, ming tonna	Jami hjimga nisbatan ulushi,%	2017 yil yanvar-dekabr ga nisbatan
YUklar -jami	68442,8	100	100,8
SHundan:			
Ko'mir	5652,6	8,3	127,2
Neft maxsulotlari	6782,1	9,9	61,9
Turli rudalar	5291,4	7,7	105,8
Qora metallar	1076,9	1,6	132,5
Qora metal parchalari	838,5	1,2	107,3
Kimyoviy va mineral o'g'itlar	3430,0	5,0	84,7
Qurilish yuklari	5608,9	8,2	88,6
TSement	4854,3	7,1	100,2
YOg'och va yog'och maxsulotlari	29,9	0,1	158,2

Пахта	151,7	0,2	38,6
Don va don maxsulotlari	1733,1	2,5	104,3
Kartoshka, poliz maxsulotlari va ho'l mevalar	320,8	0,5	133,6
Boshqa yuklar	32672,6	47,7	115,1

Temir yo'l transporti orqali o'rtacha bir kunda yuklarni jo'natish 187,5 ming tonnani tashkil etdi yoki 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,8 % ga oshdi. Bir tonna yuk jo'natishning o'rtacha masofasi 335,2 km.ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davri darajasidan 0,6 % ga past bo'ldi.



Magistral temir yo'l transportida tashilgan asosiy turdagi yuklar o'sish sur'ati, %

(2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Magistral temir yo'l transportida yuk tashish bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari yog'och yuklari – 158,2 %, kartoshka, poliz mahsulotlari va ho'l mevalar – 133,6 %, qora metallar – 132,5 %, ko'mir – 127,2 %, boshqa yuklar – 115,1 %, qora metall parchalari – 107,3 % va turli rudalar – 105,8 % kabi yuklarda qayd etildi. Eng past o'sish sur'atlari paxta tolasi – 38,6 %, neft yuklari – 61,9 %, kimyoviy va mineral o'g'itlar – 84,7 %, qurilish yuklari – 88,6 %, tsement – 100,2 % hamda don va yormalar – 104,3 % kabi tashilgan yuklarda qayd etildi.

Avtomobilъ transporti

SHuningdek avtomobilъ transporti yuk va yo'lovchilarni tashishda muhim ahamiyatga egadir. Avtomobilъ transportining yuk aylanmasi 3,0 % ga oshib, 13,9 mlrd. t-km ni tashkil etdi.




Avtomobilъ transporti yuk va yo'lovchi aylanmasining taqqoslanishi

Hududlar bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibida katta qismni Toshkent shahri egallaydi. 2018 yil yanvarъ-dekabrъ oylarida uning ulushi 20,7 % ga teng bo'ldi.

Eng kichik ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etildi. U 1,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha avtomobilъ transportida yo'lovchi tashish tarkibi, % (2018 yil yanvarъ-dekabrъ oylari uchun)



Hududlar bo'yicha avtomobil transportida yo'lovchi tashish tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Havo transporti orqali jo'natilgan yuklar 13,1 ming tonnani tashkil etib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 50,4 % ga past bo'ldi. YUk aylanmasi 21,4 % ga kamayib, 123,4 mln. t-kmni tashkil etdi.

Havo transportida 2609,2 ming kishi tashildi, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 18,7 % ga ko'pdir, yo'lovchi aylanmasi esa 17,0 % ga oshib, 8835,1 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etdi.

Havo kemalarining kechikmasdan muntazam etib kelishi 2017 yil yanvar-dekabr oylaridagi 82,8 % o'rniga 84,6 % ni tashkil etdi, 3315 aviaparvoz kechiktirilgan, 3 ta aviaparvoz bekor qilingan. Xalqaro tashuvlarda havo kemalarining muntazam etib kelishi 3,3 f.p. ko'payib, 83,5 % ni tashkil etdi (2017 yil yanvar-dekabr oylarida – 80,2 %).

Havo kemalarining jami kechikish vaqti 2716 samolyot-soatni tashkil etib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 32,5 % ga kamaygan. Kechiktirilgan parvozlarning o'rtacha davomiyligi 24,1 % ga qisqarib, 49 minutni tashkil etdi.

Elektr transportida 74022,5 ming yo'lovchi tashilib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 114,9 % ni tashkil etgan. Elektr transportining yo'lovchi aylanmasi 545,0 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etgan bo'lib, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 14,1 % ga ko'pdir.


Elektr transportida yo'lovchi tashish (93,4 %) va yo'lovchi aylanmasida (92,4 %) eng yuqori ulush metropoliten hissasiga to'g'ri keladi.

Metropolitenda yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,2 % ga oshgan.

Tramvayda 4370,4 ming yo'lovchi tashilgan, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,9 marta ko'pdir. Tramvayning yo'lovchi aylanmasi 26,2 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etdi.

Magistral quvurlar orqali 72,4 mln. tonna gaz quyilgan, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11,2 % ga ko'pdir. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 56,2 ming tonna neft quyilgan (6,3 % ga kam). Magistral quvurlarning yuk aylanmasi 11,4 % ga oshdi va 33,6 mlrd. t-kmni tashkil etdi.



Quvur yo'li transportida yuk tashish tarkibi (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

2018 yil yanvar-dekabr oylarida yo'l-transport hodisalari soni 8990 tani tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur ko'rsatkich 1054 taga kamaygan (-10,5 %).

Ikkinchi mavzu buyicha nazorat savollari

1. Transport xizmatlari bozori deganda nima tushinasiz?
2. Transport xizmatlariga nimalar kiradi?
3. Respublikamiz transport xizmatlari bozorida qaysi transport turi etakchilik qiladi?
4. Transport logistikasida ananaviy va noananaviy transport turlariga nimalar kiradi?
5. Transport xizmatlari bozori dunyoning qaysi mamlakatlarida yaxshi rivojlangan?
6. Markaziy Osiyo Respublikalaridan qaysi birida transport xizmati ko'rsatish darajasi yuqori?

7. Respublikamizda transport xizmatlarini hozirgi xolati qanday?
8. Respublikamizda transport xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim deb uylaysiz?
9. Xalqaro logistik markazlarda transport xizmati ko'rsatish darajasi qanday?
10. Respublikamizda transport xizmati ko'rsatish darajasini yaxshilash uchun qanday qarorlar qabul qilingan?

3-Mavzu; Xalqaro logistik xizmatlar tizimi va uning rivojlanish yo`nalishlari.
rivojlanish yo`nalishlari.

Reja

- 1.Xalqaro logistika faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
- 2.Logistik operatsiyalarni amalga oshirish tartibi.
- 3.Xalqaro logistika tizimi va bosqichlari

3.1.Logistik operatsiyalarni amalga oshirish tartibi

Logistik operatsiya. Logistik operatsiya – bu moddiy yoki axborot oqimini qayta ishlashga qaratilgan, ixtisoslashgan amallar yig'indisidir. Moddiy oqimlar ustidan logistik operatsiyalarga omborga joylashtirish, tashish, qadoqlash va boshqalarni misol qilish mumkin. Axborot oqimlari ustidan logistik operatsiyalar tarkibiga zarur axborotni yig'ish, qayta ishlash va o'tkazish kiradi.

Logistik operatsiyalarning ichki va tashqi turlari ajratiladi. Tashqi logistik operatsiyalarga ta'minot va tayyor mahsulotni sotish sohasidagi barcha harakatlar taalluqli, ichki operatsiyalarga esa – ishlab chiqarishda moddiy oqimni boshqarish kiradi. Bundan tashqari logistik operatsiya bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin, bunda mahsulotga egalik qilish huquqi bir yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tadi.

Logistik funktsiya. Logistik funktsiya – bu logistik tizimning maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan logistik operatsiyalarning yiriklashtirilgan guruhidir. Logisitkaning har bir funktsiyasi amallarning bir butun (maqsad nuqtai nazaridan) yig'indisini tashkil etadi.

Logistik funktsiyalarning asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarishning moddiy ta'minotini rejalashtirish; ishlab chiqarish buyurtmalarini

bajarilish tartibini boshqarish; zaxiralarni funktsiyalarga bashoratlash va nazorat qilish ham kiradi.

Logistik zanjir. Moddiy oqimni etkazib beruvchisi va iste'molchisi umumiy holda ikkita mikrologistik tizimni tashkil etadi va logistik zanjir deb ataluvchi tizim orqali bog'langan bo'ladi.

Logistik zanjir – bu ishlab chiqarish iste'molidan tashqi moddiy oqimning bir logistik tizimdan ikkinchisiga yoki shaxsiy noishlab chiqarish iste'molidan oxirgi iste'molchigacha o'tib borishi bo'yicha logistik operatsiyalarni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxslarning chiziqli keltirilgan miqdoridir.

Logistik zanjirning asosiy bo'g'inlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- material etkazib beruvchilar;
- omborxonalar;
- transport;
- taqsimot markazlari;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar;
- mahsulot iste'molchilari;

Logistik tizim. Logistik tizim u yoki bu logistik funktsiyalarni amalga oshiruvchi, teskari aloqaga ega bo'lgan oddiy tizimdan iborat. U, asosan, bir nechta tizim ostilardan tashkil topadi va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'ladi. Logistik tizimlar mikro va makrologistik tizimlarga bo'linadi.

3.2. Xalqaro logistika faoliyatining asosiy yo'nalishlari *Logistikaning*

tashqi savdodagi faoliyati:

- *Eksport-import operatsiyalari*
- *Bojxona taomillarining qo'llanilishi*
- *Tovar etkazib berish jarayonini va oldi-sotdi shartnomalarini Inkoterms va xalqaro tashuvlar qoidalari bo'yicha takomillash-tirish*
- *Transport va yuk hujjatlarini tartibga solish*
- *Sug'urta*

Moddiy va ularga hamrohlik qiladigan oqimlarning vujudga kelishi, o'zgarishi logistika nuqtai nazaridan to'laqonli tizim, ya'ni uning oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshiradigan va bu ma'noda yaxlit bir butunlik kabi tavsiflanadigan tizim sifatida ko'rib chiqiladigan ma'lum bir iqtisodiy ob'ektda ro'y beradi. Mohiyatan gap moddiy oqimga nisbatan qo'llanadigan harakatlar yig'indisi haqida bormoqda.

Logistika faolliklari – qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirayotgan to'laqonli logistika tizimida moddiy oqimga nisbatan qo'llanadigan harakatlar. Bunda quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- logistika operatsiyalari, yoki elementar logistika faolliklari (ordinary logistics activity);
- logistika funktsiyalari, yoki kompleksli logistika faolliklari (complex logistics activity).

Logistika operatsiyasi – moddiy va unga hamrohlik qiladigan axborot, moliya va servis oqimlari vujudga kelishi va o'zgartirilishi bilan bog'liq bo'lgan menejment yoki qo'yilgan tadqiqot vazifalari doirasida yanada dekompozitsiya qilinishi lozim bo'lgan har qanday harakat.

Logistika operatsiyalari qatoriga moddiy resurslar yoki tayyor mahsulot bilan amalga oshiriladigan yuklash, tushirish, idishga joylash, tarqatish, tashish, saqlash, bojxona rasmiylashtiruvi, sug'urta kildirish va boshqa harakatlar kiradi. Hamrohlik qiladigan oqimlar bilan bog'liq logistika operatsiyalari sifatida moddiy oqim haqida axborot to'plash, saqlash va uzatish, tovarlar ta'minotchilari va xaridorlari bilan hisob-kitoblar, bojxona to'lovlari to'lash va h.k. namoyon bo'ladi.

Logistika tizimiga kirib keladigan yoki uni tark etadigan moddiy oqim bilan logistika operatsiyalari bajarish xudi shu operatsiyalarni logistika tizimi ichida bajarishdan farq qiladi. Bu tovarga egalik huquqi sug'urta risklarining bita yuridik shaxsdan boshqasiga o'tishi bilan izohlanadi. Bu belgi bo'yicha barcha logistika operatsiyalari bir tomonlama va ikki tomonlama operatsiyalarga ajratiladi.

Ayrim logistika operatsiyalari mohiyatan texnologik ishlab chiqarish jarayonining davomi hisoblanadi (masalan, qadoqlash). Ular tovarning iste'mol xususiyatlarini o'zgartiradi va ishlab chiqarish sohasida ham, muomala sohasida ham amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Korxonani ta'minlash yoki tayyor mahsulot sotish jarayonida bajariladigan logistika operatsiyalari (logistika tizimining tashqi muhit bilan o'zaro aloka jarayonida bajariladigan operatsiyalar) tashqi logistika operatsiyalari toifasiga kiradi; ularni bajarish xarakteriga atrof-muhit noaniqligi ta'sir ko'rsatadi. Logistika tizimi ichkarisida bajariladigan logistika operatsiyalari ichki operatsiyalar deb ataladi.

3.3. Xalqaro logistika tizimi va bosqichlari

Moddiy oqimlarni ilgari surish bilan bog'liq logistika faolliklari amaliyotda qoidaga ko'ra, xilma-xil texnikalarni (transport vositalari, yuklash-tushirish qurilmalari va h.k.) qo'llagan holda malakali personal tomonidan amalga oshiriladi. Logistika jarayoniga binolar va inshootlar jalb qilingan, jarayon borishining o'zi unga tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu va boshqa tarkibiy qism qandaydir tarzda

tashkillashtirilgan bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, agar moddiy oqimlar mavjud bo'lsa, doimo material o'tkazuvchi tizim ham o'ringa ega bo'ladi. SHu sababli logistika uchun bazaviy bo'lgan «logistika tizimi» tushunchasini joriy qilish zarurati yuzaga keladi.

Logistika tizimi – bir nechta quyitizimdan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'lgan, u yoki bu logistika funksiyalari yoki logistika operatsiyalarini bajaradigan moslashuvchan tizimdir.

Logistika tizimlariga, qoidaga ko'ra, ularni tahlil va sintez qilishga tizimli yondashuvni qo'llash imkonini beradigan murakkab (katta) asosiy jihatlar xos bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

➤ ko'p sonli elementlar (bo'g'inlar) mavjudligi, alohida elementlar o'rtasida o'zaro aloqalar jarayoni ko'p omilliligi, ko'p pog'onali ma'murchilik tizimi, stoxastika kuchlari va omillarining tashqi muhitga ta'siri kabi belgilar bilan tavsiflanadigan murakkablik;

➤ strukturalanganlik – berilgan maqsadni amalga oshirayotgan boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlaridan iborat bo'lgan ma'lum bir tashkiliy struktura mavjudligi;

➤ ierarxiklik –chiziqli yoki funktsional logistika boshqaruvi doirasida quyiroq pog'onadagi elementlarning yuqori pog'onadagi elementlarga bo'ysunishi;

➤ emerjentlik – berilgan maqsadli funktsiyaning alohida element yoki quyitizimlar bilan emas, balki butun tizim tomonidan amalga oshirilishi.

Logistika chiqishda berilgan ko'rsatkichlar bilan moddiy oqimlarga ega bo'lgan uyg'unlashtirilgan, muvofiqlashtirilgan logistika tizimlarini loyihalashtirish vazifasini qo'yadi va hal etadi. Bunday tizimlarning asosiy farqi ular tarkibidagi ishlab chiqarish kuchlarining muvofiqlik darajasi yuqori ekanligida bo'lib, bu boshdan-oxir moddiy oqimlarni boshqarish imkonini beradi. Logistika tizimlarini makrologistika va mikrologistika turlariga ajratish mumkin (2.4-rasm).

Makrologistika tizimi deb foyda olish yoki biznesni tashkil qilishning qandaydir korporativ muammolarini hal etini maqsad qilib qo'ymaydigan va ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, harbiy va shu kabi boshqa vazifalarni hal qilish uchun hududiy yoki ma'muriy-hududiy tuzilma darajasida tashkil etiladigan tizimni hisoblaymiz.

Makrologistika tizimlari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

➤ globallik belgisi bo'yicha – davlat (transmilliy), davlatlararo (xalqaro), transkontinental tizimlar;

➤ mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi belgichi bo'yicha - tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va o'lka, mintaqa, mintaqalararo, respublika, respublikalararo tizimlar;

➤ ob'ektli-funktsional belgi bo'yicha – bitta yoki bir nechta tarmoq, idoraga qarashli, tarmoqlararo, savdo, harbiy, institutsional va h.k. korxonalar guruhlari.

Makrologistika tizimlarini shakllantirish mezonlari umumiy logistika xarajatlari minimumi, shuningdek, ekologik, ijtimoiy, harbiy, siyosiy va boshqa maqsadlar bilan belgilanadi.

Nazorat uchun savollar

- 1.Zamonaviy bozor muhitida logistika nimani ifodalaydi?
- 2.Moddiy oqim nimani ifodalaydi va uni qaysi asosiy xislatlar tavsiflaydi?
- 3.Boshqariladigan moddiy oqim qaysi hamrohlik qiladigan oqimlarni yuzaga keltiradi?
- 4.Logistika faolliklari tasnifining mazmunli jihatlarini ochib bering.
- 5.Makrologistika tizimlarining qaysi tasniflash belgilarini bilasiz?
- 6.Mikrologistika tizimlari qaysi vazifalarni hal qilishga imkon beradi?
- 7.Xalqaro logistikaning qanday bosqichlari mavjud?
- 8.Xalqaro logistikaning asosiy funksiyalari qanday?
- 9.Xalqaro logistikada logistik zanjirning ahamiyati haqida gapiring?
- 10.Logistik funksiyalar deganda nima tushinasiz?

4-Mavzu; Xalqaro logistik tizimlarning faoliyat kursatishi. Logistikada globallashishning xarakatlantiruvchi kuchlari. Xalqaro savdo va uni ragbatlantiruvchi omillar.

Reja;

- 1.Transport xizmatlari bozori tushunchasi.
- 2.Temir yo'l transporti.
- 3.Avtomobil transporti.

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Respublikada transport mustaqilligi ta'minlandi va respublikaning barcha hududlarini bir-biri bilan bog'laydigan milliy tizim yaratildi. Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

Transport sohasiga qariyb 13,3 mingta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ularning soni 11,1 foizga ko'paydi. 2019 yil 1 yanvar holatiga transport sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

2,1 mingtaga etdi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan bu ko'rsatkich 282 taga ko'paydi.



2018 yil yanvar-dekabr oylarida transportning barcha turlari tomonidan 1209,0 mln. tonna yuklar tashildi, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,6 % ni tashkil etadi. SHu bilan birga, yuk aylanmasi 70,6 mlrd. t-kmni tashkil etdi yoki 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,7 % ga yuqori bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Qozog'iston korxon va tashkilotlari tomonidan 4103,6 mln. tonna yuk tashilgan. Qirg'izistonda transportning barcha turlarida yuk tashish hajmi 33,0 mln. tonnaga teng bo'lgan.

Transportning barcha turlarida yuk tashish bo'yicha avtomobil transporti (1068,2 mln. tonna) ustunlik qiladi. Quvur yo'li transporti orqali 72,4 mln. tonna neft va gaz quyilgan, temir yo'l transporti orqali - 68,4 mln. tonna yuk tashildi. Yuk tashish bo'yicha eng kichik ko'rsatkich havo transportida 13,1 ming tonna qayd qilindi. 1-rasm. **Transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxon va tashkilotlarning taqqoslanishi** (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)

1-jadval

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi

	2018 yil yanvar dekabr	2017 yil yanvar dekabrga nisbatan %
Transportda tashilgan yuklar, mln.tonna	1209,0	105,6
Temir yo'l transporti	68,4	100,8
Avtomobil transporti	1068,2	105,6
Havo transporti ming/t	13,1	49,6

Quvurlar transporti	72,4	111,2
Transport yuk aylanmasi mln/t	70560,6	105,7
Avtomobil transporti	22942,1	100,0
Havo transporti ming/t	13851,9	103,0
Quvurlar transporti	33643,2	111,4

Manba: DSQ statistik ma'lumotlari.

umumiy yuk tashish hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transporti – 88,3 % egallaydi, boshqa transport turlarida yuk tashish ulushi 11,7 % ga to'g'ri keladi.



2-rasm. Transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi, %

(2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun) Manba: DSQ statistik ma'lumotlari

2018 yilda transportning barcha turlarida yuklarni tashishning jadal o'sishi kuzatilmoqda. 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 1,9 f.p. ga oshdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida umumiy yuk aylanmasi hajmining o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Quvur yo'li transporti yuk aylanmasi o'sishi 11,4 % ni tashkil etdi, 2017 yil yanvar-dekabr oylaridagi 4,5 foiz o'sishga qaraganda 6,9 f.p. ga oshdi, shuningdek, avtomobil transporti - 2,3 % o'rniga 3,0 % (0,7 f.p. ga oshdi).



3-rasm. YUk aylanmasini o'sish sur'atlarining taqqoslanishi,% Manba: DSQ statistik ma'lumotlari

Transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



4-rasm. Transport turlari buyicha yuk aylanmasi %

Umumiy yuk aylanmasi hajmida 47,7 % ulush quvur yo'li transportiga, 32,5 % ulush temir yo'l transportiga, 19,6 % ulush avtomobil transportiga va 0,2 % ulush havo yo'li transportiga to'g'ri keladi.

2-jadval

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2018yil yanvar-dekabr	Jami hajmga nisbatan ulushi, %	2017 yil yanvar-dekabr nisbatan %
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi		100,0	102,4
Temir yo'l transporti	22,3	0,4	106,1
Avtomobil transporti		98,3	102,3
Havo transporti	2,6	0,04	118,7
SHaxar elektr transporti	74,1	1,3	114,9
Transport yo'lovchi aylanmasi mln. Yo'lovchi/km	134426,5	100,0	103,4
Temir yo'l transporti	4350,1	3,2	101,3
Avtomobil transporti	120696,3	6,6	102,6

Havo transporti	8835,1	89,8	117,0
SHaxar elektr transporti	545,0	0,4	114,1

Manba: DSQ statistik ma'lumotlari

Ma'lumot uchun: Qirg'izistonda yo'lovchilar tashish ko'rsatkichi 731,6 mln. yo'lovchiga teng bo'ldi. Qozog'istonda 23021,6 mln. yo'lovchi tashilgan.

Ma'lumot uchun: Qirg'izistonda yo'lovchilar tashish ko'rsatkichi 731,6 mln. yo'lovchiga teng bo'ldi. Qozog'istonda 23021,6 mln. yo'lovchi tashilgan. Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibida avtomobily transporti etakchilik qilmoqda. Uning jami yo'lovchi tashish hajmidagi ulushi – 98,3 % ni tashkil etadi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Temir yo'l transporti

2018 yil yanvar-dekabr oylarida yuklar temir yo'l transporti orqali o'tgan yilning mos davriga nisbatan 511,7 ming tonna ko'p tashildi. Temir yo'l transporti yuk aylanmasi 22942,1 mln. tonna-kmga etdi. O'tgan yilning mos davrida yuk aylanmasi 22939,5 mln. tonna-kmni tashkil etdi.

Temir yo'l transportining yuk va yo'lovchi aylanmasini taqqoslanishi

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish ko'rsatkichi 1289,5 ming kishiga oshdi. Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish 6,1 % ga o'sdi va 22,3 mln. kishini tashkil etdi. Yo'lovchi aylanmasi 4350,1 mln. yo'lovchi-km ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun 2017 yil yanvar-dekabr oylarida temir yo'l transporti yo'lovchi aylanmasi 4293,9 mln. yo'lovchi-km ga teng bo'lgan. Magistral temir yo'l transporti orqali yuklarni jo'natish 0,8 % ga oshib, 68,4 mln. tonnani tashkil etdi.

4-jadval

Magistral temir yo'l transportida ortilgan asosiy turdagi yuklar ko'rsatkichi (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun temir yo'l transportida)

	Hjmi, ming tonna	Jami hjimga nisbatan ulushi, %	2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan

YUklar -jami	68442,8	100	100,8
SHundan:			
Ko'mir	5652,6	8,3	127,2
Neft maxsulotlari	6782,1	9,9	61,9
Turli rudalar	5291,4	7,7	105,8
Qora metallar	1076,9	1,6	132,5
Qora metal parchalari	838,5	1,2	107,3
Kimyoviy va mineral o'g'itlar	3430,0	5,0	84,7
Qurilish yuklari	5608,9	8,2	88,6
TSement	4854,3	7,1	100,2
YOg'och va yog'och maxsulotlari	29,9	0,1	158,2
Paxta	151,7	0,2	38,6
Don va don maxsulotlari	1733,1	2,5	104,3
Kartoshka, poliz maxsulotlari va ho'l mevalar	320,8	0,5	133,6
Boshqa yuklar	32672,6	47,7	115,1

Temir yo'l transporti orqali o'rtacha bir kunda yuklarni jo'natish 187,5 ming tonnani tashkil etdi yoki 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,8 % ga oshdi. Bir tonna yuk jo'natishning o'rtacha masofasi 335,2 km.ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davri darajasidan 0,6 % ga past bo'ldi.



Magistral temir yo'l transportida tashilgan asosiy turdagi yuklar o'sish sur'ati, %

(2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Magistral temir yo'l transportida yuk tashish bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari yog'och yuklari – 158,2 %, kartoshka, poliz mahsulotlari va ho'l mevalar – 133,6 %, qora metallar – 132,5 %, ko'mir – 127,2 %, boshqa yuklar – 115,1 %, qora metall parchalari – 107,3 % va turli rudalar – 105,8 % kabi yuklarda qayd etildi. Eng past o'sish sur'atlari paxta tolasi – 38,6 %, neftъ yuklari – 61,9 %, kimyoviy va mineral o'g'itlar – 84,7 %, qurilish yuklari – 88,6 %, tsement – 100,2 % hamda don va yormalar – 104,3 % kabi tashilgan yuklarda qayd etildi.

Avtomobilъ transporti

SHuningdek avtomobilъ transporti yuk va yo'lovchilarni tashishda muhim ahamiyatga egadir. Avtomobilъ transportining yuk aylanmasi 3,0 % ga oshib, 13,9 mlrd. t-km ni tashkil etdi.




Avtomobil transporti yuk va yo'lovchi aylanmasining taqqoslanishi

Hududlar bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibida katta qismni Toshkent shahri egallaydi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 20,7 % ga teng bo'ldi.

Eng kichik ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etildi. U 1,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha avtomobil transportida yo'lovchi tashish tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Hududlar bo'yicha avtomobil transportida yo'lovchi tashish tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Havo transporti orqali jo'natilgan yuklar 13,1 ming tonnani tashkil etib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 50,4 % ga past bo'ldi. YUk aylanmasi 21,4 % ga kamayib, 123,4 mln. t-kmni tashkil etdi.

Havo transportida 2609,2 ming kishi tashildi, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 18,7 % ga ko'pdir, yo'lovchi aylanmasi esa 17,0 % ga oshib, 8835,1 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etdi.

Havo kemalarining kechikmasdan muntazam etib kelishi 2017 yil yanvar-dekabr oylaridagi 82,8 % o'rniga 84,6 % ni tashkil etdi, 3315 aviaparvoz kechiktirilgan, 3 ta aviaparvoz bekor qilingan. Xalqaro tashuvlarda havo kemalarining muntazam etib kelishi 3,3 f.p. ko'payib, 83,5 % ni tashkil etdi (2017 yil yanvar-dekabr oylarida – 80,2 %).

Havo kemalarining jami kechikish vaqti 2716 samolyot-soatni tashkil etib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 32,5 % ga kamaygan. Kechiktirilgan parvozlarning o'rtacha davomiyligi 24,1 % ga qisqarib, 49 minutni tashkil etdi.

Elektr transportida 74022,5 ming yo'lovchi tashilib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 114,9 % ni tashkil etgan. Elektr transportining yo'lovchi aylanmasi 545,0 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etgan bo'lib, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 14,1 % ga ko'pdir.


Elektr transportida yo'lovchi tashish (93,4 %) va yo'lovchi aylanmasida (92,4 %) eng yuqori ulush metropoliten hissasiga to'g'ri keladi.

Metropolitenda yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

2019 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,2 % ga oshgan.

Tramvayda 4370,4 ming yo'lovchi tashilgan, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,9 marta ko'pdir. Tramvayning yo'lovchi aylanmasi 26,2 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etdi.

Magistral quvurlar orqali 72,4 mln. tonna gaz quyilgan, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11,2 % ga ko'pdir. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 56,2 ming tonna neft quyilgan (6,3 % ga kam). Magistral quvurlarning yuk aylanmasi 11,4 % ga oshdi va 33,6 mlrd. t-kmni tashkil etdi.



**Quvur yo'li transportida yuk tashish tarkibi (2018 yil yanvar-d
dekabr oylari uchun)**

2020 yil yanvar-dekabr oylarida yo'l-transport hodisalari soni 8990 tani tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur ko'rsatkich 1054 taga kamaygan (-10,5 %).

Ikkinchi mavzu buyicha nazorat savollari

11. Transport xizmatlari bozori deganda nima tushinasiz?
12. Transport xizmatlariga nimalar kiradi?
13. Respublikamiz transport xizmatlari bozorida qaysi transport turi etakchilik qiladi?
14. Transport logistikasida ananaviy va noananaviy transport turlariga nimalar kiradi?
15. Transport xizmatlari bozori dunyoning qaysi mamlakatlarida yaxshi rivojlangan?
16. Markaziy Osiyo Respublikalaridan qaysi birida transport xizmati ko'rsatish darajasi yuqori?
17. Respublikamizda transport xizmatlarini hozirgi xolati qanday?
18. Respublikamizda transport xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim deb uylaysiz?
19. Xalqaro logistik markazlarda transport xizmati ko'rsatish darajasi qanday?
20. Respublikamizda transport xizmati ko'rsatish darajasini yaxshilash uchun qanday qarorlar qabul qilingan?

5-Mavzu; Xalqaro transport faoliyatlari logistikasi.

Reja:

1. Logistik operatsiyalarni amalga oshirish tartibi.
2. Xalqaro logistika faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
3. Xalqaro logistika tizimi va bosqichlari

5.1. Logistik operatsiyalarni amalga oshirish tartibi

Logistik operatsiya. Logistik operatsiya – bu moddiy yoki axborot oqimini qayta ishlashga qaratilgan, ixtisoslashgan amallar yig'indisidir. Moddiy oqimlar ustidan logistik operatsiyalarga omborga joylashtirish, tashish, qadoqlash va boshqalarni misol

qilish mumkin. Axborot oqimlari ustidan logistik operatsiyalar tarkibiga zarur axborotni yig'ish, qayta ishlash va o'tkazish kiradi.

Logistik operatsiyalarning ichki va tashqi turlari ajratiladi. Tashqi logistik operatsiyalarga ta'minot va tayyor mahsulotni sotish sohasidagi barcha harakatlar taalluqli, ichki operatsiyalarga esa – ishlab chiqarishda moddiy oqimni boshqarish kiradi. Bundan tashqari logistik operatsiya bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin, bunda mahsulotga egalik qilish huquqi bir yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tadi.

Logistik funktsiya. Logistik funktsiya – bu logistik tizimning maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan logistik operatsiyalarning yiriklashtirilgan guruhidir. Logistikning har bir funktsiyasi amallarning bir butun (maqsad nuqtai nazaridan) yig'indisini tashkil etadi.

Logistik funktsiyalarning asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarishning moddiy ta'minotini rejalashtirish; ishlab chiqarish buyurtmalarini bajarilish tartibini boshqarish; xaxiralarni funktsiyalarga bashoratlash va nazorat qilish ham kiradi.

Logistik zanjir. Moddiy oqimni etkazib beruvchisi va iste'molchisi umumiy holda ikkita mikrologistik tizimni tashkil etadi va logistik zanjir deb ataluvchi tizim orqali bog'langan bo'ladi.

Logistik zanjir – bu ishlab chiqarish iste'molidan tashqi moddiy oqimning bir logistik tizimdan ikkinchisiga yoki shaxsiy noishlab chiqarish iste'molidan oxirgi iste'molchigacha o'tib borishi bo'yicha logistik operatsiyalarni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxslarning chiziqli keltirilgan miqdoridir.

Logistik zanjirning asosiy bo'g'inlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- material etkazib beruvchilar;
- omborxonalar;
- transport;
- taqsimot markazlari;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar;
- mahsulot iste'molchilari;

Logistik tizim. Logistik tizim u yoki bu logistik funtsiyalarni amalga oshiruvchi, teskari aloqaga ega bo'lgan oddiy tizimdan iborat. U, asosan, bir nechta tizim ostilardan tashkil topadi va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'ladi. Logistik tizimlar mikro va makrologistik tizimlarga bo'linadi.

5.2. Xalqaro logistika faoliyatining asosiy yo'nalishlari *Logistikaning*

tashqi savdodagi faoliyati:

- *Eksport-import operatsiyalari*
- *Bojxona taomillarining qo'llanilishi*
- *Tovar etkazib berish jarayonini va oldi-sotdi shartnomalarini Inkoterms va xalqaro tashuvlar qoidalari bo'yicha takomillash-tirish*
- *Transport va yuk hujjatlarini tartibga solish*
- *Sug'urta*

Moddiy va ularga hamrohlik qiladigan oqimlarning vujudga kelishi, o'zgarishi logistika nuqtai nazaridan to'laqonli tizim, ya'ni uning oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshiradigan va bu ma'noda yaxlit bir butunlik kabi tavsiflanadigan tizim sifatida ko'rib chiqiladigan ma'lum bir iqtisodiy ob'ektda ro'y beradi. Mohiyatan gap moddiy oqimga nisbatan qo'llanadigan harakatlar yig'indisi haqida bormoqda.

Logistika faolliklari – qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirayotgan to'laqonli logistika tizimida moddiy oqimga nisbatan qo'llanadigan harakatlar. Bunda quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- logistika operatsiyalari, yoki elementar logistika faolliklari (ordinary logistics activity);
- logistika funktsiyalari, yoki kompleksli logistika faolliklari (complex logistics activity).

Logistika operatsiyasi – moddiy va unga hamrohlik qiladigan axborot, moliya va servis oqimlari vujudga kelishi va o'zgartirilishi bilan bog'liq bo'lgan menejment yoki qo'yilgan tadqiqot vazifalari doirasida yanada dekompozitsiya qilinishi lozim bo'lgan har qanday harakat.

Logistika operatsiyalari qatoriga moddiy resurslar yoki tayyor mahsulot bilan amalga oshiriladigan yuklash, tushirish, idishga joylash, tarqatish, tashish, saqlash, bojxona rasmiylashtiruvi, sug'urta kildirish va boshka harakatlar kiradi. Hamrohlik qiladigan oqimlar bilan bog'liq logistika operatsiyalari sifatida moddiy oqim haqida axborot to'plash, saqlash va uzatish, tovarlar ta'minotchilari va xaridorlari bilan hisob-kitoblar, bojxona to'lovlari to'lash va h.k. namoyon bo'ladi.

Logistika tizimiga kirib keladigan yoki uni tark etadigan moddiy oqim bilan logistika operatsiyalari bajarish xudi shu operatsiyalarni logistika tizimi ichida bajarishdan farq qiladi. Bu tovarga egalik huquqi sug'urta risklarining bita yuridik shaxsdan boshqasiga o'tishi bilan izohlanadi. Bu belgi bo'yicha barcha logistika operatsiyalari bir tomonlama va ikki tomonlama operatsiyalarga ajratiladi.

. Logistika operatsiyalari tasnifi

Ayrim logistika operatsiyalari mohiyatan texnologik ishlab chiqarish jarayonining davomi hisoblanadi (masalan, qadoqlash). Ular tovarning iste'mol xususiyatlarini o'zgartiradi va ishlab chiqarish sohasida ham, muomala sohasida ham amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Korxonani ta'minlash yoki tayyor mahsulot sotish jarayonida bajariladigan logistika operatsiyalari (logistika tizimining tashqi muhit bilan o'zaro aloka jarayonida bajariladigan operatsiyalar) tashqi logistika operatsiyalari toifasiga kiradi; ularni bajarish xarakteriga atrof-muhit noaniqligi ta'sir ko'rsatadi. Logistika tizimi ichkarisida bajariladigan logistika operatsiyalari ichki operatsiyalar deb ataladi.

5.3. Xalqaro logistika tizimi va bosqichlari

Moddiy oqimlarni ilgari surish bilan bog'liq logistika faolliklari amaliyotda qoidaga ko'ra, xilma-xil texnikalarni (transport vositalari, yuklash-tushirish qurilmalari va h.k.) qo'llagan holda malakali personal tomonidan amalga oshiriladi. Logistika jarayoniga binolar va inshootlar jalb qilingan, jarayon borishining o'zi unga tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu va boshqa tarkibiy qism qandaydir tarzda tashkillashtirilgan bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, agar moddiy oqimlar mavjud bo'lsa, doimo material o'tkazuvchi tizim ham o'ringa ega bo'ladi. SHu sababli logistika uchun bazaviy bo'lgan «logistika tizimi» tushunchasini joriy qilish zarurati yuzaga keladi.

Logistika tizimi – bir nechta quyitizimdan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'lgan, u yoki bu logistika funktsiyalari yoki logistika operatsiyalarini bajaradigan moslashuvchan tizimdir.

Logistika tizimlariga, qoidaga ko'ra, ularni tahlil va sintez qilishga tizimli yondashuvni qo'llash imkonini beradigan murakkab (katta) asosiy jihatlar xos bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- ko'p sonli elementlar (bo'g'inlar) mavjudligi, alohida elementlar o'rtasida o'zaro aloqalar jarayoni ko'p omilliligi, ko'p pog'onali ma'murchilik tizimi, stoxastika kuchlari va omillarining tashqi muhitga ta'siri kabi belgilar bilan tavsiflanadigan murakkablik;
- strukturalanganlik – berilgan maqsadni amalga oshirayotgan boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlaridan iborat bo'lgan ma'lum bir tashkiliy struktura mavjudligi;
- ierarxiklik –chiziqli yoki funktsional logistika boshqaruvi doirasida quyiroq pog'onadagi elementlarning yuqori pog'onadagi elementlarga bo'ysunishi;
- emerjentlik – berilgan maqsadli funktsiyaning alohida element yoki quyitizimlar bilan emas, balki butun tizim tomonidan amalga oshirilishi.

Logistika chiqishda berilgan ko'rsatkichlar bilan moddiy oqimlarga ega bo'lgan uyg'unlashtirilgan, muvofiqlashtirilgan logistika tizimlarini loyihalashtirish vazifasini qo'yadi va hal etadi. Bunday tizimlarning asosiy farqi ular tarkibidagi ishlab chiqarish

kuchlarining muvofiqlik darajasi yuqori ekanligida bo'lib, bu boshdan-oxir moddiy oqimlarni boshqarish imkonini beradi. Logistika tizimlarini makrologistika va mikrologistika turlariga ajratish mumkin (2.4-rasm).

Makrologistika tizimi deb foyda olish yoki biznesni tashkil qilishning qandaydir korporativ muammolarini hal etini maqsad qilib qo'ymaydigan va ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, harbiy va shu kabi boshqa vazifalarni hal qilish uchun hududiy yoki ma'muriy-hududiy tuzilma darajasida tashkil etiladigan tizimni hisoblaymiz.

Makrologistika tizimlari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

- globallik belgisi bo'yicha – davlat (transmilliy), davlatlararo (xalqaro), transkontinental tizimlar;
- mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi belgichi bo'yicha - tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va o'lka, mintaqqa, mintaqalararo, respublika, respublikalararo tizimlar;
- ob'ekli-funksional belgi bo'yicha – bitta yoki bir nechta tarmoq, idoraga qarashli, tarmoqlararo, savdo, harbiy, institutsional va h.k. korxonalar guruhlar.

Makrologistika tizimlarini shakllantirish mezonlari umumiy logistika xarajatlari minimumi, shuningdek, ekologik, ijtimoiy, harbiy, siyosiy va boshqa maqsadlar bilan belgilanadi.

Nazorat uchun savollar

- 1.Zamonaviy bozor muhitida logistika nimani ifodalaydi?
- 2.Moddiy oqim nimani ifodalaydi va uni qaysi asosiy xislatlar tavsiflaydi?
- 3.Boshqariladigan moddiy oqim qaysi hamrohlik qiladigan oqimlarni yuzaga keltiradi?
- 4.Logistika faolliklari tasnifining mazmunli jihatlarini ochib bering.
- 5.Makrologistika tizimlarining qaysi tasniflash belgilarini bilasiz?
- 6.Mikrologistika tizimlari qaysi vazifalarni hal qilishga imkon beradi?
- 7.Xalqaro logistikaning qanday bosqichlari mavjud?
- 8.Xalqaro logistikaning asosiy funktsiyalari qanday?
- 9.Xalqaro logistikada logistik zanjirning ahamiyati haqida gapiring?
- 10.Logistik funktsiyalar deganda nima tushinasiz?

6-Mavzu; Xalqaro logistik faoliyatda tovarni kodlash va yozish tizimi. Bojxona faoliyatining rejimi, turlari va tasniflanishi.

Reja

- 1.Xalqaro logistik faoliyatda tovarni kodlash va yozish tizimi
- 2.,Xalqaro transport tashuvlari va unda bojxona organlarining asosiy vazifalari
- 3.. Bojxona nazoratining shakllari
- 4.. Bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirish

Ishdan maqsad; Xalqaro transport tashuvlari va unda bojxona organlarining asosiy vazifalari, Bojxona nazoratining shakllari, bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirishni o'rganish.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi kerak. Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir.

Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmui bojxona rasmiylashtiruvi hisoblanadi. Bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda bojxona organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan taqiqlar va cheklovlarni belgilashga haqli emas.

Bojxona organi bojxona nazoratini o'tkazish uchun:

nazorat qilinishi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli shaxslardan va boshqa shaxslardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni;

tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan va boshqa organlardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilib olish huquqiga ega.

Hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yo'llangan, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan shaxslar va organlar ushbu hujjatlar va ma'lumotlarni bojxona organiga mumkin qadar qisqa muddatlarda yuborishi shart. Bojxona deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yo'qotgan yildan keyingi yildan e'tiboran uch yil davomida saqlanadi.

Bojxona nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish; og'zaki so'rov; axborot olish; bojxona ko'zdan kechiruvi; tovarlarning tamg'alanganligini tekshirish; bojxona ko'rigi; shaxsiy ko'rik; bojxona identifikatsiyalashi; bojxona kuzatuvi; binolar va hududlarni tekshirish; tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, ularni hisobga olish tizimini tekshirish hamda ushbu tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish;

tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati.

Bojxona rasmiylashtiruvini bojxona organiga tovarlar va (yoki) transport vositalari xususida hujjatlar taqdim etilgan paytdan, ushbu Kodeksning 162-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa, og'zaki ma'lum qilingan yoxud jismoniy shaxsning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish niyatidan dalolat beruvchi boshqa harakatlar bajarilgan paytdan e'tiboran boshlanadi. Bojxona rasmiylashtiruvini bojxona organi va deklarant yoxud vakolatli shaxs o'rtasidagi tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish va (yoki) bojxona rejimining amal qilishini tugallash, bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash yoxud ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tartibga solinganidan keyin tugallanadi.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini:

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda veterinariya, fitosanitariya nazorati, ekologik nazorat va boshqa turdagi davlat nazorati amalga oshirilganidan keyin;

agar ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, mazkur hujjatlarning mavjudligi tasdiqlanganidan keyin tugallanadi.

Tovarlarining va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini hamda taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan va barcha zarur hujjatlar hamda ma'lumotlar taqdim etilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Bu muddat boshqa davlat

organlari tomonidan tovarlar va (yoki) transport vositalari yuzasidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqtni o'z ichiga olmaydi.

Transport tashuvlari haqidagi bilimlar “Logistika” fanining asosiy tarkibiy qismiga kiradi, logistika so'zi grekcha “logistike” so'zidan olingan bo'lib, “hisoblash, idrok etish mahorati” degan ma'noni bildiradi. Amaliy logistikaning yuzaga kelish tarixi juda qadim davrlarga borib taqalib, Rim imperiyasida “logist”lar oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatish bilan shug'ullanganlar. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, bizning yurtimiz, tarixan Osiyo va Evropani birlashtirgan – Buyuk Ipak Yo'li orqali amalga oshirilgan xalqaro savdoda eng muhim markazlaridanbiri bo'lib, bu yo'l orqali karvonlarda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yuklar tashuvi amalga oshirilgan.

Bugungi kunda nazariyotchilar va amaliyotchilar logistikaning bir qancha turlarini farqlaydilar: ta'minot logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, marketing logistikasi, taqsimot logistikasi, transport logistikasi va hokazolar. Xalqaro iqtisodiy globalizatsiya sharoitida transport logistikasi birlamchi ahamiyatga sazovor bo'ldi. Kommunikatsiyaning ushbu turi davlatlar iqtisodiyotining va jahon hamjamiyatining strukturaviy-texnologik qismiga aylanib borib, transport tashuvlarini samarali va yuqori sifatli tashkil etilishiga birinchi darajadagi vazifa sifatida qaralmoqda. Xalqaro logistik tizimlarda optimallashtirish printsipligiga asoslanib, transportning har xil turlaridan foydalaniladi.

Bugungi kunda transport logistikasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ transport vositalari turini tanlash;
- ✓ transport vositalari ko'rinishini tanlash;
- ✓ transport tashuvi jarayonini ishlab chiqarish va omborda saqlash jarayonlari bilan birgalikda rejalashtirish;
- ✓ aralash transport tashuvlarida turli transport vositalari orqali tashuvni rejalashtirish;
- ✓ transport-ombor jarayonining texnologik yaxlitligini ta'minlash;
- ✓ etkazib berishning ratsional marshrutini aniqlash.

Tayyor mahsulot realizatsiyasida korxonada mahsulotni etkazib berish bilan bog'liq masalalar to'plamiga duch keladi. Birinchi o'rinda, bu transport turini, tashuvni tashkillash usullarini tanlash bilan bog'liq masalalardir. Ratsional transport vositasini tanlashda tashiladigan yuk xususiyatlari va bir qancha boshqa talablarga e'tibor beriladi. Transport logistikasining rivojlanishi oboruvchi, qabul qiluvchi va transport korxonasi umumiy foydasiga hal bo'lib, kompleks transport-texnologik tizimlari tashkil etishga asoslanishi lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport tashuvlari bilan bog'liq operatsiyalar tashqi savdo bitimlarini ham boshlang'ich, ham yakunlovchi qismi bo'lib xizmat

qiladi. Bunda transport tashuvi nafaqat savdo-sotiq bitimini amalga oshiradi, balki tovarning bitimdagi narxiga ham katta ta'sir qiladi. Korxonaning hatto yuqori sifatli eksportga mo'ljallangan mahsulot chiqarishga qaratilgan barcha urinishlari transport tashuvini amalga oshirishdagi kachiliklar va xatolar tufayli zoe ketishi mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda transport tashuvi jarayonining ishtirokchilari murakkab munosabatlarga kirishadilar. Bu munosabatlarning mexanizmlari iqtisodiy va siyosiy omillar, xalqaro huquq va tijorat normalari, aktlar va anʼanalar asosida shakllanadi. Bunday sharoitda yuk egasiga xalqaro bozorlar, mijozlar joylashishi, alohida davlatlar siyosati va xalqaro tashkilotlar ta'siri ostida shakllanadigan transport tashuvlari holatiga moslashish tobora qiyinlashib bormoqda. Bugungi kunda professional bilimlarga ega bo'lish, turli davlatlarning qonunchiligi, xalqaro konvensiyalar, transport vositalarining texnik-iqtisodiy xususiyatlarini bilish, yuklarni qayta ortish, transport va vositachilik bozori haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Transport xizmatlarining mahsuloti tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etkazib berish jarayonidir. Transport xizmatlari boshqa xizmatlar kabi o'z xususiyatlariga ega:

1.Transport xizmatlari yangi mahsulot ishlab chiqarmaydi, biroq ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish joyidan istemolchiga etkazib berish transport xizmatlari yaratadigan iste'mol qiymatini tashkil etadi.

2.Transport xizmatlarining realizatsiyasi, transport tashuvlaridan tashqarida saqlab yoki amalga oshirilib bo'lmaydigan foydali natijada namoyon bo'ladi. Ya'ni, transport xizmatlarining yaratilishi va iste'mol qilinishi davri bir vaqtga to'g'ri keladi.

3.Transport tashuvlari xalqaro tovar aylanmasida alohida o'rin tutadi. Bir tomondan, u xalqaro mehnat taqsimotini va xalqaro aloqalarni asosini tashkil etadi, boshqa tomondan, transport sanoati jahon bozorida o'z xizmatlarining eksport qiluvchisi bo'lib ishtirok etadi.

4.TIFda amalga oshiriladigan transport xizmatlariga bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini tavsiflovchi barcha omillar ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, bu omillarga mahsulotlarga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishi, neft bahosining, valyuta narxlarining o'zgarishlari, davlatning TIFga aralashish darajasi, turli davlatlarning iqtisodiy va siyosiy munosabatlari holatini kiritish mumkin.

Nazorat savollari:

1.Transport xizmatlari deganda nima tushinasiz?

- 2.O‘zbekiston Respublikasi TIF ning asosiy tashkil etuvchilari nimalar?
- 3.O‘zbekiston Respublikasining TIS asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
- 4.Nima uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tartibga solishga muxtoj?
- 5.Xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashuvchilari qanday minimum bilimlarga ega bo‘lishlari lozim?
- 6.Xalqaro yo‘nalishlarda tashilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarida qanday xujjatlar bo‘lishi lozim?
- 7.Bojxona organi bojxona maqsadlari uchun qanday xujjatlar talab qilishga haqli?
- 8.Bojxona organi masabdor shaxsi bojxona chegaralari orqali olib o‘tilayotgan tovarlardan qanday bojxona to‘lovlari undirishlari mumkin?
- 9.Bojxona chegaralari orqali olib o‘tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirish tartibi qanday?
- 10.Eksport import tovarlaridan soliqlar undiriladimi, agar undirilsa qanday?

7-Mavzu; Xalqaro logistika infratuzilmasi .

REJA

1. O‘zbekiston logistika samadorligining
2. O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy temir yo‘l loyihasi
3. O‘zbekistonni chetlab o‘tayotgan transport yo‘laklari bilan birlashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Ishdan maqsad; Xalqaro logistika infratuzilmasini o‘rganish.

Umumiy ma‘lumotlar;

4.1 O‘zbekiston Respublikasi tashqi Iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri mamlakatimiz va Markaziy Osiyo transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish sohasida strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish xisoblanadi.

Binobarin, Prezidentimizning parlamentimizga Murojaatnomasida O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuklarini jahondagi hamda mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqadigan ishonchli transport va tranzit yo‘laklarini izchil shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish lozimligi qayd etilgan edi. O‘tgan yilning dekabr oyida Prezidentimiz qarori bilan 2018 — 2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash bo‘yicha kompleks dastur qabul qilindi. Mazkur dasturda O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron, O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy xalqaro transport yo‘laklari, shuningdek, Eron (BandarAbbos, CHabahar) va Pokiston (Gvadar, Karachi) dengiz portlariga chiqish uchun transfg‘on transport yo‘lagini qurish bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni jadallik bilan hayotga tatbiq qilishga alohida ahamiyat berilgan.

Qayd etish kerakki, 2017 yilning mart oyida O‘zbekiston va Turkmaniston rahbarlarining uchrashuvi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — O‘mon transport-kommunikatsiya yo‘lagining muhim uchastkasini amalga oshirishga kirishildi: Amudaryo orqali Turkmanobod — Farob temir yo‘li hamda avtomobil yo‘li ko‘priklari ochildi. Natijada konteynerlarda yuk tashish hajmi 2,5 baravar ko‘paydi. O‘zbekiston — Turkmaniston — Kaspiy dengizi — Bokuga chiqish orqali Janubiy Kavkaz — Tbilisi — Kars yo‘nalishi bo‘yicha to‘g‘ridanto‘g‘ri transport-kommunikatsiya magistralini yaratish g‘oyasini amalga oshirish hamda Gruziya, Turkiya, Ruminiya va boshqa davlatlarning Qora dengiz bo‘yidagi portlariga chiqish imkoniyati ochilmoqda.

Bundan tashqari, 20 yillik muzokaralardan so‘ng Xitoy va Markaziy Osiyoni Qirg‘iziston orqali bog‘laydigan temir yo‘l qurilishida ham jiddiy siljish yuz berdi. Misol uchun, 2017 yilning 25 — 27 dekabr kunlari XXR, Qirg‘iziston va

O‘zbekiston delegatsiyalarining Toshkentda bo‘lib o‘tgan uch tomonlama uchrashuvida O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy loyihasini jadal ro‘yobga chiqarishga qaratilgan amaliy qaror qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018 yilning oxiriga qadar yo‘nalishni aniq belgilash, texnik-iqtisodiy asoslantirishni ishlab chiqish hamda uni moliyalashtirish masalalarini hal qilish kutilayapti.

Ushbu yo‘lak Xitoydan yuklarni eng qisqa masofa bo‘ylab Markaziy Osiyo orqali Janubiy Osiyo hamda YAqin SHarq mamlakatlariga, Transkavkaz yo‘lagi orqali Evropaga Yetkazib berish imkoniyatini yaratadi.

Loyihaning dastlabki parametrlariga ko‘ra, yuklarni konteynerlar orkali Yetkazib berish muddati 7-8 sutka, SHarqiy Osiyodan YAqin SHarq va Janubiy Evropa mamlakatlarigacha bo‘lgan masofa esa 900 kilometr qisqaradi.

SHu o‘rinda Afg‘oniston Prezidenti Ashraf Fanining 2017 yil dekabr oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog‘ida imzolangan Mozori SHarif — Hirot temir yo‘lini qurish to‘g‘risidagi bitimni alohida qayd etish lozim. Ushbu yo‘lak ilgari O‘zbekiston tomonidan qurilgan birinchi transport yo‘lagi — Hayraton — Mozori Sharif temir yo‘lining davomi hisoblanadi. 2014 yilda AQSH Moliya vazirligi Osiyo taraqqiyot bankini Afg‘oniston Islom Respublikasi iqtisodiyotini tiklash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan mazkur tarixiy loyihani amalga oshirishni moliyalashtirishga ko‘maklashgani uchun taqdirladi. Bugungi kunda ushbu magistral orqali Afg‘oniston importining qariyb yarmi olib kirilmoqda. Ular orasida insonparvarlik yuklarining hajmi katta o‘rin tutadi.

Mazkur temir yo‘lning yotqizilishi va uning samarali faoliyat olib borishiga erishish Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Afg‘onistonning xalqaro transport va savdo tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyasiga xizmat qiladi.

Birinchiidan, u Afg'onistonni ijtimoiy-iqtisodiy tiklash bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarga haqiqiy hissa qo'shishga zamin yaratadi. Masalan, Osiyo taraqqiyot bankining hisob-kitoblariga ko'ra, Hayraton — Mozori SHarif temir yo'li foydalanishga topshirilishi natijasida 1,2 ming nafarga yaqin kishilar ishga joylashtirildi. Temir yo'l bo'ylab afg'onlarning bandligi o'sish sur'atlari yiliga 10-11 foizni tashkil etdi va natijada 2008 yilgi ko'rsatkichga nisbatan ikki baravar oshdi.

Bundan tashqari, Kobul tovar ayirboshlash hajmi va yuklar tranzitini ko'paytirishdan qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lish hisobiga tashqi donorlik yordamiga qaramlikdek o'tkir muammoni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi kunda bunday yordam mamlakat YAIMning qariyb 90 foizini tashkil qiladi.

Ekspertlik baholariga qaraganda, Mozori SHarif — Hirot temir yo'li loyihasini amalga oshirish natijasida Eronning CHabahar portiga to'g'ridan-to'g'ri qatnovning ochilishi Afg'oniston tashqi savdo aylanmasini 50 foiz ko'paytirish imkonini beradi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, temir yo'l liniyasi qurilishi yakunlanganidan so'ng birinchi yilda konteynerlar orkali yuklar tranziti hajmi taxminan 5,3 million tonna, istiqbolda esa yiliga 15 million tonnaga etishi mumkin.

Ikkinchiidan, ko'zda tutilgan loyihaning hayotga tatbiq etilishi afg'on tinchlik jarayoniga jalb qilingan mamlakatlar o'rtasida mintaqaviy konsensusga erishishda yangi bosqich bo'ladi hamda ularning o'zaro raqobati uchun emas, balki hamkorligi uchun xolis sharoit yaratadi. Loyihaning ro'yobga chiqarilishidan Afg'onistonning qariyb barcha qo'shnilari, avvalambor, Hindiston, Eron va

Pokiston iqtisodiy naf ko'radi.

Eronning CHabahar hamda Bandar-Abbos portlariga olib chiqadigan Mozori SHarif — Hirot transport yo'lagining yaratilishi Hindistonga Afg'oniston, Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlari bozorlariga eng qisqa yo'llar bilan chiqish imkonini beradi. Bugun to'g'ridan-to'g'ri transport yo'llarining yo'qligi bois Hindiston hamda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi mavjud salohiyatdan juda past bo'lib qolmoqda, ya'ni 1,1 foizni ham tashkil qilmaydi.

Hindiston CHabahar port infratuzilmasini rivojlantirishga 500 million dollar investitsiya kiritdi. CHabahar — Zahedan — Zaranj Janubiy savdo yo'lagini rivojlantirish doirasida Eron — Afg'oniston temir yo'li qurilishida ishtirok etmoqda. Bu istiqbolda Afg'onistonning Hirot, Qandahor, Kobul va Mozori SHarif singari yirik shaharlarini birlashtiradigan halqa yo'liga chiqish imkonini beradi¹.

Ushbu yo'lning ishga tushirilishi Eronning port infratuzilmalari tranzit salohiyatidan faol foydalanish imkonini beradi hamda Tehronning Markaziy Osiyo

davlatlari bilan hamkorlik munosabatlariga yangi ruh bag'ishlaydi. Binobarin, Tehron Afg'oniston hududi orqali o'tadigan transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishda faol qatnashmoqda. 2017 yilning sentyabr oyida Eron — Afg'oniston temir yo'lining mazkur mamlakatdan o'tadigan uchastkasi — Xaf shahridan Afg'oniston bilan chegaradosh SHamti shahrigacha bo'lgan qismi qurib bitkazildi. YAqin vaqt ichida Eronning Xaf shahridan Hirotgacha temir yo'l yotqizishni yakunlash rejalashtirilayapti.

Mozori SHarif — Hirot liniyasi, bundan tashqari, Markaziy Osiyo — Pokiston yo'nalishida ham yuklarni tashishga sharoit tug'diradi. Bunda Eron va Pokistonning Zahedan — Kvetta — Karachi temir yo'l tarmoqlaridan foydalanish mumkin bo'ladi. Hozirgi vaqtda Pokiston tomoni Peshavor — Jalolobod temir yo'li qurilishini faol ilgari surayapti. Bu kelajakda Afg'onistonning yaxlit temir yo'l tizimi bilan bog'lanib, Pokistonning Karachi portiga to'g'ridan-to'g'ri yo'l ochadi. Pokiston Temir yo'llar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Jahon banki ushbu loyihaning texnik parametrlariga qiziqish bildirgan.

Uchinchidan, O'zbekiston — Afg'oniston tranzit-infratuzilma salohiyatidan foydalanish istiqbollari Markaziy Osiyo davlatlariga Hind okeani savdo yo'llariga chiqish imkonini yaratadi. Mintaqa, o'z jug'rofiy joylashuviga ko'ra, Evroosiyo qit'asida qariyb barcha — Janub — SHimol, SHarq — garb yo'nalishlarida muhim quruqlik magistraliga aylanish uchun yuqori darajada transport-tranzit salohiyatiga ega.

Transafg'on transport-kommunikatsiya loyihalari barpo etilishi mintaqadagi boshqa muhim loyihalar, jumladan, O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Ummon, O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy xalqaro transport yo'laklari bilan uyg'un bo'lib, eng qisqa masofali qit'alararo transport yo'laklarini rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston — Afg'oniston — Eron o'rtasidagi muqobil quruqlik yo'lagingining uzunligi 3,5 ming kilometr bo'lib, Xitoydan Erongacha bo'lgan mavjud dengiz yo'lidan (13,8 ming kilometr) to'rt baravar qisqadir. O'z navbatida, Mozori SHarif — Hirot temir yo'li qurilishi Afg'onistondan Xitoyga Andijon orqali 3 kun ichida borish imkonini beradi.²

SHuni qayd etish kerakki, mazkur magistral ikki yo'nalishdagi, ya'ni MDH va Boltiq mamlakatlari — O'zbekiston — Afg'oniston — Eron portlari — Fors ko'rfazi va YAqin SHarq mamlakatlari hamda Fors ko'rfazi mamlakatlari — Afg'oniston — O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy — SHarqiy va Janubi-

SHarqiy Osiyo mamlakatlari yo‘nalishidagi yangi temir yo‘l yo‘laklarining muhim qismi sanaladi.

O‘zbekistonning yuqori darajadagi transport-tranzit salohiyati sharoitida yuqorida qayd etilgan loyihalarning iqtisodiy ustuvorligi yanada ayonlashadi.

SHubhasiz, temir yo‘llar qurilishining texnik parametrlarini, xavfsizlikni ta‘minlash hamda ularni moliyalashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish masalalarini kelishish nuqtai nazaridan katta hajmdagi ishlarni bajarish kerak bo‘ladi.

YAngi temir yo‘l transporti infratuzilmalarini shakllantirish bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishilganini Markaziy Osiyo mintaqasining tranzit pozitsiyasi kuchayishi va Markaziy Osiyo hamda Afg‘onistonning dunyo iqtisodiyotiga integratsiya bo‘lishi, mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy salohiyati hamda farovonligini oshirishda navbatdagi dolzarb qadam sifatida ko‘rish lozim. Bunda mazkur tashabbuslarning amaliy ro‘yobga chiqarilishi Markaziy Osiyoni nafaqat xalqaro tranzit bo‘g‘iniga, balki Janubiy Osiyo, Osiyo — Tinch okeani havzasi mintaqasi, MDH, Evropa va YAqin SHarq o‘rtasidagi transkontinental iqtisodiy makonning muhim bo‘g‘iniga aylanishiga ham zamin yaratadi.

Bularning barchasi pirovardida O‘zbekistonning barcha yirik tashqi iqtisodiy sheriklari bilan munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi hamda rivojlangan davlatlar, Hindiston, Eron, Pokiston singari jadal sur‘atlar bilan ravnaq topayotgan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytiradi.

Jumladan, O‘zbekiston va Qozog‘iston chegaraoldi hamkorligi xalqaro markazi, transport-logistika markazi barpo etishni rejalashtirmoqda

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘z chegaraoldi hududlarida xalqaro chegaraoldi markazi, transport-logistika markazi (quruq port) qurishni rejalashtirmoqda. Bunga 2018 yil 14 mart kuni ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha qo‘shma hukumatlararo komissiya majlisida oydinlik kiritildi.

Qozog‘iston Respublikasi xukumati xabariga kura 2017 yil yakunlari bo‘yicha temir yo‘l transportida uzaro konteyner tashuvlari hajmi 8 foizga oshib, 20,5 million tonnadan ortikni tashkil etdi. 2018 yilning ikki oyi davomida tashuvlar hajmi 2017 yilning shu davriga nisbatan 44 foizga oshgan.

4.2. O‘zbekiston Respublikasida yuk tashish tizimini rivojlantirish strategiyasi

O'zbekistonning strategik vazifasi transqit'aviy yuk tashishga doir logistika sxemalarida bog'lovchi bo'g'inga aylanishdan, shu bilan bir vaqtda qo'shni mamlakatlar bilan yuk tashish bo'yicha o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishdan va yuk tashishdan tushadigan daromadlarni eksport tushumlarining eng muhim qismlaridan biriga aylantirishdan iborat. Mamlakatning ichki transport tashish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsayotgan, tranzit salohiyatining rivojlanishini sekinlashtiruvchi hamda transport-tranzit salohiyatini to'laligicha namayon qilishi uchun to'sqinlik qilayotgan bir qancha sabablar mavjud.

O'zbekiston hududida xalqaro transport yo'laklarining joylashganligi ma'muriy markazlarga bog'lanadi. Bunday eng yirik markaz Toshkent shahridir. Bunda o'tkazish punktlari muayyan qismining etarli darajada quvvatga ega emasligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda, bu ularning texnik jihatdan zaif jihozlanganligi, shu jumladan bojxona xizmatida AKTdan foydalanish bilan izohlanadi. Bu vakolatli organlar tomonidan tranzit yuklarni tekshirish tartiblarining cho'zilib ketishiga, avtotransport vositalarining chegarada bo'sh turib qolishiga olib kelmoqda. Xalqaro avtomobil yuk tashish hajmlari oshishi munosabati bilan ushbu o'tkazish punktlarini katta yuk ortilgan avtotransportda kesib o'tish 5 sutkagacha cho'zilmoqda, bu esa mamlakat avtomobil yo'laklarining tranzit jihatidan jalb etuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston hududi orqali o'tadigan asosiy transport yo'laklari zarur infratuzilmaga to'liq ega emas, istiqbolda xalqaro transport magistrallari maqomini olish imkoniyatiga ega bo'lgan ayrim uzun yo'nalishlarda esa infratuzilma endi yaratilmoqda.

Tashqi savdo operatsiyalarini rasmiylashtirish tartib-taomillarining murakkabligi tashish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, eksport qilish va import qilish bilan bog'liq hujjatlar soni Xitoyda tegishli ravishda 8 ta va 5 tani, Eronda 7 ta va 11 tani, Qozog'istonda 10 ta va 12 tani, Qirg'izistonda 9 ta va 10 tani, Rossiyada 9 ta va 11 tani, Tojikistonda 11 ta va 12 tani, O'zbekistonda 11 ta va 13 tani tashkil etadi⁵. Bundan tashqari, bojxonada tahdidlarni boshqarishni tashkil etish bilan bog'liq masalalar ham mavjud bugun ham kirayotganda, ham chiqib ketayotganda yuk va yo'lovchi oqimining deyarli 100 foizi tekshiruvdan o'tkazilmoqda. Bu bojxona tartibtaomillariga ketadigan vaqtning cho'zilishiga hamda eksport qilish, import qilish va tashishning kechiktirilishiga olib kelmoqda.

Yetkazib berish zanjirining tarqoqligi, Yetkazib beruvchidan qabul qiluvchigacha tovarlarni ortish va yuklash bo'g'inlarining ortiqchaligi logistika tizimiga xosdir.³

Iqtisodiy taraqqiyot vositasi rolini bajarish uchun Respublikamiz transport sektorini jiddiy isloh qilish hamda katta hajmdagi investitsiyalarni parovoz va vagonlarni yangilashga sarflash hamda avtomobil, temir yo‘l va aviatsiya transporti infratuzilmasini rivojlantirish talab etilmoqda.

Transport xizmatlari narxlarining oshish sur‘atlarini pasaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur.

2030 yilga borib avtomobil transporti bo‘yicha yuk tashish hajmlari yiliga o‘rtacha 9,4 foizga yoki umuman 4,6 foizga o‘sishi prognozlaridan kelib chiqqan holda yuk avtomobillari sonini kamida 120 mingta avtomashinaga ko‘paytirish talab etiladi. Har yili safdan chiqayotgan avtomobillarni (5%) almashtirish zarurligini inobatga olgan holda bu 2030 yilgacha har yili qariyb 8 ming avtomobil xarid qilinishini talab qiladi. Yillik investitsiya qariyb 960 mln. dollarni yoki 2030 yilgacha umuman 14,4 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak.

Xususiy sektor yuk avtomobillariga investitsiyalar kiritishning bosh manbasi bo‘lishi lozimligi tufayli bu vazifani hal etish quyidagilar orqali yuk avtomobillari saroyini yangilash uchun shart-sharoitlar va rag‘batlantiruvchi omillar yaratishga doir bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishni nazarda tutadi:

Zamonaviy avtotransport vositalarini xarid qilish uchun uzoq muddatli bank kreditlarini berish tizimini takomillashtirish; mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan modeldagi yuk avtomobillarini import qilishda olinadigan boj to‘lovlarini kamaytirish; yoqilg‘idan samarali foydalanish standartlarini va avtomobillardan ishlangan gazlarni chiqarish standartlarini qattiqlashtirish orqali avtomobillar saroyini yangilash uchun normativ bazani takomillashtirish va rag‘batlantiruvchi omillarni yaratish.

Umuman olganda, yuk avtomobillari saroyining yangilanishi va ko‘p yuk ortilgan avtomobillar ulushining oshirilishi (avtopoezdlarni joriy etish hisobiga yuk ko‘tarish qobiliyati oshirilishi) avtomobilda yuk tashish tannarxini 15-28 foizga pasaytirish imkonini beradi. Narxlar pasaytirilganda DAK uchun yuk aylanmasini oshirishga doir omillar yaratilishi:

tariflarni belgilash/indeksatsiyalash prinsiplarini o‘zgartirishni va bosqichma-bosqich yangi tarif tizimiga o‘tishni, tuzatish koeffitsientlari 6 sonini kamaytirishni, temir yo‘l orqali tashishni har tomondan mablag‘ bilan ta‘minlash turlarini kamaytirishni talab qiladi;

lokomotiv va vagonlariga ega bo‘lgan temir yo‘l transportida kishlok xujaligi maxsulotlarini tashishga mo‘ljallangan xususiy kompaniyalar tashkil etilishi uchun

shart-sharoitlar yaratish orqali temir yo‘l orqali yuk tashish sohasida raqobat muhitini shakllantirishni talab qiladi.

Transport va logistika tizimining tezkorligi va ishonchliligini oshirish: avtomobil yo‘llari va yo‘l bo‘yidagi infratuzilmani rivojlantirishni talab qiladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030 yilgacha yo‘l qurilishiga sarflanadigan sarmoyalar hajmi qariyb 19,3 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak;

2030 yilgacha elektr energiya bilan ta‘minlangan temir yo‘llar ulushini 45 foizga etkazish talab qilinadi. Buning uchun har yili o‘rtacha 178 km temir yo‘lni elektr energiya bilan ta‘minlash zarur, sarmoyalar hajmi esa 5,34 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak. 2030 yilgacha lokomotiv va vagonlarni yangilash uchun 1,2 mlrd. dollarlik sarmoyalar sarflash zarur. Umuman olganda, ushbu investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishning o‘rtacha tezligini soatiga 70-80 kilometrga, temir yo‘l orqali harakatlanishning o‘rtacha tezligini soatiga 70-100 kilometrga etkazish imkonini beradi.

Konteynerda tashilgan yuklarning transportga sarflanadigan to‘lovlarini 10 foizga kamaytirish uchun konteynerda tashishni 25-30 foizga oshirish zarur. Buning uchun «Uztemiryulkonteyner» AJ konteynerlari saroyini 5 mingta (40 fut.) konteynerga ko‘paytirish zarur, bu esa qariyb 22,5 mln. dollar mablag‘ kiritishni talab qiladi. Quyidagilar orqali transport-logistika xizmatlari segmentini rivojlantirish uchun mintaqalarda multimodal transport- logistika markazlari tarmog‘ini kengaytirish lozim: yuk tashish, intermodal va multimodal yuk tashish normativ hamda huquqiy bazasini, texnik va texnologik reglamentini hamda standartlarini, logistika markazlarini, transport-ekspeditorlik faoliyatini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish; multimodal tashishlar samarali bo‘lishini ta‘minlash uchun axborot bazalarini

(bojxona, soliq, statistika va boshqa bazalarni) birlashtirish;

bojxona logistika markazlarining milliy tarmog‘ini shakllantirish. Ularda transport-logistika operatsiyalari kamida 3 PL darajada bo‘lishi lozim.

Mamlakatning transport-tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun transport yo‘nalishlarining diversifikatsiyalanishini, imkoniyatlarning samarali ishga solinishini ta‘minlash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. «O‘zbekiston Respublikasida xalqaro avtomobilda yuk tashish to‘g‘risida» gi va «O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yuklarni o‘tkazish to‘g‘risida» gi kabul kilingan qonunlarni xayotga tadbik etish. Ushbu qonunlarda xorijiy davlatlar avtomobil vo sitalarining mamlakatimizga kirishi, mamlakatimizda bo‘lishi va undan chiqib ketishi shartlarini tartibga solish hamda engillashtirish uchun

avtomobilda xalqaro yuk tashish va yuklarni o'tkazish, tranzit yuk o'tkazuvchilarning huquqiy maqomi masalalari tartibga solinganli diqqatga sazovor

O'zbekistonning transport tizimini O'zbekistonni chetlab o'tayotgan transport yo'laklari bilan birlashtirishning asosiy yo'nalishlari

№	O'zbekistonni chetlab o'tadigan yo'nalish	Yo'nalishlarni birlashtirishga doir loyihalar		
		Nomi	Uzunligi	Qiymati
1	«G'arbiy Evropa – G'arbiy Xitoy»	«Toshkent-CHimkent» avtomo- bil yo'lini modernizatsiya qilish	150 km	300 mln. doll.
2	«Uzen-Qizilqiya-Bereket-Etrek-Gorgan» Kaspiy dengizi transport yo'lagi	«O'zbekiston-Turkmaniston- Eron-Ummon transport yo'lagi loyihasini amalga oshirish	2800 km	Aniqlanmoqda
3	Turmaniston va Afg'oniston o'rtasidagi «Imamnazar-Atamirat-Andxoy-Hirot» temir yo'li	«O'zbekiston temir yo'llari» DAK kuchi bilan «Mozori SHarif - Andxoy» temir yo'l uchastkasini qurish.	120 km	Qariyb 170 mln. dollar
4	Qashg'ardan Erongacha Qirg'iziston, Toji- kiston va Afg'oniston orqali o'tadigan temir yo'l hamda avtomobil yo'li	«O'zbekiston-Qirg'iziston- Xitoy» temir yo'lini qurish loyihasini amalga oshirish uchun asos sifatida elektr energiya bilan ta'minlangan «Angren-Pap» temir yo'l li- niyasini qurish	150 km	2,7 mlrd. doll.

Yuqoridagi jadvalda aslini olganda, bundan avval ham «Ipak yo'li» loyihalari doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi turli katta davlatlarning e'tibori ostida bo'lib keldi. AQSH, Rossiya, Hindiston, Evropa Ittifoqi, Turkiya hududiy hamkorlik loyihalarini o'rtaga tashlab kelyapti. Biroq bu loyihalar katta infrastruktura loyihalarini ko'zda tutmagan. Ko'plari qog'ozda qolib ketgan desak, mubolaga qilmagan bo'lamiz.

Xo'sh, Xitoy hukumati tomonidan o'rtaga tashlangan bu safargi «Ipak yo'li» loyihasini biz nega birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatladik? Mazkur loyiha quruqlikning qog'ozda joylashgan O'zbekiston uchun nimasi bilan jozibali?

Avvalo shuni aytish kerakki, 2013 yilda mazkur tashabbus e'lon qilinganidan keyin Xitoy o'zining tashqi investitsiya va savdo aloqalarining hammasini «Bir makon, bir yo'l» bayrog'i ostida jamladi. BMBY Xitoyning rasmiy tashqi iqtisodiy siyosati maqomiga ko'tarildi va hatto yaqinda o'zgartirilgan XXR konstitutsiyasida ham o'z aksini topdi. Endi O'zbekiston-Xitoy iqtisodiy aloqalarini BMBY tashabbusi doirasida tahlil qilsa ham bo'laveradi.

O‘zbekiston 1991 yildan boshlab XXR bilan iqtisodiy aloqalarni yuritib kelyapti. Xitoy O‘zbekistonning eng yirik tijoriy hamkorlaridan biri va mana bir necha yildirki, Xitoy O‘zbekiston uchun eng yirik xorijiy investor. 2017 yilning o‘zida savdo aylanmasi hajmi 5 milliard AQSH dollariga teng kelgan bo‘lsa, tomonlar bu hajmni 2020 yilga etib ikki baravar oshirishni ko‘zlayapti.

Xitoy shirkatlari yurtimizda katta investitsiya bitimlari tuzishga erishishgan. Masalan gaz va uran qazib olish bo‘yicha jami 15 milliard AQSH dollarlik shartnomalar imzolangan. Qo‘shma korxonalar soni 700dan ko‘p bo‘lib, bunda Xitoy investitsiyasi jami 8 milliard AQSH dollaridan [oshdi](#).

O‘zbekiston hukumati BMBY loyihasi e‘lon qilingan ilk kunlaridanoq uni qo‘llab-quvvatlashini bildirgan. Natijada «Ipak yo‘li» Iqtisodiy makoni qurilishidagi hamkorlik O‘zbek-Xitoy xalqaro aloqalarining asosiy yo‘nalishiga [aylandi](#). SHu sababli, Xitoy tashkil etgan ilk global moliya instituti – Osiyo infrastruktura banki va Investitsiya bankida O‘zbekiston tashkil etuvchi sifatida qatnashdi va uni faol qo‘llab-quvvatladi.

Prezidentimiz 2017 yil may oyida BMBYning 1-Forumi uchun Pekinga davlat tashrifi bilan bordi va XXRning eng yirik davlat shirkatlari va banklari bilan muzokaralar olib bordi. Natijada jami qiymati 22 miliard AQSH dollarlik 100dan ziyod bitimlarga erishilgandi. Tashrif doirasida taraflar qo‘shma deklaratsiya e‘lon qilishgan va unda quyidagi muhim masalalar joy olgan:

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida 2009 yil 14 oktyabrda imzolangan uzoq muddatli savdo bitimi doirasida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, tabiiy resurslarini va energiya mahsulotlarini Xitoy bozoriga eksport qilishga tayyor;

tomonlar Xitoy taraqqiyot banki va Xitoy Eksimbanki O‘zbekistondagi turli infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi;

tomonlar yuqori texnologiyali qo‘shma korxonalarni rag‘batlantirish va tabiiy resurslar bilan bog‘liq bo‘lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan sarmoyaviy hamkorlik to‘g‘risida kelishib oldilar;

tomonlar xalqaro avtomobil transporti bitimi tuzilganini alohida e‘tirof etish bilan birga, o‘rtadagi savdo munosabatlarini mustahkamlash uchun bitim ahamiyatini alohida ta’kidladilar;

tomonlar «O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy» temir yo‘l loyihasi bo‘yicha muzokaralarni tezlashtirish muhimligini [ta’kidladilar](#).

Hamkorlikning amaliy natijasi o‘laroq, BMBY tashabbusining 1-Forumidan uch oy o‘tib, 2017 yilning avgust oyida prezident SHavkat Mirziyoev Osiyo infrastruktura va investitsiya banki rahbari Jin Liqunni Toshkentda qabul qildi.

Tomonlar O‘zbekistondagi bir qator loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni muhokama qildilar. 2,7 milliard AQSH dollari miqdoridagi ushbu loyihalarga suv xo‘jaligi ob‘ektlarini modernizatsiya qilish, energetika infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy avtomobil yo‘llarini qurish, temir yo‘llarni elektrlashtirish, poytaxt metro tarmog‘ini kengaytirish kiradi.

O‘zbekistonning maqsadi nima?

Imtiyozli kreditlardan foydalanish, Xitoy ishbilarmonlik majmualarini ishga tushirish, mahalliy firmalarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, o‘zbek mahsulotlari uchun muqobil bozorlarni topish – O‘zbekiston hukumatining asosiy [maqsadlari](#). Bundan tashqari, tashqi savdoni rivojlantirish, qo‘shimcha qiymatli o‘zbek mahsulotlarini BMBY loyihasi yoqasida joylashgan mamlakatlarga etkazishda loyiha resurslaridan foydalanish ham maqsad qilingan.

Transport infratuzilmasi bo‘lmagan, dunyo portlariga chiqish uchun kamida ikkita davlatni kesib o‘tishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston uchun mazkur loyihada ishtirok etish Evropa Ittifoqi, YAqin SHarq va Xitoy kabi yirik global bozorlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvga yordam beradi.

BMBYga qo‘shilish orqali O‘zbekiston hukumati savdo yo‘llarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini qo‘lga kiritishi mumkin. Ayniqsa, «Ipak yo‘li» Iqtisodiy makonining uchta trans Evroosiyo iqtisodiy yo‘laklari orasida Xitoydan Markaziy Osiyoga, keyin Rossiya orqali Evropaga (Boltiq dengiziga qadar) olib boradigan iqtisodiy yo‘lagi va Xitoydan Markaziy Osiyo va G‘arbiy Osiyo orqali Fors ko‘rfazi va O‘rta Er dengiziga qadar cho‘zilgan yo‘llar ahamiyatlidir.

«Bir makon, bir yo‘l» tashabbusi doirasida qurilgan Qamchiq tunneli:

1. Infratuzilma. O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy temir yo‘l loyihasi

O‘zbekiston Respublikasi 2016 yilda Xitoy Eksimbankidan 455 million AQSH dollari miqdorida infratuzilma kreditini jalb qilgan holda sharqiy O‘zbekistonning tog‘li qismida 19,2 km uzunlikdagi Kamchiq tunnelini qurishga muvaffaq bo‘lgandi. 2016 yil iyunida O‘zbekiston va XXR rahbarlari ishtirokida Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li va Qamchiq tunnelining ochilish marosimi o‘tkazildi. Uni XXRning China Railway Group kompaniyasi amalga oshirgan. Ish bu bilan to‘xtamagan, O‘zbekiston qo‘shni Qirg‘iziston bilan birga XXRga «O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy» temir yo‘l loyihasini BMBY doirasida qurish taklifi bilan [chiqdi](#).

Ta'kidlash joizki, ushbu loyiha Xitoy tomonidan emas, balki O'rta Osiyo davlatlari tomonidan, BMBY e'lon qilinishidan oldin taklif [qilingan](#). O'zbekiston-Xitoy o'rtasidagi qo'shma bayonotga ushbu loyihaning qo'shilishi Prezident Mirziyoevning diplomatik yutug'i sifatida ko'rilishi mumkin. Biroq Xitoy va sobiq sovet ittifoqi respublikalari temir yo'llari relslari enining turliligi ushbu temir yo'li liniyasi qurilishi 20 yilga kechiktirilishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi loyihalardan tashqari, davlatimiz Osiyo Infratuzilma va investitsiya bankiga o'tgan yili boshida Buxoro-Urganch-Xiva temir yo'li elektrlashtirilishi bo'yicha loyihani moliyalashtirish uchun ariza [topshirgan](#). Loyiha 3 bosqichdan iborat bo'lib, Buxoro-Miskan, Miskan-Urganch va Urganch-Xiva yo'nalishlari uchun jami 340 million AQSH dollari [so'ralgan](#). Agar u amalga ohsa, ushbu shaharlar orasidagi qatnov tezlashadi, turistlar harakati engillashadi va yuk tashish ishlari osonlashadi. Hozircha ushbu loyihani bank kengashi qachon tasdiqlanishi noma'lumligicha qolmoqda. Bundan tashqari, Xitoy tomonidan o'rta tashlangan va O'rta Osiyo davlatlari ham qo'llab-quvvatlagan Xitoy-O'rta Osiyo gaz quvurining 4-liniyasi bo'lgan D-liniyasini qurish so'nggi yillarda ortga surilmoqda. Tojikistonlik do'stlarimiz bu liniyaga katta umid bilan qarashayotgan bo'lsa-da, ba'zi bir noaniq sabablarga ko'ra ushbu katta loyiha amalga oshmay turibdi.

Nima bo'lganida ham, taklif etilayotgan loyihalarimiz iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashi, uzoqni ko'zlashi, loyiha amalga oshiriladigan hududlardagi aholi turmush shartini yaxshilashi, barqaror rivojlanishni (sustainable development) yuzaga keltiradigan bo'lishi shart. Yo'qsa loyihalar Afrika o'lkalaridagi kabi ko'pchilik tomonidan ishlatilmaydigan yoki atrofdagi aholi uchun foydasi tegmaydigan infratuzilmadan iborat bo'lib qoladi. Bunday bo'lmasligi uchun xalqimiz, ayniqsa hududlardagi manfaatdor fuqarolarimiz va ekspertmutaxassislarimiz BMBY loyihalari haqida etarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Xitoy bilan tuzilayotgan barcha shartnomalar iloji boricha oshkor etilishi, izohlanishi, ekspertizadan o'tkazilib, ommaga taqdim etilishi darkor. SHundagina Xitoy bilan bo'ladigan xalqaro aloqalarimiz o'zini oqlashi, har ikki tomon uchun manfaatli bo'lishi mumkin

Nazorat savollari

1. O'zbekiston logistika samadorligining
2. O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy temir yo'l loyihasi

3. O‘zbekistonni chetlab o‘tayotgan transport yo‘laklari bilan
4. . Infratuzilma. O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy temir yo‘l loyihasi
5. O‘zbekistonning maqsadi nima?
6. O‘zbekiston Respublikasida yuk tashish tizimini rivojlantirish strategiyasi

11-Mavzu; Xalqaro logistikada axborot va servis xizmati .

Reja

1. Xalqaro logistikada axborot xizmat ko`rsatish
2. Xalqaro logistikada servis xizmat ko`rsatish.
3. Ta`minot tizimini axborot bilan ta`minlashning afzalliklari.

Ishdan maqsad; Xalqaro logistikada axborot va servis xizmat ko`rsatishni o`rganish.

Xalqaro logistikasining axborot ta`minoti Axborot berish – moddiy harakatning universal xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Uning ahamiyatini odatda biror bir hodisa borasidagi bilimlarda noaniqlikning qisqarib borish prizmasi bilan belgilaydilar.

Axborot, axborot berish – informatsiya (lot.) tushintirish, aniqlashtirish, ma’lum qilishdir. Shu ma’noda qo`llaniluvchi so`zlar – yoritish, xabardor qilish, nimadir haqida ma’lumot berish. Matematika va kibernetikada informatsiya – noaniqlikning hal etib borilish miqdoriy o`lchovi (entropiya), tizimni tashkillishtirish me’yoridir.

Kibernetika va logistika texnologik fanlar sirasiga kiradi. Umumiy tashkiliylikka oid fanda: “informatsiya – muayyan tizimning atrof muhit, boshqa tizim yoki o`zining turli o`zgarish davrlarida tashkiliyligiga solishtirgandagi tashkiliyli darajasidir, ya’ni muayyan tizm hamda tashqi muhit yoki boshqa tizim o`rtasidagi tafovut yoki shunchaki shu tizimning ikki turlicha texnologik holatlarida o`rtasidagi farqdir. Axborot o`z-o`zidan mavjud bo`la olmaydi – u moddiy. U hamisha nimadir haqida. Hamisha axborot manbai va uning iste`molchisi (axborot yo`naltirilgan shaxs) bo`ladi. Logistikada axborot, informatsiya atamasini turli ma`nolarda qo`llash mumkin: axborot – tizimning noaniqlik o`lchovi; axborot – tizimning tashkiliylik o`lchovi xisoblanadi. Axborot maydoni ham bir turda bo`lmaydi: moddiy oqim tashkiliylik o`lchovining tashqi olam tashkiliylik o`lchoviga, uning tomonidan mahsulotning ishlab chiqarilish va iste`mol nuqtalari o`rtasidagi masofaviy farq bosib o`tilayotgan paytdagi, nisbati; moddiy oqimning tanaffus 163 holati va hududini (omborlashtirish) bosib o`tish jarayonidagi tashkiliylik me’yoridir¹⁰⁸ . Axborotning moddiy jihati muntazam kengayib bormoqda.

U logistikaning barcha sohalariga xizmat qiladi. Tijorat logistikani axborot bilan ta'minlashning quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin: - Mahsulotning ishlab chiqarish va iste'mol qilinish/foydalanish nuqtalari o'rtasidagi masofaviy bo'linishni bosib o'tish jarayonini ta'minlash; - Iste'mol va ishlab chiqaruv maqsadlariga muvofiq bo'lgan mahsulot va xizmat bozorini ta'minlash; - Logistik xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tadbirkorlikni ta'minlash. Logistik faoliyat borasidagi turli-tuman ma'lumotlar "kuchga to'lib", kuchli axborot oqimini hosil qiladi, qaysiki ekonomik oqim tizimiga element sifatida qo'shilgan. Axborot ta'minoti tashkiliylik o'lchovi sifatida tijorat logistikaning barcha funksional maydonini qamrab oldi – jamg'arma, ishlab chiqarish, sotuv, butun logistik jarayon faoliyatini boshqaradi. logistika tizimida axborot logistikasi – bu bir element. Unga nisbatan yanada ilg'orroq tartibdagi tizim sifatida namoyon bo'lad . Uning mavzu maydoni – axborot oqimidir. Shu bilan bir qatorda, axborot oqimi iqtisodiy oqimning bir qismi sifatida logistikaning boshqa turlarida muhim rol o'ynaydi: Bu holat axborotning logistik tizimi elementlarini bog'lashda muhim rol o'ynashi bilan izohlanadi. Logistik kompaniyalarni rivojlanib borgan sari axborot raqobat kurashi faol jarayonlarga aylanib boradi. Axborotning roli, ayniqsa, birja "firibgarlari" ning spekulativ bozorlarida yaqqol ko'rinadi. Axborotni qimmat va foydasi o'sib borishi uni o'ziga xoh mahsuli – tovar sifatida ko'rishimizga imkon beradi. Tovar holatida axborot narx-navo munosabatlari yangi maydonni hosil qiladi. Jamiyatning ijtimoiy-istisodiy faoliyatini kompyuterlashtirish katta hajmdagi axborot resursini mahsulot sifatida ishlab chiqarish imkonin berdi.

Axborot resursi jamiyat hayotidagi o'zgarishlar uchun borgan sari kuchliroq manbaga aylanib bormoqda. Axborot jamiyatning mentalitetini shakllantiradi, uning mafkurasiga ta'sir etadi¹⁰⁹ . Jahon iqtisodiyotining ham axborot strukturizatsiyasi boshlandi. Ham milliy, ham transmilliy (TNK) yo'nalishdagi kuchli moliyaviy-ishlab chiqaruv guruhlar (korporatsiyalar) tashkil topmoqda. Eng kuchli TNKlar butun jahon savdosining yarmiga yaqinini qamrab oladi. Ularga jahon axborot resurlarining katta qismi (patentlar, yangi texnologiyalar, nou-xau va boshqalar) qarashli. Jahon masshtabidagi shu turdagi gipertashkilotlar axborot tabiatiga ega. Faqatgina yetarlicha kapitalga va yagona strategik maqsadga ega bo'lgan, difersifikatsiyalangan korporatsiyalargina qo'shimcha xavf-xatarsiz yangi axborot resurslarini qo'lga kiritishga bog'liq bo'lgan kerakli sarmoya va innovatsion faoliyatni taqdim etishlari mumkin (NIOKR, texnologik qayta qurollanish, yangi bozorlarning yuzaga kelishi, jamoat fikrining yuzaga kelishi va hokazi). Faqatgina shu turdagi tashkilotlar, va yana hukumat ham, uzoq muddatli sarmovayiv nomahsulot turdagi axborotni ishlab chiqarishga qodirlar, va bunda foyda undirish muddati juda uzoq bo'ladi. Shunday qilib, axborot logistikasining vazifalari kengaymoqda va dolzarblashmoqda. Axborot logistikasi axborot oqimlarining ularni tizim doirasida ishlab chiqarish, harakatga keltirish, sotish jarayonidagi tashkiliy formalarini konfiguratsiyalashni

optimallashtirishga qaratilgan tadbirlar jamlanmasi sifatida harakterlanadi. Tijorat logistikasida moddiy oqimga ergashib keluvchi axborot oqimi haqida gapirish haqqoniy bo`ladi. Shuning bilan ularning ishlab chiqarish-tijorat sohadagi o`rni ham aniqlashtirilgan bo`ladi. Korxonaning raqabatbardoshligining asosiy shartlaridan biri uning tijorat faoliyatini shunday - ishlab chiqarish, sotish, 109 F.E.Xo`jaev, D.M.Po`latxo`jaeva «Bojxona logistikasi» o`quv qo`llanma TDIU 2016 165 servis, transport-ombor va boshqa jarayonlarni bir butun qilib jamlash imkonini beruvchi - axborot ta`minoti bilan yetarlicha to`yuntirilganligi Tijorat logistikaning axborot ta`minotini bizlar ta`lim va ta`minot tizimining samarali faoliyatining samarali rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi axborot tizimining faoliyati nuqtai nazaridan ko`rib chiqamiz. Bu logistikaning asosiy funksional qirralarining risoladagidek faoliyat yuritish imkoniyatini ta`minlovchi ichki sistemadir. Bu hodisaning shu xildagi tushunchasidan kelib chiqib ta`minot tizimining axborot bilan ta`minlanishi haqida so`zlash tabiiydir¹⁰. Ta`minot tizimini axborot bilan ta`minlash o`zida biznes yuritishning u yoki bu logistik ta`lim doirasida (zanjirida, tarmog`ida, kanalida)gi rasmiylashtirilgan modelini akslantiradi. Uning yordami bilan ta`minot tizimidagi biznes jarayonlar ko`rinadi va qo`llanadi. Ta`minot tizimini axborot bilan ta`minlashning asosiy maqsadi – jarayonlarni kuzatib borish, markazlashtiruvchi kompaniya uning asosida boshqaruv qarorlari qabul qilib, ana shu qarorlar kelajagini taxmin qila olish imkonini beradigan tendensiyalarni aniqlashtirish hisoblanadi. Shunday qilib, ta`minot tizimining moddiy oqimi o`zlari paydo qiladigan va ularni modifikatsiya qiladigan axborotga asoslanadi. Bu axborot logistika tizimiga turli xildagi axborot oqimi sifatida kiritiladi. Ta`minot tizimida foydalaniluvchi axborot foydali deb tan olinishi mumkin, agarda uni amaldagi ishlab chiqaruv – savdo jarayonlariga o`ziga xos axborot bloki sifatida qo`shilishining imkoni bo`lsa. Ta`minot tizimini axborot bilan ta`minlash alohida tadbirkorlik tizimi sifatida quyidagi tamoyillarga qurilishi kerak: integratsiyalanganlik, ixchamlik, interfaollik, risoladagidik, dolzarblik. Axborotning integratsiyalanganlik tamoyili moddiy oqimning barcha o`tish bosqichlarida axborot bilan qo`llab-quvvatlab turishlikni ta`minlashni nazarda tutadi. Ixchamlik tamoyili bu – axborotni ifodalashning logistik masalani hal etishning qayta qurishlik imkoniyatidir. Interfaollik tamoyili – masalani dialog tarzida - foydalanuvchi uchun keng imkoniyatlari bo`lgan holda – hal etish tarzi. Risoladagilik tamoyilpigia amal qilish esa ma`lumotlar tijorat faoliyatning voqea bo`layotgan va ma`lumotga asos bo`lgan joy maksimal darajada yaqin joyda yig`ilishi kerakligiga dalolat qiladi. Ma`lumotning dolzarblik tamoyili ma`lumotlarni ularning yaratilib kelish va ma`lum qilinish holatida tasavvur qilishni talab qiladi. Logistik tizimning axborot oqimlari shunday tartibda yo`lga qo`yilgan bo`lishligi lozimki, bozor holati va talablari haqidagi, real va ehtimoliy savdolar, amaldagi ishlab chiqaruv, transport, ombor va administrativ xarajatlar, turli zaxiralar, tendensiyalar va ulardagi o`zgarishlar haqidagi dolzarb va teng kuchli axborot olinishi lozim. Boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim bo`lgan

axborot iyerarxiya darajalari bo`yicha taqsimlanadi. Axborot oqimi ustidan nazorat biznesjarayonlarda gorizontaal va vertikal axborot integratsiyasini shakllantirish imkonini beradi. Gorizontaal axborot integratsiyasi barcha moddiy oqimlarni – xom-ashyo, material, to`ldiruvchi qismlar yetkazib berishdan to iste`monchiga yetib borishlikgacha - o`zaro uzviy bog`langan axborot bilan ta`minlash imkonini beradi. Bu bilan funksional ichki tizimlardagi barcha boshqaruv ta`sirlari va ular tufayli yuzaga kelgan oqibatlar ta`minot tizimining umumiy maqsadi va umumiy strategiyasi bilan mutanosiblik kasb etishiga Natijada xom-ashyoni etkazib berish, ishlabchiqarish, yig`ish, sinash va yetkazib berish jarayonlari tarzi borasida ishonchli axborot olish mumkin bo`ladi. Vertikal aloqalarga ega axborot tizimining mavjudligi to`g`ri baholash va o`z vaqtida kerakli tahrirlarni amalga oshirish, bu bilan esa savdo, ishlab chiqarish, yig`ish, sinash, omborlashtirish va ekspeditorlik jarayoniga ta`sir etish imkonini beradi. Bu kabi boshqaruv operatsiyalari nomenklaturalarni va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini aniqlashtirishdagi marketing tekshiruvlari natijalarini to`g`ri nazarga olish, buyurtmalar bajariluvini zudlik bilan tashkil etish va talab qilingan sifat darajasini ta`minlash imkoniyatini yaratib beradi. Buyurtmalarda qadoqlash, yuklarni tushirib olishga va ekspeditorlikka oid hujjatlar, hisob-varaqa va boshqalar bo`ladi. Taraqqiy etgan axborot sturkturasining mavjudligi logistik jarayonning har ikki tomonini ta`minlaydi. Birinchidan, mahsulot-material oqimni rejalashtirish va boshqarishning umumiy tizimi bilan korxonada darajasida samarali bog`lash imkoniyatini beradi. Bunday bog`lanishning mavjudligi, hammasi yaxshi bo`lgan taqdirda hech qaysi bir ishlab chiqarishga taalluqli qaror ishlab chiqarishning umumiy maqsad va strategiyasiga muvofiq kelmagan taqdirda amalda qo`llanmasligini ta`minlash imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, u barcha darajalrni to`ppa-to`g`ri va ters aloqalar yordamida qamrab oladi, yuqori darajalarga ishlab chiqarishning barcha bog`lamlari holati to`g`risidagi yetarlicha ma`lumot yetkzaib beradi, toki ular bo`lib o`tayotgan o`zgarishlarga operativ aks ta`sir ko`rsatishsin. Bu turdagi tizim ishlab chiqarish jarayonlariga operativ ta`sir o`tkazish imkonini beradi, nima uchun? - bozorga ayni vaqtda ehtiyoj sezilayotgan mahsulotlar bilan ta`minlash uchun; - iste`molchining buyurtmalarini eng qisqa muddatlarda bajarish uchun; - o`zgarmas yuqori sifatni ushlab turish uchun. Kuchli raqobat sharoitida alohida ahamiyat firmaning ishlab chiqaruv-sotuv faoliyatini rejalashtirish va boshqarishga qaratiladi. Firmaning jamg`arish, ishlab 168 chiqarish, sotish amaliyotlarining integratsiyalashgan axborot tizimini shakllantirish murakkab va ko`p bosqichli jarayon. Unda zamonaviy axborot texnologiyalari, eng yangi kompyuter tizimlari ishlatiladi. Bu esa, adekvat axborot texnikalarini qo`llash, logistik tizimni axborot bilan ta`minlash umumiy tizimidan oqilona foydalanish asosida mahsulot aylanmasini muvaffaqiyatli boshqarish imkoniyatini taqdim qiladi. Bunday axborot tizimlarini tuzib chiqishlik bilan maxsus tayyorlangan personal shug`ullanadi. Bu personal firmada mijozlar buyurtmasining kelib tushishi, bajarilishi to`g`risidagi axborotni yig`ish, tashkil qilish, etkazib berish imkoniyatini beruvchi aniq qo`yilgan

maqsadlar mutanosibligida kompaniya axborot infratizimsini tuzib chiqadi. Axborot almashinuvining qog'ozsiz shakllari keng ommalashdi. Logistikaning bu yo'nalishi unga xos dasturiy va ma'muriy vositalari texnologiyalari rivojiga aylanib ketdi. Ularning afzalliklarini amalga tadbiiq qilish uchun kompaniyalar axborot almashishning standart bayonnomalarini qo'llaydilar va o'zaro tijorat kelishuvlar tuzadilar. Stantard bayonnomalarning ikki turi bor– tijorat korxonalar o'rtasidagi axborot almashinuvi tarmog'i standarti va umumiy tarmoq standarti. Quyidagi operatsiyalar chog'idagi kelishuvlarni ro'yxatga olishdagi standart kompyuter bayonnomalari ishlab chiqilgan va xozigi vaqtda qo'llanilmoqda: - Sotib olishga buyurtma - Yuk partiyasini jo'natishga buyurtma - Yuk jo'natuvchi uchun maslaxat olish - Hisob-varaqa to'ldirish -Turli to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish -Mahsulotni etkazib berish va qabul qilishda yuk-xatini rasmiylashtirish Kompyuter texnikasi, axborot texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish tarzi buyurtmaning barcha bosqichlarida istalgan miqdordagi ma'lumotlar olishga imkon beradi. 169 Ta'minot tizimini axborot bilan ta'minlash amaliyotini tadbiiq qilish asnosida yangi muammolar paydo bo'ladi, bu muammolar axborot to'plashda quyidagi jabhalar talabiga javob bermaganligidan paydo bo'ladi: - axborot noaniq, nooperativ harakter kasb etgan; - kommunikatsion tarmoqning tizimiy va taxnik jihatlaridan sust rivojlanganligi; - ishlab chiqaruvchi-ta'minotchi hamda xaridor-iste'molchi o'rtasida o'zaro informatsion munosabat yo'qligi; - korxonalarda axborot ta'minlashga qaratilgan texnik vositalar yo'qligi; Ta'minot tizimini axborot bilan ta'minlashning afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi: • ma'lumotlar almashishdagi jadallik keskin oshadi; • hisobotlarda xatolarga yo'l qo'yish holatlari kamayadi; • samaradorligi past bo'lgan "qog'oz ishlari" kamayadi; • axborot bloklaridagi bo'linishlar birlashadi. Ta'minot tizimini axborot bilan ta'minlash keng qamrovli tushuncha bo'lib istalgan axborot tizimiga, uning integratsiyalashtirilganlik darajasi yoki resurslarni qamrab olish darajasi (MRP I, MRO II, SCM va hk.)dan qat'iy nazar, moslashib ketaveradi. Internet platformalaridan foydalanish tashqi tashkilotlar bilan logistik axborot oqimlarini integratsiyalash imkon beradi. OLAP texnologiyasining vebserverlar orqali qo'llanilishi elektron kommersiyaning amalga oshirish va ta'minot tizimining boshqa ishtirokchilari bilan operativ taxlil hamda ma'lumot almashinuvi o'tkazish imkoniyatini yaratib beradi. Axborotni saqlash vositalarini yaratish ma'lumot taxlilining zamonaviy metodlaridan –ABC-taxlil, XYZ-taxlil, solishtirma taxlil - foydalanish imkonini beradi, va, tabiiyki, logistik faoliyat tashkiloti tominidan talab qilingan axborotni tartibli va operativ tartibda yig'adi. Servis (xizmat ko'rsatish) atamasi – o'zining birlamchi ma'nosidayoq bu faoliyat xo'jalik ishlariga taalluqli ekanligini ko'rsatib turibdi. Ammo tijorat logistikaning bu xizmat turi shunday xususiyatga egaki, usiz raqobat jangida muvaffaqiyatga erishish imkonsiz . Raqobatda ustunlikka tayyor mahsulot sotuv jarayonini modifikatsiyalashtirishni uddalagan subyekti ega bo'ladi. Bunday modifikatsiyaning yo'nalishlaridan biri mahsulotni sotuvoldi tayyorlov va sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtiruvdir.

Bunday yondashuv servisga oid biznes-jarayonlar, moddiy, moliyaviy, axborot, servis va mehnat oqimlarini identifikatsiyalash, ularning o'zaro munosabatlarini belgilash va ular o'rtasidagi aloqalarni baholashga imkon beradi, bu esa loyihalashtirilayotgan ta'minot tizimlarining raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratadi. Servis logistikasining moddiy oqimning funksional hamroh sferasi sifatidagi evolyutsion xarakter shunga dalolat qiladiki, logistik axbarot tovar aylanmasida samarali kanallar shakllanuvda mas'uliyatli rol kasb etmoqda va ta'minot tizimida iste'mochilarga servis xizmat ko'rsatishning barcha ishtirokchilarini integratsiyalash va kooperatsiyalashni ta'minlashga xizmat qiladi. Logistika zamonaviy rivojlanishining borishini belgilab beradigan aniqlovchi sifatida axborot-kompyuter texnologiyalarining rivojlanish jarayonida shakllangan axborot logistika tarkibiy qismi namoyon bo'ladi. Aynan axborot logistikasi moddiy oqimga hamrohlik qiladigan hamda logistika tizimi uchun ta'minot, ishlab chiqarish va sotuvni bir-biri bilan bog'laydigan muhim element sanalgan ma'lumotlar oqimini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi. Logistika zanjiri bo'yicha uzatiladigan elektron ma'lumotlar to'plamlari* yordamida butun zanjirning ham, alohida bo'g'inlarning ham faoliyati tahlil qilinadi, uning holati raqobatchilar holati bilan taqqoslanadi. Ma'lumotlar bazasi tizimi, qoidaga ko'ra, korxonalar faoliyati xususiyatlarini aks ettiradi va uning eng muhim nuqari, ularga kiruvchi va chiquvchi yo'llar va mos keluvchi axborot oqimlarini tavsiflaydi

Nazorat savollar .

1. Xalqaro logistikada axborot xizmat ko'rsatish
2. Xalqaro logistikada servis xizmat ko'rsatish
3. Ta'minot tizimini axborot bilan ta'minlashning afzalliklari

12- Mavzu;Xalqaro logistikada elektron tijorat. Xalqaro logistikada globalpozitsiyalash tizimlari va axborotlashtirilgan tizimlararo taksimot zanjirlari.

Reja

1.Moddiy oqimlarni bashorat qilish.

2.Strategik reja va uning ko 'rsatkichlari.

3.Ishlab chiqarishning moddiy ta'minotini rejalashtirish.

4.Ta'minot va ishlab chiqarish manbalarini global joylashtirish strategiyasi.

Ishdan maqsad; Taqsimot logistikasining distributsiya kanali, logistik zanjirlar va ularning tasnifi

Umumiy ma'lumotlar;

12.1. Logistika faoliyatining strategiyasi va uning turlari

Tashqi muhit beqarorligi oshgani sari korxonalarni strategik boshqarishga zarurat shunchalik ortadi. Strategik boshqarishga natijalar bo'yicha boshqarish deb qarash mumkin. Strategik boshqarishning isbotga muhtoj bo'lmagan haqiqati: omon qolish va muvaffaqiyatli rivojlanish uchun korxonaning rahbariyati tez va raqibona harakat qilishi kerak. Faqat shundagina korxonaning talab va turli bozor imkoniyatlari o'zgaruvchanligiga muvofiq bo'la oladi. Strategiya belgilangan maqsadlarga erishish uchun tanlangan asosiy harakatlar tarzini ta'riflab beradi. Logistik strategiya korxonaning resurslarini muvofiqlashtirish va taqsimlash yo'li bilan belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlarning umumlashtirilgan modelini ifodalaydi. Logistikani strategik boshqarish — bu korxonaning logistik li/imi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari, korxonaning va tashqi muhitning o'zaro munosabatlarini saqlash bilan bog'liq faoliyat. Liar korxonaning maqsadiga erishishi uchun imkon beradi, ichki resurslari imkoniyatlariga mos keladi, tashqi muhit omillariga moyil ijolishiga yo'l qo'yadi.

Strategiya turlari:

- differentsiyalashtirish (farqlash) strategiyasi — korxonaning imyoblikka intilishi, masalan iste'molchilarga xizmat ko'rsatish imkonida;
- sarflash bo'yicha peshqadamlik strategiyasi — yetkazib berish tizimida logistik sarflarni kamaytirish hisobiga bozorda peshqadamlik qilish strategiyasi;
- fokusga to'plamoq strategiyasi — butun bozorni qamrab olishga intilmagan holda iste'molchilarning bir segmenti yoki xaridorlarning aniq bir guruhi talabini bajarish va qondirishga yo'naltirilgan strategiya. Mazkur strategiyaning maqsadi — maqsadli tanlangan segment iste'molchilari talabini raqiblardan ko'ra yaxshiroq qondirish. Fokusga to'plamoq strategiyasi differentsiyalashtirishga ham, sarflash bo'yicha peshqadamlikka ham, yoki faqatgina maqsadli segment doirasida unisiga ham, bunisiga ham birdek tayanishi mumkin. Strategiya bozor sharoiti maqsadli segmentida katta ulush olishga imkon beradi, biroq umumiy bozorda kichik ulushga olib kelishi mumkin;
- diversifikatsiya strategiyasi — korxonaning bitta funksional strategik bo'linmaga tobe bo'lib qolmasligi uchun qo'llaniladi.

Diversifikatsiya turlari:

- gorizontal — korxonaning uchun an'anaviy bo'lgan iste'molchilarning guruhiga nisbatan mavjud bo'lgan kengaytirish vositalarini va savdo usullarini qo'llab (misol uchun, firmaga oid mahsulotlarni sotish usuli) faoliyatini kengaytirishni nazarda tutadi;

mahsulotlar qato- riga o‘xshashini va yangi turlarini qo‘shish yo‘li bilan mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, ularni korxonaga yangiliklaridan foydalanib ishlab chiqarish va sotish mumkin bo‘lgan, shuningdek, korxonaga uchun yangi bo‘lgan bozor segmentlariga faoliyatini yo‘naltirish;

- vertikal — korxonaga o‘z faoliyatini ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonining awalgi va keyingi bosqichlariga qarata kengaytiradi. Vertikal strategiya yaxlit holda o‘shish strategiyasini amalga oshirishning bir shakli bo‘lib, bunda yangi tuzilmalar qo‘shilishi hisobiga korxonaga kengayadi va uning bozordagi ahvoli o‘zgaradi.
- lateral — korxonaning awalgi faoliyat turi bilan bevosita bog‘liqligi bo‘lmagan mahsulotlarning ishlab chiqarish [dasturiga kiritilishi](#); korxonaning an‘anaviy va yangi faoliyat sohasi bilan birorta ham bog‘liqligi mavjud emasligi.

2.Moddiy oqimlarni bashorat qilish

Logistik strategiyani ishlab chiqishdan oldin ikkita bosqichni hosib o‘tish kerak: logistik faoliyatni bashorat qilish va rejalashtirish.

Logistik faoliyatni bashorat qilish — kuzatuvlarga va nazariy vaziyatga asoslangan kelajakda yuz berish ehtimoli bo‘lgan voqea tushunchasi; bir yoki bir nechta voqea sodir bo‘lish ehtimoli voki jarayonning taxminiy ahvoli to‘g‘risida asosli mulohaza yuritish; kelajak davr to‘g‘risida mulohaza yuritish.

Bashorat qilish — sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni olish jarayonidir.

Bashorat qilish tartibi quyidagi bosqichlardan iborat:

bashorat obyektlarini aniqlash; bashorat qilish lozim bo‘lgan obyektlarni tanlab olish; bashorat qilish muddatini aniqlash: qisqa muddatli, o‘rta muddatli yoki uzoq muddatli; bashorat qilish modelini (modellarini) tanlash;

1. bashorat qilish uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni olish;

2. bashorat qilish modelini asoslab berish;

3. oldindan aytib berishni tuzish;

mantiqiy-iqtisodiy usullar — oldindan aytib berish korxonasi ilining awalgi va hozirgi bosqichida (prognoz tuzilishi vaqtida) rivojlanish yo‘nalishining atroflicha tahliliga asoslanib, yuz berishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faktorlarning (narxlar o‘zgarishi, aholi sonining o‘shishi, assortimentlar o‘zgarishi, bozorga yangi tovarlar chiqishi) o‘zgarishini hisobga olgan holda mantiqiy baholash va mulohaza yuimish shaklida tuziladi. Bashorat qilish ekspert baholash xususiyatiga ega. Ekspert baholash maxsus tartibda amalga oshiriladi, [baholashda hech qachon](#), tajribasi va malakasidan qat’iy nazar, bitta mutaxassis fikriga ishonish mumkin emas.

1. iqtisodiy — matematik usullar — matematik statistika usullariga asoslangan. Aksariyat hollarda iqtisodiy-matematik modellashtirish usulidan foydalaniladi. Bunday holda prognoz bir-biri bilan bog‘liq ravishda o‘rganilayotgan voqeaning asosiy

aloqalarini va qonuniyligini aks ettiruvchi son bilan hisoblangan ko'rsatkichlar tizimini ifodalovchi modelning sotilishi asosida tuziladi.

2. me'yoriy usullar — me'yorlar tizimiga va oqilona foydalanish me'yorlariga asoslangan. Bu kabi yondashishda kelajakdagi bir- muncha vaqtga tovaming aniq turidan oqilona foydalanish me'yori mo'ljallanib qilib olmadi. Erishilgan iste'mol darajasi solishtirilib, ma'qul darajaga erishishni ta'minlovchi savdo o'sishi mumkin bo'lgan sur'atlari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, me'yoriy usul faqatgina o'rta muddatga va uzoq muddatga prognoz qilinganda qo'llaniladi (besh yil va undan yuqori). Kelgusi yilga prognoz qilishda, ayniqsa, yillik buyurtmalarni asoslab berishda mazkur usuldan foydalanish mumkin emas.

Strategik reja va uning ko'rsatkichlari

Logistikaning rejalashtirish vazifalari — logistik faoliyatning kelajakdagi aniq parametrlarini belgilovchi loyihalarni ishlab chiqilishi natijasida korxonada logistik tizimining maqsadi amalga oshadi.

Logistikani rejalashtirish — tartibga solingan, kelajakda maqsadga erishish parametrlarini belgilovchi logistik ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan logistik loyiha ishlab chiqish jarayoni.

Konseptual rejalashtirishning maqsadi — korxonada resurslarni ko'psonli tarqoq harakatlarga soqillatishning oldini olish.

Rejalashtirish bosqichlari:

strategik rejalashtirish — biznesning amaldagi saviyasini ko'rib turgan shakli va usuliga, muntazam ravishda o'zgarib borgan tashqi muhit sharoitida rivojlanishiga tegishli. Strategik rejalashtirish faqatgina yirik va strategik, 10 yildan 20 yilgacha vaqt oralig'iga bog'liq bo'lgan maqsadlar ifodalanadi;

1. uzoq muddatli rejalashtirish — investitsiya rejalari va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish dasturlari tuziladi. 10 yilgacha bo'lgan vaqt qamrab olinadi;
2. o'rta muddatli rejalashtirish — uzoq muddatli dasturlarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Bunda rejalashtirishning moliyaviy, iqtisodiy, texnik va texnologik jihatlari hisobga olinadi. Bunday rejalashtirishning vaqt bilan belgilanadigan oralig'i (besh yil atrofida) investitsiyaga, ayniqsa asbob-uskunalar va bino layyorlash, maxsus jihoz tayyorlatish uchun vaqtga ehtiyoj borligi bilan izohlanadi;
3. o'zgaruvchan qisqa muddatli rejalashtirish.

Rejalashtirish tizimiga qo'yiladigan talablar:

1. *hujjat bilan ta'minlanishi* — rejali hisob-kitoblarni kelishish
2. *mukammallik*,

3. *aniqlik* — rejalashtirish obyektlarining xususiyatlarini qay darajada aniq o'lchanishi lozimligini to'g'ri tanlash hamda rejaning qismlari va mazmunini aniqlash muhimdir.
4. *muvofiglik* — rejalashtirish tizimining barcha alohida rejaları yaxlit holga keltiriladi va muvofiglashtiriladi. Muvofiglik eng awal rejaning tarkibiy qismlariga va alohida rejalar o'rtasidagi bog'lanishga bog'liq. Rejalarning mazmuni jihatidan maqsadlar, prognozlar, tadbirlar, mablag'lar, rejalar va muddati uchun mas'ul shaxslar harakati muvofiglashtiriladi. Alohida rejalarining zamrligi, shoshilinchligi, iyerarxialigi, izchilligi va o'zgaruvchanlik darajasi yuzasidan muvofiglashtirilishi talab etiladi. Rejalarning yaxlit holga keltirilishi turli darajadagi rejalar muvofigligini o'z ichiga oladi. Rejalarning muvofigligi — biron darajadagi rejalarning muvofiglashtirilishi butun bir tizim faoliyatini rejalashtirish, ya'ni logistik ish tartibini bajarishga qaratilgan bir-biri bilan bog'liq materiallar oqimini qayta ishlash, standart va texnik sharoitlar rejalarini ishlab chiqish demakdir. Iqtisodiy rejalashtirish narxlar, baholar, ish haqi va boshqa xarajatlarning umumiy tendensiyasini baholashda zamr bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Tarmoqli rejalashtirish tarmoq modellarini va jadvallarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Logistika vazifalari korxonaning umumiy biznes-rejasiga kiritilishi lozim. Shu tariqa bozor sharoitini tahlil etish va ish harakati uslubini belgilash jarayonida xaridorlar talabini aniqlash va taqsimlash vositalarini tanlash zamr bo'ladi. Ish harakatining boshqa turlarini baholash va keyinchalik ko'proq raqobat ko'rsatadigan strategiyani aniqlash jarayonida tovarlarni yetkazib berish, saqlash va harakatlantirish bilan bog'liq omillar hisobga olinishi kerak. Kompaniyalar aksariyat hollarda uyushgan rejalashtirishga logistika masalalarini kiritmaydi va shuning uchun foyda olmaydi. Buning sababi materiallar oqimi boshqaruvi jarayonining o'zgaruvchan mohiyatidir. Bunday korxonalarda logistikani ta'minot bilan tenglashtiradilar, qisqa muddatli **omil sifatida izohlaydilar**, uzoq muddatli rejalashtirish bilan kamda-kam bog'laydilar. Yuqori o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan logistika ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli omil bo'lgani sababli ular orasidagi irqni belgilash juda murakkab. Biroq logistikaga qilinadigan moliyaviy va moddiy xarajatlarning miqdori, shuningdek, logistikaning korxonaga raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatish darajasi bunday irqni aniq belgilashni talab etadi, ayniqsa, umumiy biznes-rejaga logistika elementlari kiritilishi zarur bo'lgan hollarda.

Nazorat uchun savollar

1. *Logistika faoliyatining strategiyasi va uning turlari.*
2. *Moddiy oqimlarni bashorat qilish qoidalari.*
3. ■ *Islahat chiqarishning moddiy ta'minotni rejalashtirish masalalari nimadan iborat?*
4. ■ *1 Strategik reja ko'rsatkichlarini aniqlash usullari.*

12-Mavzu; Xalqaro logistikada elektron tijorat. Xalqaro logistikada globalpozitsiyalash tizimlari va axborotlashtirilgan tizimlararo taksimot zanjirlari.

Reja

1. Xalqaro logistikada elektron tijorat
2. . Xalqaro logistikada globalpozitsiyalash tizimlari
3. Axborotlashtirilgan tizimlararo taksimot zanjirlari.

Logistika murakkab ishlab chiqarish-sotish komplekslarini o'rganadi. U ta'minotlar majmuasi, asosiy ishlab chiqarish, transport va sotuv sohalarida tashkiliy-iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi. Bu komplekslarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: • asosiy vositalar va ishchi guruhlarining katta maydonga tarqalganligi; • texnik vositalar asosiy qismining yuqori fond sig'imi; • logistik tizim elementlari ba'zilarining mobilligi va boshqalarining ma'lum jug'rofik mintaqaga qattiq bog'liqligi; • katta miqdordagi aralash tizimostilar (yuk jo'natuvchilar, yuk qabul qiluvchilar, resurslarni yetkazib beruvchilar va h.k.) ishining natijasiga bog'liq. Ko'rib chiqilgan xususiyatlar logistik tizimda moddiy va axborot oqimlarining o'tishiga va hajmiga ta'sir qiladi hamda material o'tkazuvchi zanjirining alohida bo'g'inlari o'rtasida yuzaga keladigan tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar tabiatini aniqlaydi. Fan sifatida logistikaning predmeti bo'lib tovar harakati sohasida xarid, ishlab chiqarish va mahsulotni sotish bosqichlaridagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar xizmat qiladi. Logistika fan sifatida logistik tizimlarni tashkil etishning umumiy xususiyatlarini, qonun va qonuniyatlarini o'rganadi. Logistikaning fan sifatida tuzilmasi bo'lib tovar harakati jarayoniga tegishli bo'lgan qonuniyatlar va aloqalarni o'rnatish hisoblanadi. Bu moddiy va axborot oqimlarini boshqarishning samarali shakl va uslublarini amaliyotda aniqlash va qollash maqsadida amalga oshiriladi. Logistika fanining umumiy uslubi bo'lib tadqiqotning dialektik uslubi hisoblanadi. Aniq masalalar yechimini topish uchun fanda tizimli yondashuv, amallarni tadqiqot qilish uslublari va tizimlar nazariyasidan foydalaniladi. 8 Logistikaning asosiy tushunchalari. Logistika atamasi (yunoncha "logistike" so'zidan olinib) - o'ylash, hisoblash, maqsadga muvofiqlik" degan ma'noni anglatadi. Rim imperiyasida bu atama "oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatish" deb tushunilgan. Vizantiyada logistika harbiy ta'minot va armiyani boshqarishni tashkil qilish vositasi deb hisoblangan. Tarixiy jihatdan logistika amaliy faoliyat sifatida harbiy ishlar tufayli rivojlangan. 20-asr boshlarida logistika harbiy fan deb hisoblangan. Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlarida logistika tamoyillari va modellari keng qo'llanilgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida logistika AQSh armiyasining moddiy-texnik ta'minotida faol ishlatilgan, bu esa harbiy sanoat, front, front orti ta'minot bazalari va transport o'rtasida aniq o'zaro

ta'sirni ta'minlash imkonini bergan. Amaliy tadqiqotlar, matematik optimallashtirish, tarmoq modellari va boshqa amaliy matematik usullar yordamida logistikani harbiy sohada o'z samaradorligini isbotlagan. Buni inobatga olgan holda logistika astasekin iqtisodiy amaliyot sohasiga o'tdi va 1960-70-yillarda iqtisodiyotda keng qo'llanila boshladi. Bugungi kunda logistikaga moddiy oqimlarni boshqarish sifatida qaraladi. O'z davrida Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak Yo'li orqali boladigan turli xil tovar almashinuvi hamda savdo-sotiq jarayonlarida logistika elemenlarini yaqqol ko'rish mumkin. Logistika tushunchasini tasniflashda bir nechta qarashlar mavjud. Ularning ko'pchigi bu tushunchani moddiy oqim va axborot oqimi bilan bog'lashadi. Logistikaning barcha tasniflarini ikki guruhga ajratish mumkin. Ulardan biri logistikani xo'jalik faoliyatining bir yo'nalishi sifatida tushuntiradi, u ishlab chiqarish va tovar almashinuvi sohalarida moddiy va axborot oqimlarini boshqarishdan iborat. Ikkinchisi - logistikani ilmiy yo'nalish sifatida o'rganadi, u moddiy va axborot oqimlarining samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini qidirish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Adabiyotlarda logistikaga xo'jalik yuritishning ilmiy-amaliy yo'nalishi sifatida yondashish keng tarqalmoqda. Bu yondashuv ishlab 9 chiqarish va tovar almashish sohalarida moddiy va axborot oqimlarini samarali boshqarishdan iborat. Rossiyada 1995-yilda nashr etilgan logistika bo'yicha ilmiy lug'atda logistikaga quyidagicha tasnif berilgan: "Logistika ishlab chiqarish korxonasi gacha xomashyo va materiallarni yetkazib berish, xomashyo, materiallarni, yarimtayyor mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulotni iste'molchigacha yetkazib berish hamda zarur m'alumotni qayta ishlash, saqlash va jo'natish jarayonida bajariladigan tashish, saqlash, hamda boshqa moddiy va nomoddiy operatsiyalarni boshqarish va nazorat qilish to'g'risidagi fandır". Yuqoridagilarni umumlashtirib logistikaga qisqaroq tasnif berish mumkin. Logistika — moddiy va axborot oqimlarini, ularning birinchi manбайдan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakatini boshqarish, nazorat qilish, rejalashtirish va tashkil etish to'g'risidagi fandır. Logistikani o'rganish obyekti moddiy va unga tegishli moliyaviy, axborot oqimlaridir. Logistika o'zining tushunish apparatiga ega, uning tarkibiga logistikaga xos bo'lgan kategoriyalar, tushunchalar, atamalar kiradi. Moddiy oqim. Moddiy oqim tushunchasi logistikada muhim o'rin tutadi. Moddiy oqimlar tashish, omborga joylashtirish va xomashyo, yarimtayyor mahsulotlar hamda tayyor mahsulotlar bilan boshqa moddiy amallarni bajarish natijasida yuzaga keladi. Moddiy oqim - bu vaqt oraliq'iga keltirilgan va har xil logistik amallarni joriy etish jarayonida ko'rib chiqilayotgan tovar - moddiy boyliklarning yig'indisi. Ishlab chiqarishning aniq manbayidan to iste'mol gacha bo'lgan oraliqda joylashgan bir turdagi resurslar yig'indisi oddiy moddiy oqimni yuzaga keltiradi. Korxonada shakllanadigan bir nechta oddiy oqimlar korxonaning me'yoriy faoliyatini ta'minlab beruvchi integrallashgan moddiy oqimni tashkil etadi. Moddiy oqimlarning tashqi va ichki, kiruvchi va chiquvchi turlari ajratiladi. 10 Tashqi moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimga nisbatan tashqi muhitda o'tadigan oqimdir. Ichki moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimga nisbatan ichki

muhitda o‘tadigan oqimdir. Kiruvchi moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimga kirayotgan tashqi oqimdir. Chiquvchi moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimdan tashqi muhitga chiqayotgan moddiy oqimdir. Moddiy oqimlarni boshqarish materiallar harakatining yo‘nalish parametrlarini aniqlashni ko‘zda tutadi, ular qatoriga quyidagilar kiradi: • moddiy resurslarning nomlanishi; • moddiy resurslarning miqdori; • boshlang‘ich nuqta (ta‘minotchini tanlash); • oxirgi nuqta (iste‘molchini tanlash); • vaqt (buyurtma bajarish muddati). Logistik jarayonlarida axborot oqimi, logistik operatsiya, logistik funktsiya degan tushunchalar mavjud. Ularni birma-bir ko‘rib chiqamiz. Axborot oqimi - bu logistika ichida va tashqi muhit orasida aylanayotgan hamda logistik jarayonlarni boshqarish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar yig‘indisidir. Axborot oqimi moddiylikka mos keladi. Amaldagi logistik tizimlarda moddiy va axborot oqimlari, ba‘zi hollarda bir-biridan o‘zib ketishi mumkin. Axborot oqimi moddiy oqim bilan bir xil yo‘nalishda bo‘lganda u to‘g‘ri yo‘nalish deb ataladi, unga qarama-qarshi yonalishda bo‘lganlarga teskari yo‘nalishga ega bo‘ladi. To‘g‘ri yo‘nalishda o‘zib ketayotgan axborot oqimi yuklarni kutilayotgan kelib tushishi haqida, teskari yo‘nalishda esa – buyurtma haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladi. Moddiy oqim bilan bir vaqtda unga parallel ravishda ko‘chirilayotgan resurslarning sifat va ko‘rsatkichlari haqida malumot ham boradi. Moddiy oqim ketidan teskari yo‘nalishda yukni qabul qilish natijalari haqidagi malumot hamda noroziliklar va tasdiqlar kelishi mumkin. Axborot oqimining ichki va tashqi, kiruvchi va chiquvchi turlari ajratiladi, ularning tasnifi moddiy oqim tasniflari bilan bir xildir. 11 Axborot oqimi vujudga kelish manbayi, yo‘nalishlari, davriyligi, hajmi, o‘tish tezligi va hokazolar bilan ajralib turadi. Axborot oqimini boshqarish o‘zining tarkibiga oqim yo‘nalishini o‘zgartirish va uning parametrlarini cheklashni oladi. Endi logistik operatsiyaga ta‘rif beramiz. Logistik operatsiya - bu moddiy yoki axborot oqimini qayta ishlashga qaratilgan, ixtisoslashgan amallar yigindisidir. Moddiy oqimlar ustidan logistik operatsiyalarga omborga joylashtirish, tashish, qadoqlash va boshqalarni misol qilish mumkin. Axborot oqimlari ustidan logistik operatsiyalar tarkibiga zarur axborotni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish kiradi. Logistik operatsiyalar ichki va tashqi turlarga ajratiladi. Tashqi logistik operatsiyalarga ta‘minot va tayyor mahsulotni sotish sohasidagi barcha harakatlar ta‘lluqli, ichki operatsiyalarga esa - ishlab chiqarishda moddiy oqimni boshqarish kiradi. Bundan tashqari, logistik operatsiya bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo‘lishi mumkin, bunda mahsulotga egalik qilish huquqi bir yuridik shaxsdan ikkinchisiga o‘tadi. Logistik funktsiya. Logistik funktsiya - bu logistik tizimning maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan logistik operatsiyalarning yiriklashtirilgan guruhidir. Logistikaning har bir funktsiyasi amallarning bir butun (maqsad nuqtayi nazaridan) yig‘indisini tashkil etadi. Logistik funktsiyalarning asosiylari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: • ishlab chiqarishning moddiy ta‘minotini rejalashtirish; • ishlab chiqarish buyurtmalarining bajarilish tartibini boshqarish; • zaxiralarni funktsiyalarga bashoratlash va nazorat qilish. Ishlab chiqarishdagi iste‘mol - joriy davrda ishlab chiqarishdagi

ehtiyojlarga ijtimoiy mahsulotlarning mehnat vositasi va mehnat predmeti sifatida ishlatilishidir. Noishlab chiqarish iste'moli - joriy davrda noishlab chiqarish sohasida tashkilot va korxonalarda ijtimoiy mahsulotning shaxsiy iste'mol uchun ishlatilishidir. Logistika chegarasida moddiy oqim harakatining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish iste'moli bo'ladi. Faqat oxirgi logistik zanjirni yakunlovchi bosqichda moddiy oqim noishlab chiqarish iste'moli sohasiga tushadi. Logistik zanjir ishlab chiqarish iste'moli bilan ham yakunlanishi mumkin. Masalan, 12 energotashuvchilar harakati - ko'mir oqimi ko'mir konidan ishlab chiqarish iste'moliga issiqliq energiyasi markaziga yoki sanoat korxonasiga tushishi bilan tugallanadi. Ishlab chiqarish iste'moliga taqsimot markazida moddiy oqimga ishlov berish kiradi. Masalan, navlarga ajratish, o'rash, yuklarni qismlarga ajratish, saqlash, qadoqlash, ko'chib yurish va boshqa logistik operatsiyalar o'tkaziladi. Bu operatsiyalarning majmuasi muomala doirasida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi. Moddiy oqim mehnat predmetidir. Mahsulot harakati davrida bu xomashyo materiallari, yarimfabrikat va hokozolar tovar harakati bosqichida tayyor xalq iste'moli tovarlari bo'lishi mumkin. Moddiy oqim yetkazib beruvchi va iste'molchi ikkita mikrologistik tizimni tashkil qilib, bir-biri bilan logistik kanal yoki logistik taqsimot orqali bog'lanadi. Logistik kanal (taqsimot kanali) — qisman tartibga solingan ko'pchilik turli xil o'rtada turuvchilar orqali moddiy oqimni aniq ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazadi. Ko'pchilik o'rtada turuvchilar ma'lum bir paytgacha qisman tartibga solingan bo'ladi, toki moddiy ishtirokchilar tanlangunicha. Bundan keyin logistik kanal logistik zanjirga aylanadi. Logistik zanjir - bu chiziqli tartibga solingan logistik jarayonda ishtirokchilar ko'pchilik bo'lib, ular tashqi moddiy oqimni bir logistik tizimdan ikkinchisiga yetkazish bo'yicha amallar bajaradilar. Logistik zanjirni yana logistik bo'g'inlar yigindisi sifatida ta'riflash mumkin. Bu bo'g'inlar orqali moddiy oqim (asosiy oqimlarga ajratilib: material, xomashyo va yarimmahsulotlar yetkazib berish; mahsulot va xomashyoni saqlash; taqsimot) harakatlanadi. Logistik tizimning har xil operatsiya va element darajalarini tahlil qilish asosida u makrologistika, mezologistika va mikrologistikaga ajratiladi. Logistik zanjirning asosiy bo'g'inlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: • material yetkazib beruvchilar; • omborxonalar; • transport; • taqsimot markazlari; • mahsulot ishlab chiqaruvchilar; • mahsulot iste'molchilari. Logistik tizim. Logistik tizim u yoki bu logistik funksiyalarni amalga oshiruvchi, teskari aloqaga ega bo'lgan oddiy tizimdan iborat. U, asosan, bir nechta tizimostilardan tashkil topadi va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'ladi. Logistik tizimlar mikro, mezo va makrologistik tizimlarga bo'linadi. Makrologistik tizim- bu mamlakatning har xil mintaqalarida yoki har xil mamlakatlarda joylashgan sanoat korxonalarini va tashkilotlarini, turli xil sohalarda ish yurituvchi vositachi, savdo va transport tashkilotlarini qamrab oluvchi moddiy oqimlarni boshqarish tizimidir. Makrologistik tizim mintaqa, mamlakat yoki mamlakatlar guruhi iqtisodiyotining infratuzilmasini tashkil etadi. Makrologistika darajasida logistik tizimlarning uchta turga ajratish mumkin. Bularga: - to'g'ri aloqali

moddiy oqimni iste'molchigacha yetkazib berish to'g'ri xo'jalik aloqalari asosida amalga oshiriladi; - eshelonlashtirilgan - bunday tizimlarda moddiy oqim ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetib borgunigacha kamida bitta vositachi korxonadan o'tadi. - egiluvchan - bunday hollarda moddiy oqimni iste'molchigacha yetkazib berish ham to'g'ri aloqalar, ham vositachi korxonalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, ehtiyot qismlari bilan ta'minlash: kam talab etiladigan qismlar to'g'ridan-to'g'ri markaziy omborxonadan qabul qiluvchiga borib tushiriladi, standart qismlar esa vositachi korxonalar omboridan tushuriladi. Mezologistika - tarmoqning bir necha korxonasini bir tizimga integratsiya qilish sohasi. Mikrologistik tizimlar makrologistik tizimlarning strukturaviy tashkil etuvchilari, ichki ishlab chiqaruvchi logistik tizimlarning sinflaridir, ularning tarkibiga bir butun infratuzilma bilan birlashtirilgan 14 ishlab chiqarishning texnologik bog'lovchilari kiradi (ishlab chiqarish va savdo korxonalari, territorial (hududiy) ishlab chiqaruvchi komplekslar). Mikrologistika - lokal masalalarni alohida bo'g'in va logistika elementlari darajasida, moddiy va axborot oqimlarini ichki ishlab chiqarish darajasida hal etadi. Bu korxonada ichida amalga oshiriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda raqamli logistika nima degan savolga javob berishimiz lozim. Buning uchun raqamli logistika tushunchasini bilib olishimiz kerak bo'ladi. Raqamli logistikaning asosiy tushunchasi. Zamonaviy axborot kommunikatsion va internet texnologiyalarining rivojlanish raqamlashtirish jarayonlariga olib keldi. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot rivojlanish tendensiyalari yangi texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. Raqamli iqtisodiyot shakllanmoqda va uning yordamida yangi institutsional o'lchamda yashaydigan raqamli logistika yangi qoidalar va qonunlarga muvofiq rivojlanmoqda. Logistika xalqaro virtual bozorning bir qismiga aylanib, raqobat maydonini kengaytirmoqda. Nafaqat bozor subyektlari, balki davlatlar ham raqobatlashadi. Iqtisodiy bilimlar raqobat quroli bo'lib raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik qo'llanmasiga aylanmoqda. Har bir fan o'z bilim mavzusiga egadir. Logistika fanini ham nazariyasi va amaliy iqtisodiy faoliyatning muayyan turini farqlash kerak. Logistika - bu iqtisodiy materiyaning oqimini tashkil etish qonunlari va tamoyillarini o'rganadigan fan. Logistik faoliyat - bu integral ta'minot tizimida ishbilarmon sheriklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish, bunda iqtisodiy oqimni optimallashtirish jarayoni vaqtincha va fazoviy omillarni to'liq hisobga olinishini ta'minlaydi, bu esa bozorda korxonaning strategik va amaliy maqsadlariga erishishga yordam beradi. Logistika ilmiy fikr va logistika yo'nalishi sifatida o'ziga xos faoliyat sifatida uch turning birlashmasini tashkil etadi: iqtisodiy logistika, harbiy logistika va matematik logistika. Ular bilim doirasi va sohalarida farq qiladi va ayni paytda bir-birini to'ldirishi va boyitishi mumkin. 15 Iqtisodiy logistika iqtisodiy tizimlarda iqtisodiy oqimlarning harakatini tashkil etish shakllarini o'rganadi. Harbiy logistika tinchlik davrida qo'shinlarning moddiy texnik ta'minotini tashkil etilishi va uni boshqarishni o'rganadi. Matematik logistika matematika qonunlarini va algoritmlarni o'rganadi. U logistika obyektlarini qurishda

matematik modellarda qo'llaniladi. Yuqorida aytganimizdek iqtisodiy ko'rsatkichlar tashkilot va xarakatlar turlarida ifodalanadi. Logistikaning asosiy ko'rsatkichi oqimlar bo'lganidan keyin, raqamli logistikada yangi oqim turlari kirib keladi va bu oqimlar raqamli oqimlar deb nomlanadi. Avvaliga biz hali tuzilmagan va shartli bo'lgan ba'zi yangi tushunchalar uchun kichik tushuntirishlarni kiritamiz. Bular raqamli texnologiya, Big Data, blokcheyn texnologiyalari va h.k. Raqamli texnologiyalar, analoglardan farqli o'laroq, diskret (uzluksiz) signallar bilan ishlaydi. Salmoqli ma'lumot atamasi orqali tom ma'noda har qanday axborot tashuvchida saqlanayotgan katta miqdordagi ma'lumotlar tushuniladi. Bundan tashqari, bu miqdor juda katta bo'lib, uni odatiy dasturiy yoki apparat ta'minotlari yordamida qayta ishlash mumkin emas, ayrim hollarda esa umuman imkonsiz. "Big Data" — bu faqat ma'lumotlarning o'zi emas, balki ularni qayta ishlash va foydalanish texnologiyasi, juda katta oqim ichidan kerakli axborotni izlash uslubidir. Salmoqli ma'lumot tushunchasi katta o'lchamdagi ishlarni bajara oladigan operatorlarga nisbatan ishlatiladi. Misol uchun hozirda "Google" kompaniyasi bir kunda bir petabaytdan ortiq ma'lumotlarni qayta ishlaydi. Ushbu ko'rsatkich AQSh Kongresi kutubxonasidagi materiallardan 100 barobar ko'proq degani. Blockchain - bu tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish imkonini beruvchi texnologiya. Masalan, blockchaynda pul ko'chirmalari haqidagi yozuvlarni saqlash mumkin. Kriptovalyutalarda aynan blockchayndan kim, kimga va qancha virtual pul o'tkazganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd qilish uchun 16 foydalaniladi. Biroq blockchaynda boshqa aktivlarni ham saqlash mumkin. Umuman olganda, nimani qog'ozda yozishning imkoni bo'lsa, o'sha narsalarning barchasini blockchaynda ham yozish mumkin bo'ladi, faqat birgina farq bilan – blockchaynda yozuvlarni almashtirish va soxtalashtirishning imkoni yo'q. Raqamli iqtisodiyotning xususiyati shundaki, unda ma'lumotlar raqamli shaklda ishlab chiqarishda muhim omil bo'lib, logistika jarayonlarining shakllanishiga ta'sir qiladi. Raqamli logistika - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli transformatsiyalar orqali amalga oshirilgan logistika funksiyalari va operatsiyalarining bir qismi sifatida belgilanishi mumkin. Raqamli logistikaning mohiyati uning asosiy maqsadlari, vazifalarida va uning tashkiliy tuzilmasining obyekt-subyekt tarkibida ifodalanadi. Raqamli logistikani iqtisodiy logistikaning bir turi sifatida va to'liq logistika tizimida mustaqil maydon sifatida ko'rish mumkin. Raqamli oqimda so'nggi aloqa texnologiyalari, raqamli o'zgarishlarni tartibga solish, tarmoqlar, tezkor xabarchilar, bulutli texnologiyalar, platformalar mavjud. Bu iqtisodiy oqimni tashkil qilishning virtual shakli. Iqtisodiy oqim - bu iqtisodiy logistikaning asosiy toifasi hisoblanadi. Raqamli oqim esa subyekt maydoni va raqamli logistikaning asosiy toifasi hisoblanadi. Logistika kategoriyasi sifatida vakolat, ma'lum bir sohada samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligini anglatadi. Raqamli logistika uchun quyidagi vakolatlar talab qilinadi: • katta ma'lumotlar va ilg'or tahlil; • egiluvchan loyihalashtirish va Agile ekspertiza; • raqamli tarkib; • mobil interfeyslar; •

raqamli mijozlar tajribasi; • xavf va xavfsizlik; • raqamli to'lovlar; 17 • raqamli savdo va reklama; • an'anaviy dasturiy ta'minot va infratuzilma. 1.2. Raqamli logistikaning rivojlanish tendensiyalari

Nazorat savollar

1. Logistika murakkab ishlab chiqarish-sotish komplekslari nimani o'rgatadi.?
2. Xalqaro logistikada elektron tijoratni tushuntiring?
3. logistik tizimlarda moddiy va axborot oqimlari?

13-Mavzu;Xalqaro logistikaning xukukiy aspektlari. O'zbekiston xududida yuklarni Xalqaro avtomobil-yul boglamlarida tashishlarni xukukiy tartibga solish.

Reja

1. Xalqaro logistika faoliyatining xuquqiy asoslari.
- 2 Xalqaro logistika faoliyatining tijorat ta'minoti.
3. Xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishning meъyoriy-huquqiy hujjatlari

13.1 Xalqaro transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston hozirning o'zidayoq bir qator tashkiliy huquqiy va amaliy chora-tadbirlarni ko'rmoqda. O'zbekiston respublika qonunchilik asosining transport munosabatlarini tartibga soluvchi qismini umum qabul etilgan xalqaro norma va qoidalarga yaqinlashtirish bo'yicha faol olib borilmoqda. Masalan, avtomobilda yuk tashish borasida MDP guvohnomasini qo'llagan holda xalqaro yuk tashish to'g'risidagi Bojxona Konventsiyasi, Xalqaro yuk tashish shartnomasi to'g'risidagi konventsiya,

Yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi konventsiya va Yo'l harakati to'g'risidagi konventsiya ratifikatsiya qilindi. SHunday qilib, tadqiqot ishi va realizatsiya qilishining dolzarbligi qo'shimcha xalqaro yuk tashish hajmlari va valyuta tushumlarini jalb etish, transport harakatlarini qisqartirish, transportning har xil turlari ko'proq o'zaro hamkorlik qilishi, yo'lovchilar va yuklar tashish muddatlarini, transportning energetik va ekologik ko'rsatkichlarini xalqaro andozalariga yaqinlashtirish maqsadida O'zbekiston avtomobil transportining jahon transport tizimiga integratsiyalashuvi bilan shartlangandir. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishini xalqaro yuk tashishlar nuqtai nazaridan tahlil qila turib, quyidagi

konvensiyalar va bitimlarga qo'shilishning umumiy yo'nalishlari bo'ladi deb quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- davlatlararo transport aloqalarini rivojlantirish;
- O'zbekiston transportining xalqaro transport huquqlarini joriy etish va u bilan uyg'unlashuvi asosida xalqaro transport tizimiga integratsiyalashuvi;
- transport-yo'l majmuiga xalqaro andozalar va tavsiyalarni tatbiq etish, shuningdek, milliy va xalqaro transport tashkilotlari bilan o'zaro foydali hamkorlik qilish;
- atrof muhit muhofazasi va ekologik xavfsizlik muammolarini kompleks tarzida hal qilish;

- Evropa-O'zbekiston-Janubiy-SHarqiy Osiyo kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi milliy transport kommunikatsiyalarini qurish;

- eksport transport xizmatlarini kengaytirish va takomillashtirish;
- rivojlangan Evropa mamlakatlari darajasidagi servisni ta'minlangan holda turizm xizmatlarini rivojlantirish.

1. Asosiy xalqaro transport yo'laklarini tahlil qilish, axborot, yuklarning saqlanishi va ularga ishlov berilishini o'z ichiga oluvchi zarur xizmat ko'rsatish darajasini, harakatdagi tarkibga xizmat ko'rsatilishini, haydovchilar va yo'lovchilarga zarur yo'l xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlay oladigan transportekspeditsiya tizimini tashkil qilish ushbu ish amalga oshirilishining eng qulay sharti sanaladi.

2. Me'yoriy huquqiy negizni Evropa halqaro bitimlari va bitimlariga moslashtirmasdan turib kelib tushishining imkoni bo'lmaydigan xorij sarmoyasini o'z ichiga oluvchi byudjetdan tashqari mablag'lar xalqaro transport yo'laklarini bunyod etish va rivojlangan mamlakatlar darajasida transport xizmati ko'rsatish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbai bo'lishi lozim.

3. Tahlillarning dalolat berishicha, avtomobil transporti sohasida 18 ta xalqaro hujjatlar mavjud bo'lib, ulardan asosiy konvensiyalarni O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolanishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, BMTning Evropa Iqtisodiy Komissiyalari doirasida xalqaro konvensiyalarni ishlab chiqish va imzolash xalqaro yuk tashish sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi asosiy integratsiya mexanizmi sanaladi. Ularning tizimlashtirilishi quyidagi uchta hal qiluvchi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan:

Yuk tashish mexanizmining asosiy yo'nalishlari

1.2.1-chizma




Dastlabki xalqaro hujjatlarni imzolash 1954 yilda orada ikki oy farq bilan ikkita hujjatni imzolash tariqasida amalga oshirildi. Ular yo'l-transport majmui va yo'lovchilar tashishni tartibga soladi.

O'zbekiston ham boshqa davlatlarda ko'proq qiziqish uyg'otgan xavfli yuklarni xalqaro yo'lda tashish to'g'risida Evropa Bitimiga, CHegarada yuklar nazoratini o'tkazish shartlarini kelishib olish to'g'risidagi Xalqaro Konventsiyaga, Xalqaro kombinatsiyalashgan yuk tashishning muhim yo'nalishlari va tegishli ob'ektlar to'g'risida Evropa Bitimiga, yo'lovchilar va bagajni xalqaro avtomobilda tashish shartnomasi to'g'risidagi konventsiyalarga qo'shilishni rejalashtirmoqda. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi halqaro avtomobilda tashishning me'yoriy-huquqiy negizini shakllantirishga e'tibor bermoqda

Xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy hujjatlari

1.2.2-chizma



Bundan tashqari, quyidagi konventsiyalar bor:

1. 1980 yildagi temir yo'l bo'ylab yukni xalqaro transportirovka qilishga oid Konventsiyadagi qoidalar (COTIF) Temir yo'l transporti bilan yukni xalqaro tashish bo'yicha kontraktga oid YAgona qoidalar (CIM) (bundan keyin CIM deb yuritiladi);

2. Transport nakladnoylariga taalluqli qonunchilikning ba'zi qoidalarini birxillashtirish bo'yicha Xalqaro Konventsiya (1924, Bryussel) Bryusselda tuzilgan Bayonnoma asosida kiritilgan tuzatishlari bilan (bundan keyin GaagaVisbu qoidalari deb yuritiladi).

3. YUkni dengiz transporti bilan transportirovka qilish bo'yicha BMT Konventsiyasi, 1978, Gamburg (bundan keyin Gamburg qoidalari deb yuritiladi).

4. YUkni avtotransport bilan xalqaro tashishga oid ba'zi qoidalarni birxillastirish bo'yicha Konventsiya, Varshava, 1929 (bundan keyin Varshava Konventsiyasi deb yuritiladi). YUklarni ichki suv transporti bilan xalqaro tashish va xalqaro mul'timodal tashish xususida to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda hech qanday xalqaro konventsiyalar amalda emas. 1988 yili Jenevada yukni xalqaro mul'timodal tashish bo'yicha BMT Konventsiyasi tavsiya etilgandi. Bu Konventsiyani faqatgina 9 davlat ratifikatsiya qilgan va hech qachon kuchga kirmaydi. Xalqaro mul'timodal tashishlarga to'xtalganda esa, bu sohada mul'timodal tashishlar bo'yicha hujjatlar uchun UNCTAD/IIC qoidalari, FIATA Kombinatsiyalangan transport hujjati va yangi chiqarilgan BIMCO/INCA COMBIDOS singari xalqaro andozaviy kontraktlardan foydalaniladi.

2011 yil 1 yanvardan boshlab Xalqaro savdo palatasi - Jahon biznes tashkiloti (International Chamber of Commerce, ICC) tomonidan ishlab chiqilgan Inkoterms-2010 (Incoterms-2010) ning yangi tahriri kuchga kirdi.

Inkoternsning amal qilish sohasi oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha taraflarning tovarlarni etkazib berish (etkazib berish shartlari) bobida huquq va majburiyatlariga tatbiq etiladi. Ular xalqaro savdo shartnomalarining muhim elementi hisoblanadi, bugungi kunda TIF va xalqaro savdo ularsiz butkul boshqacha amalga oshirilgan bo'lar edi.

Inkoterns atamalari tovarlarni sotuvchidan haridorga etkazishdagi chiqimlar va hatarlarni tavsiflaydi, shuningdek yuk ortish-tushirish ishlari, tovarlarni tashish, ularni sug'urtalash va bojxonada tozalash bo'yicha taraflarning majburiyatlarini tartibga soladi.

Inkoterns-2010 ning yangi tahririga ko'ra hususiyatlari

Inkoterns qoidalarining 2010 yil tahriridagi yangi versiyasi bir qator muhim o'zgartirishlar va yangiliklarni o'z ichiga oladi. Tarkibiga ko'ra u transportning xar qanday turlarida hamda dengiz orqali va ichki suvlarda tashish

chog'ida foydalaniladigan atamalarning ikki guruhidan iborat (Inkoterns-2000da 4 guruh bor edi). Bundan tashqari, ular miqdori 13 atamadan 11 atamaga qisqardi, buning ustiga ularning ikkitasi mutlaqo yangi atamalar: DAT (terminalda etkazib berishlar) va DAP (punktda etkazib berishlar).

Inkoterns-2010da har bir atamaga uning ma'nosiga qisqacha tushuntirish berilgan, bu esa ko'pincha etarlicha huquqiy bilimlarga ega bo'lmagan tadbirkorlarga shartnomalar tuzayotganda xatolarga yo'l qo'ymaslik va kerakli atamani tanlash imkonini beradi. Qoidalarning yangi versiyasida FOB, CFR va CIF atamalariga qo'shimchalar kiritilgan.

Inkoterms-2010 qoidalarini qo'llash sohasining yanada kengaygani ularning shubhasiz afzalligidir. 2010 yil versiyasi ushbu qoidalarni bir davlat yoki EI va MDH singari integratsiya birlashmalari doirasida xalqaro va ichki savdoda qo'llash imkonini beradi.

YUklarni terminalda saqlash chiqimlarini to'lash uchun mas'ul tarafni belgilashda ham vaziyatni tuzatishga va aniqlik kiritishga yo'naltirilgan tuzatishlar kiritildi.

Nazorat savollar

1. Xalqaro logistika faoliyatining xuquqiy asoslari.?
- 2 Xalqaro logistika faoliyatining tijorat ta'minoti.?
3. Xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy hujjatlari?

14-Mavzu;Xalqaro logistikaning rivojlanish muammolari. Xalqaro logistikaning bojxona ta'minotining asoslari.

Reja

1,Xalqaro transport tashuvlari va unda bojxona organlarining asosiy vazifalari 2. Bojxona nazoratining shakllari

3. Bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirish

Ishdan maqsad; Xalqaro transport tashuvlari va unda bojxona organlarining asosiy vazifalari, Bojxona nazoratining shakllari, bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirishni o'rganish.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi kerak. Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir.

Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmui bojxona rasmiylashtiruvi

hisoblanadi. Bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruv amalga oshirilayotganda bojxona organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan taqiqlar va cheklovlarni belgilashga haqli emas.

Bojxona organi bojxona nazoratini o'tkazish uchun:

nazorat qilinishi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli shaxslardan va boshqa shaxslardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni;

tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan va boshqa organlardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilib olish huquqiga ega.

Hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yo'llangan, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan shaxslar va organlar ushbu hujjatlar va ma'lumotlarni bojxona organiga mumkin qadar qisqa muddatlarda yuborishi shart. Bojxona deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yo'qotgan yildan keyingi yildan e'tiboran uch yil davomida saqlanadi.

Bojxona nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish; og'zaki so'rov; axborot olish; bojxona ko'zdan kechiruv; tovarlarning tamg'alanganligini tekshirish; bojxona ko'rigi; shaxsiy ko'rik; bojxona identifikatsiyalashi; bojxona kuzatuv; binolar va hududlarni tekshirish; tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, ularni hisobga olish tizimini tekshirish hamda ushbu tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish;

tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati.

Bojxona rasmiylashtiruv bojxona organiga tovarlar va (yoki) transport vositalari xususida hujjatlar taqdim etilgan paytdan, ushbu Kodeksning 162-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa, og'zaki ma'lum qilingan yoxud jismoniy shaxsning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish niyatidan dalolat beruvchi boshqa harakatlar bajarilgan paytdan e'tiboran boshlanadi. Bojxona rasmiylashtiruv bojxona organi va deklarant yoxud vakolatli shaxs o'rtasidagi tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish va (yoki) bojxona rejimining amal qilishini tugallash, bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash yoxud ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tartibga solinganidan keyin tugallanadi.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi:

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda veterinariya, fitosanitariya nazorati, ekologik nazorat va boshqa turdagi davlat nazorati amalga oshirilganidan keyin;

agar ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, mazkur hujjatlarning mavjudligi tasdiqlanganidan keyin tugallanadi.

Tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi hamda taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan va barcha zarur hujjatlar hamda ma'lumotlar taqdim etilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Bu muddat boshqa davlat organlari tomonidan tovarlar va (yoki) transport vositalari yuzasidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqtni o'z ichiga olmaydi.

Transport tashuvlari haqidagi bilimlar "Logistika" fanining asosiy tarkibiy qismiga kiradi, logistika so'zi grekcha "logistike" so'zidan olingan bo'lib, "hisoblash, idrok etish mahorati" degan ma'noni bildiradi. Amaliy logistikaning yuzaga kelish tarixi juda qadim davrlarga borib taqalib, Rim imperiyasida "logist"lar oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatish bilan shug'ullanganlar. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, bizning yurtimiz, tarixan Osiyo va Evropani birlashtirgan – Buyuk Ipak Yo'li orqali amalga oshirilgan xalqaro savdoda eng muhim markazlaridan biri bo'lib, bu yo'l orqali karvonlarda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yuklar tashuvi amalga oshirilgan.

Bugungi kunda nazariyotchilar va amaliyotchilar logistikaning bir qancha turlarini farqlaydilar: ta'minot logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, marketing logistikasi, taqsimot logistikasi, transport logistikasi va hokazolar. Xalqaro iqtisodiy globalizatsiya sharoitida transport logistikasi birlamchi ahamiyatga sazovor bo'ldi. Kommunikatsiyaning ushbu turi davlatlar iqtisodiyotining va jahon hamjamiyatining strukturaviy-texnologik qismiga aylanib borib, transport tashuvlarini samarali va yuqori sifatli tashkil etilishiga birinchi darajadagi vazifa sifatida qaralmoqda. Xalqaro logistik tizimlarda optimallashtirish printsipligiga asoslanib, transportning har xil turlaridan foydalaniladi.

Bugungi kunda transport logistikasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ transport vositalari turini tanlash;
- ✓ transport vositalari ko'rinishini tanlash;
- ✓ transport tashuvi jarayonini ishlab chiqarish va omborda saqlash jarayonlari bilan birgalikda rejalashtirish;

- ✓ aralash transport tashuvlarida turli transport vositalari orqali tashuvni rejalashtirish;
- ✓ transport-ombor jarayonining texnologik yaxlitligini ta'minlash;
- ✓ etkazib berishning ratsional marshrutini aniqlash.

Tayyor mahsulot realizatsiyasida korxonada mahsulotni etkazib berish bilan bog'liq masalalar to'plamiga duch keladi. Birinchi o'rinda, bu transport turini, tashuvni tashkillash usullarini tanlash bilan bog'liq masalalardir. Ratsional transport vositasini tanlashda tashiladigan yuk xususiyatlari va bir qancha boshqa talablarga e'tibor beriladi. Transport logistikasining rivojlanishi oboruvchi, qabul qiluvchi va transport korxonasi umumiy foydasiga hal bo'lib, kompleks transport-texnologik tizimlari tashkil etishga asoslanishi lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport tashuvlari bilan bog'liq operatsiyalar tashqi savdo bitimlarini ham boshlang'ich, ham yakunlovchi qismi bo'lib xizmat qiladi. Bunda transport tashuvi nafaqat savdo-sotiq bitimini amalga oshiradi, balki tovarning bitimdagi narxiga ham katta ta'sir qiladi. Korxonaning hatto yuqori sifatli eksportga mo'ljallangan mahsulot chiqarishga qaratilgan barcha urinishlari transport tashuvini amalga oshirishdagi kachiliklar va xatolar tufayli zoe ketishi mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda transport tashuvi jarayonining ishtirokchilari murakkab munosabatlarga kirishadilar. Bu munosabatlarning mexanizmlari iqtisodiy va siyosiy omillar, xalqaro huquq va tijorat normalari, aktlar va an'analari asosida shakllanadi. Bunday sharoitda yuk egasiga xalqaro bozorlar, mijozlar joylashishi, alohida davlatlar siyosati va xalqaro tashkilotlar ta'siri ostida shakllanadigan transport tashuvlari holatiga moslashish tobora qiyinlashib bormoqda. Bugungi kunda professional bilimlarga ega bo'lish, turli davlatlarning qonunchiligi, xalqaro konvensiyalar, transport vositalarining texnik-iqtisodiy xususiyatlarini bilish, yuklarni qayta ortish, transport va vositachilik bozori haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Transport xizmatlarining mahsuloti tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etkazib berish jarayonidir. Transport xizmatlari boshqa xizmatlar kabi o'z xususiyatlariga ega:

1. Transport xizmatlari yangi mahsulot ishlab chiqarmaydi, biroq ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish joyidan istemolchiga etkazib berish transport xizmatlari yaratadigan iste'mol qiymatini tashkil etadi.

2. Transport xizmatlarining realizatsiyasi, transport tashuvlaridan tashqarida saqlab yoki amalga oshirilib bo'lmaydigan foydali natijada namoyon bo'ladi. Ya'ni, transport xizmatlarining yaratilishi va iste'mol qilinishi davri bir vaqtga to'g'ri keladi.

3. Transport tashuvlari xalqaro tovar aylanmasida alohida o'rin tutadi. Bir tomondan, u xalqaro mehnat taqsimotini va xalqaro aloqalarni asosini tashkil etadi, boshqa tomondan, transport sanoati jahon bozorida o'z xizmatlarining eksport qiluvchisi bo'lib ishtirok etadi.

4. TIFda amalga oshiriladigan transport xizmatlariga bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini tavsiflovchi barcha omillar ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, bu omillarga mahsulotlarga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishi, neft bahosining, valyuta narxlarining o'zgarishlari, davlatning TIFga aralashish darajasi, turli davlatlarning iqtisodiy va siyosiy munosabatlari holatini kiritish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Transport xizmatlari deganda nima tushinasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi TIF ning asosiy tashkil etuvchilari nimalar?
3. O'zbekiston Respublikasining TIS asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Nima uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tartibga solishga muxtoj?
5. Xalqaro yo'nalishlarda yuk tashuvchilari qanday minimum bilimlarga ega bo'lishlari lozim?
6. Xalqaro yo'nalishlarda tashilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarida qanday xujjatlar bo'lishi lozim?
7. Bojxona organi bojxona maqsadlari uchun qanday xujjatlar talab qilishga haqli?
8. Bojxona organi masabdor shaxsi bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovarlardan qanday bojxona to'lovlari undirishlari mumkin?
9. Bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirish tartibi qanday?
10. Eksport import tovarlaridan soliqlar undiriladimi, agar undirilsa qanda

1-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: "Xalkaro logistika" fanining mohiyati va mazmuni

Reja

1. "Xalkaro logistika" fanining predmeti, uning mohiyati va maqsadi.
2. "Xalkaro logistika" fanini o'rganish ob'ektlari.
3. Logistikaning rivojlanish bosqichlari.

Tayanch iboralar: tahlil, tizimli tahlil, ob'ekt, sub'ekt, marketing, jarayon, biznes birlik, analitik ko'rsatkichlar

Ishdan maqsad; Xalkaro logistika fanining predmeti, uning mohiyati va maqsadini o'rganish.

Mamlakatimizda 1990-yillardan boshlab bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi logistika kabi ilmiy-amaliy yo'nalishni maqsadli ko'rib chiqish zaruratini asoslab berdi.

*Logistika** – barcha (moddiy, moliyaviy, axborot, mehnat, intellektual va b.) resurslar optimal xarajatlari bilan korxonaga maqsadlariga erishish uchun moddiy va unga hamrohlik qiladigan (axborot, moliyaviy, servis) oqimlarini boshqarish samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini izlab topish bilan bevosita bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat yo'nalishidir.

* «*» билан белгиланган атамалар изоҳи китобнинг охирида келтирилади

«Logistika» so'zining semantikasi Qadimgi YUnonistonga borib taqaladi, bu erda «logistike» atamasi «hisoblab chiqish, mulohaza yuritish san'ati» ma'nosini anglatardi. Rim imperiyasida logistika deganda oziq-ovqatlarni taqsimlash qoidalari tushunilgan. Vizantiya imperatori Lev VI (816-912) davrida logistika harbiy qo'shinlar ta'minoti va uning harakatlanishini boshqarish san'ati sifatida ta'riflangan. Mazkur atamaning hozirgi kunlarga etib kelgan ikkita asosiy talqinini kuzatish mumkin:

1) logistikani harbiy ishda qo'llash. Harbiy logistika sohasida dastlabki ilmiy mehnatlar ijodkori sanalgan XIX asr boshida frantsuz harbiy mutaxassisi baron A.A. Jomini (1779-1869) logistikaga «qo'shinlar bilan harakat qilish amaliy san'ati» deya ta'rif bergan. Uning ta'kidlashicha, logistika nafaqat tashuvlarni, balki rejalashtirish, boshqarish va ta'minot, qo'shinlar dislokatsiyasini aniqlash, shuningdek, ko'priklar, yo'llar qurilishi va h.k. masalalarni o'z ichiga oladi. 1884 yil Amerika harbiy-dengiz floti instituti navigatsiya ehtiyojlarini belgilash uchun

1.2. «Xalkaro logistika» fanini o'rganish ob'ektlari

Global logistika davri logistikaning kelgusi rivoji bilan asoslanadi. Ushbu atama ostida qoidaga ko'ra, mehnat taqsimoti, davlatlararo darajada qo'llab-quvvatlanadigan shartnoma, bitim va umumiy rejalar shaklida kooperatsiya va hamkorlik asosida dunyoning turli mamlakatlari biznes-strukturalarini bog'laydigan barqaror makrologistika tizimlari tushuniladi. Kelajak logistikasi nazariyasi va amaliyoti faol rivojlanishining katalizatorlari jahon iqtisodiyotidagi quyidagi jiddiy o'zgarishlar hisoblanadi: bozor globallasuvi; iqtisodiyot infratuzilmasini davlat tomonidan tartibga solishdagi o'zgarishlar; umumiy sifat boshqaruvi (Total Quality Management - TQM) kontseptsiyasining hamma joyda keng tarqalishi; axborot-kompyuter texnologiyalari inqilobi va tez rivojlanayotgan telekommunikatsiyalar bozori; hamkorlik va strategik ittifoqlar o'sishi va b.

Logistika yondashuvining moddiy resurslar anʼanaviy harakatini boshqarishdan asosiy farq shundaki, logistika yondashuvida boshqaruv obʼekti boʻlib oqim – umumiy bir yaxlitlik sifatida qabul qilinadigan predmetlar yigʻindisi namoyon boʻladi.

Oqim – maʼlum bir vaqt oraligʻida jarayon sifatida mavjud boʻladigan va belgilangan vaqt davrida mutlaq birliklarda oʻlchanadigan, yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan harakatdagi predmetlar yigʻindisi.

Koʻrinib turibdiki, strategik boshqaruvda barcha resurslar yigʻindisi oqimlar koʻrinishida, xususiy holatda esa – zaxiralar koʻrinishida ifodalanishi mumkin.

Zaxira – yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan va berilgan vaqt mahali uchun mutlaq birliklarda oʻlchanadigan predmetlar yigʻindisi.

Koʻrinib turibdiki, strategik boshqaruvda barcha resurslar yigʻindisi oqimlar koʻrinishida, xususiy holatda esa – zaxiralar koʻrinishida ifodalanishi mumkin.

Zaxira – yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan va berilgan vaqt mahali uchun mutlaq birliklarda oʻlchanadigan predmetlar yigʻindisi.

Taktik boshqaruvga nisbatan oqimlar va zaxiralarni paritetli* logistika toifalari sifatida maqsadli ajratishni amalga oshirish lozim.

SHunday qilib, logistika asosiy toifalariga* oqim va zaxiralar aylanadi. Zaxiralar statik koʻrsatkichlari va oqimlar dinamik tavsifnomasi oʻrtasida qalin oʻzaro bogʻliqlik mavjud:

R oqim Z zaxira oʻzgarishini tavsiflaydi

$$P = dZ/dt;$$

zaxira oqim toʻplanishi va oʻzgarish natijasini aks ettiradi

$$21 \text{ tt } PdT Z$$

Oqim va zaxira toifalari logistika jarayonlarini koʻrib chiqishda talab qilinadigan darajada chuqur va batafsil boʻlmasada, makroiqtisodiy modellarda* juda keng foydalaniladi. Logistikada oqimlar va zaxiralar umumlashirilgan iqtisodiy toifalarning xususiy holati hisoblanadi, xuddi shu tarzda logistika qonuniyatlari umumiy iqtisodiy qonunlarning xususiy tarzda namoyon boʻlishi sanaladi. Moddiy oqim tushunchasi logistikada asosiy tushunchadir. Koʻrinib turibdiki, moddiy oqimlar mavjud boʻlish shakllari transport vositasida tashish, omborga joylashtirish va birlamchi xomashyo manbasidan yakuniy mahsulot isteʼmolchisiga etkazish boʻyicha boshqa moddiy operatsiyalarni bajarish jarayonida barcha mahsulot turlarining harakati boʻlishi lozim (moddiy resurslar*, tugallanmagan ishlab chiqarish*, tayyor mahsulot*).

Uchinchi bosqich XX asrning 80 - yillari o'rtalariga to'g'ri keladi va material o'tkazuvchi tarmoqni hamma bo'g'inlarining integratsiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Logistika kontseptsiyasining asosi bo'lgan integratsiyalashuv zaruriyatini, ta'minot, ishlab chiqarish va taqsimot bo'g'inlarining ko'pchilik qatnashchilari tan ola boshlaydi.

Moddiy va axborot oqimlarining tez o'tishini ta'minlash va mahsulotning xom - ashyoni birinchi manбайдan to oxirgi iste'molchigacha harakatining hamma bosqichlari monitoringini amalga oshirish imkonini beruvchi zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari vujudga keladi.

Birinchi bob buyicha nazorat savollari.

1. Xalqaro logistika deganda nima tushunasiz?
2. Logistikaning rivojlanish bosqichlari to'g'risida gapiring?
3. Xalqaro logistikada transport vositalarini ahamiyati qanday?
4. Xalqaro yuk tashuvlari qanday me'yoriy xuquqiy xujjatlar asosida amalga oshiriladi?
5. Xalqaro yuk tashuvlarini qaysi xalqaro tashkilotlar tartibga solishi mumkin?
6. Xalqaro yuk tashuvlarini tashkiliy mexanizmlari qaysilar?
7. Xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishda transport koridorlarini ahamiyati qanday.
8. O'zbekiston Respublikasi xalqaro yuk tashuvlarini nechta transport yo'laklari orqali amalga oshiradi.
9. Xalqaro yuk tashuvlarida transport infratuzilmasi qanday ahamiyatga ega.
10. Logistik infratuzilma deganda nima tushinasiz.

2-Amaliy mashgulot(4 soat)

Mavzu; Xalqaro logistikani tashkiliy aspektlari

Reja;

1.Xalqaro logistikani tashkiliy aspektlari

2Transport xizmatlari bozori tushunchasi.

3Temir yo'l transporti.

4Avtomobil transporti.

Ishdan maqsad; Xalqaro logistikani tashkiliy aspektlari o`rganish.

Umumiy ma`lumotlar;

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Respublikada transport mustaqilligi ta'minlandi va respublikaning barcha hududlarini bir-biri bilan bog'laydigan milliy tizim yaratildi. Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

Transport sohasiga qariyb 13,3 mingta korxonalar va tashkilot jalb qilingan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan ularning soni 11,1 foizga ko'paydi. 2019 yil 1 yanvar holatiga transport sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,1 mingtaga etdi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan bu ko'rsatkich 282 taga ko'paydi.



2018 yil yanvar-dekabr oylarida transportning barcha turlari tomonidan 1209,0 mln. tonna yuklar tashildi, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,6 % ni tashkil etadi. SHu bilan birga, yuk aylanmasi 70,6 mlrd. t-kmni tashkil etdi yoki 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,7 % ga yuqori bo'ldi.

Ma`lumot uchun: 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Qozog'iston korxonalar va tashkilotlari tomonidan 4103,6 mln. tonna yuk tashilgan. Qirg'izistonda transportning barcha turlarida yuk tashish hajmi 33,0 mln. tonnaga teng bo'lgan.

Transportning barcha turlarida yuk tashish bo'yicha avtomobil transporti (1068,2 mln. tonna) ustunlik qiladi. Quvur yo'li transporti orqali 72,4 mln. tonna neft

va gaz quyilgan, temir yo'l transporti orqali - 68,4 mln. tonna yuk tashildi. YUk tashish bo'yicha eng kichik ko'rsatkich havo transportida 13,1 ming tonna qayd qilindi. 1-rasm. **Transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning taqqoslanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

1-jadval

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi

	2018 yil yanvar dekabr	2017yil yanvar dekabrga nisbatan %
Transportda tashilgan yuklar, mln.tonna	1209,0	105,6
Temir yo'l transporti	68,4	100,8
Avtomobil transporti	1068,2	105,6
Havo transporti ming/t	13,1	49,6
Quvurlar transporti	72,4	111,2
Transport yuk aylanmasi mln/t	70560,6	105,7
Avtomobil transporti	22942,1	100,0
Havo transporti ming/t	13851,9	103,0
Quvurlar transporti	33643,2	111,4

Manba: DSQ statistik ma'lumotlari.

umumiy yuk tashish hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transporti – 88,3 % egallaydi, boshqa transport turlarida yuk tashish ulushi 11,7 % ga to'g'ri keladi.




2-rasm. Transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi, %

(2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun) Manba: DSQ stistik ma'lumotlari

2018 yilda transportning barcha turlarida yuklarni tashishning jadal o'sishi kuzatilmoqda. 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 1,9 f.p. ga oshdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida umumiy yuk aylanmasi hajmining o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Quvur yo'li transporti yuk aylanmasi o'sishi 11,4 % ni tashkil etdi, 2017 yil yanvar-dekabr oylaridagi 4,5 foiz o'sishga qaraganda 6,9 f.p. ga oshdi, shuningdek, avtomobil transporti - 2,3 % o'rniga 3,0 % (0,7 f.p. ga oshdi).



3-rasm. Yuk aylanmasini o'sish sur'atlarining taqqoslanishi,% Manba: DSQ statistik ma'lumotlari

Transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



4-rasm. Transport turlari buyicha yuk aylanmasi %

Umumiy yuk aylanmasi hajmida 47,7 % ulush quvur yo'li transportiga, 32,5 % ulush temir yo'l transportiga, 19,6 % ulush avtomobil transportiga va 0,2 % ulush havo yo'li transportiga to'g'ri keladi.

2-jadval

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2018yil yanvar-dekabr	Jami hajmga nisbatan ulushi, %	2017 yil yanvar- dekabrga nisbatan %
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi		100,0	102,4
Temir yo'l transporti	22,3	0,4	106,1
Avtomobil transporti		98,3	102,3
Havo transporti	2,6	0,04	118,7
SHaxar elektr transporti	74,1	1,3	114,9
Transport yo'lovchi aylanmasi mln. Yo'lovchi/km	134426,5	100,0	103,4
Temir yo'l transporti	4350,1	3,2	101,3
Avtomobil transporti	120696,3	6,6	102,6
Havo transporti	8835,1	89,8	117,0
SHaxar elektr transporti	545,0	0,4	114,1

Manba: DSQ statistik ma'lumotlari

Ma'lumot uchun: Qirg'izistonda yo'lovchilar tashish ko'rsatkichi 731,6 mln. yo'lovchiga teng bo'ldi. Qozog'istonda 23021,6 mln. yo'lovchi tashilgan.

Ma'lumot uchun: Qirg'izistonda yo'lovchilar tashish ko'rsatkichi 731,6 mln. yo'lovchiga teng bo'ldi. Qozog'istonda 23021,6 mln. yo'lovchi tashilgan. Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibida avtomobil transporti etakchilik qilmoqda. Uning jami yo'lovchi tashish hajmidagi ulushi – 98,3 % ni tashkil etadi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Temir yo'l transporti

2018 yil yanvar-dekabr oylarida yuklar temir yo'l transporti orqali o'tgan yilning mos davriga nisbatan 511,7 ming tonna ko'p tashildi. Temir yo'l transporti yuk aylanmasi 22942,1 mln. tonna-kmga etdi. O'tgan yilning mos davrida yuk aylanmasi 22939,5 mln. tonna-kmni tashkil etdi.

Temir yo'l transportining yuk va yo'lovchi aylanmasini taqqoslanishi

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish ko'rsatkichi 1289,5 ming kishiga oshdi. Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish 6,1 % ga o'sdi va 22,3 mln. kishini tashkil etdi. Yo'lovchi aylanmasi 4350,1 mln. yo'lovchi-km ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun 2017 yil yanvar-dekabr oylarida temir yo'l transporti yo'lovchi aylanmasi 4293,9 mln. yo'lovchi-km ga teng bo'lgan. Magistral temir yo'l transporti orqali yuklarni jo'natish 0,8 % ga oshib, 68,4 mln. tonnani tashkil etdi.

4-jadval

Magistral temir yo'l transportida ortilgan asosiy turdagi yuklar ko'rsatkichi

(2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun temir yo'l transportida)

	Hjmi, ming tonna	Jami hjimga nisbatan ulushi, %	2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan
YUklar -jami	68442,8	100	100,8
SHundan:			
Ko'mir	5652,6	8,3	127,2
Neft maxsulotlari	6782,1	9,9	61,9

Turli rudalar	5291,4	7,7	105,8
Qora metallar	1076,9	1,6	132,5
Qora metal parchalari	838,5	1,2	107,3
Kimyoviy va mineral o'g'itlar	3430,0	5,0	84,7
Qurilish yuklari	5608,9	8,2	88,6
TSement	4854,3	7,1	100,2
YOg'och va yog'och maxsulotlari	29,9	0,1	158,2
Paxta	151,7	0,2	38,6
Don va don maxsulotlari	1733,1	2,5	104,3
Kartoshka, poliz maxsulotlari va ho'l mevalar	320,8	0,5	133,6
Boshqa yuklar	32672,6	47,7	115,1

Temir yo'l transporti orqali o'rtacha bir kunda yuklarni jo'natish 187,5 ming tonnani tashkil etdi yoki 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,8 % ga oshdi. Bir tonna yuk jo'natishning o'rtacha masofasi 335,2 km.ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davri darajasidan 0,6 % ga past bo'ldi.



Magistral temir yo'l transportida tashilgan asosiy turdagi yuklar o'sish sur'ati, %

(2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Magistral temir yo'l transportida yuk tashish bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari yog'och yuklari – 158,2 %, kartoshka, poliz mahsulotlari va ho'l mevalar – 133,6 %, qora metallar – 132,5 %, ko'mir – 127,2 %, boshqa yuklar – 115,1 %, qora metall parchalari – 107,3 % va turli rudalar – 105,8 % kabi yuklarda qayd etildi. Eng past o'sish sur'atlari paxta tolasi – 38,6 %, neft yuklari – 61,9 %, kimyoviy va mineral o'g'itlar – 84,7 %, qurilish yuklari – 88,6 %, tsement – 100,2 % hamda don va yormalar – 104,3 % kabi tashilgan yuklarda qayd etildi.

Avtomobil transporti

Shuningdek avtomobil transporti yuk va yo'lovchilarni tashishda muhim ahamiyatga egadir. Avtomobil transportining yuk aylanmasi 3,0 % ga oshib, 13,9 mlrd. t-km ni tashkil etdi.




Avtomobil transporti yuk va yo'lovchi aylanmasining taqqoslanishi

Hududlar bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibida katta qismni Toshkent shahri egallaydi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 20,7 % ga teng bo'ldi.

Eng kichik ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etildi. U 1,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha avtomobil transportida yo'lovchi tashish tarkibi, %

(2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Hududlar bo'yicha avtomobil transportida yo'lovchi tashish tarkibi, % (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Havo transporti orqali jo'natilgan yuklar 13,1 ming tonnani tashkil etib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 50,4 % ga past bo'ldi. YUk aylanmasi 21,4 % ga kamayib, 123,4 mln. t-kmni tashkil etdi.

Havo transportida 2609,2 ming kishi tashildi, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 18,7 % ga ko'pdir, yo'lovchi aylanmasi esa 17,0 % ga oshib, 8835,1 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etdi.

Havo kemalarining kechikmasdan muntazam etib kelishi 2017 yil yanvar-dekabr oylaridagi 82,8 % o'rniga 84,6 % ni tashkil etdi, 3315 aviaparvoz kechiktirilgan, 3 ta aviaparvoz bekor qilingan. Xalqaro tashuvlarda havo kemalarining muntazam etib kelishi 3,3 f.p. ko'payib, 83,5 % ni tashkil etdi (2017 yil yanvar-dekabr oylarida – 80,2 %).

Havo kemalarining jami kechikish vaqti 2716 samolyot-soatni tashkil etib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 32,5 % ga kamaygan. Kechiktirilgan parvozlarning o'rtacha davomiyligi 24,1 % ga qisqarib, 49 minutni tashkil etdi.

Elektr transportida 74022,5 ming yo'lovchi tashilib, 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 114,9 % ni tashkil etgan. Elektr transportining yo'lovchi aylanmasi 545,0 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etgan bo'lib, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 14,1 % ga ko'pdir.

Elektr transportida yo'lovchi tashish (93,4 %) va yo'lovchi aylanmasida (92,4 %) eng yuqori ulush metropoliten hissasiga to'g'ri keladi.

Metropolitenda yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

2021 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,2 % ga oshgan.

Tramvayda 4370,4 ming yo'lovchi tashilgan, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,9 marta ko'pdir. Tramvayning yo'lovchi aylanmasi 26,2 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etdi.

Magistral quvurlar orqali 72,4 mln. tonna gaz quyilgan, bu 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11,2 % ga ko'pdir. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 56,2 ming tonna neft quyilgan (6,3 % ga kam). Magistral quvurlarning yuk aylanmasi 11,4 % ga oshdi va 33,6 mlrd. t-kmni tashkil etdi.



Quvur yo'li transportida yuk tashish tarkibi (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

2022 yil yanvar-dekabr oylarida yo'l-transport hodisalari soni 8990 tani tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur ko'rsatkich 1054 taga kamaygan (-10,5 %).

Ikkinchi mavzu buyicha nazorat savollari

21. Transport xizmatlari bozori deganda nima tushinasiz?
22. Transport xizmatlariga nimalar kiradi?
23. Respublikamiz transport xizmatlari bozorida qaysi transport turi etakchilik qiladi?
24. Transport logistikasida ananaviy va noananaviy transport turlariga nimalar kiradi?
25. Transport xizmatlari bozori dunyoning qaysi mamlakatlarida yaxshi rivojlangan?
26. Markaziy Osiyo Respublikalaridan qaysi birida transport xizmati ko'rsatish darajasi yuqori?

27. Respublikamizda transport xizmatlarini hozirgi xolati qanday?
28. Respublikamizda transport xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim deb uylaysiz?
29. Xalqaro logistik markazlarda transport xizmati ko'rsatish darajasi qanday?
30. Respublikamizda transport xizmati ko'rsatish darajasini yaxshilash uchun qanday qarorlar qabul qilingan?

3-Amaliy mashg'ulot

Mavzu; Xalqaro taqsimot zanjirlari

Reja:

1. Logistik zanjir tushunchasi uning mohiyati va maqsadi.
2. Yetkazib berish zanjirini rejalashtirish
3. Zamonaviy yetkazib berish zanjirining rivojlanish tendentsiyalari.

3.1. Logistik zanjir tushunchasi uning mohiyati va maqsadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi logistika va ta'minot zanjiri boshqaruviga qiziqish ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Logistikada u bo'ylab moddiy va axborot, moliyaviy va servis oqimlari ta'minotchidan iste'molchi tomon o'tib boradigan logistika zanjiri tushunchasi mavjud.

Logistika zanjiri – moddiy va hamrohlik qiladigan oqimlar bo'yicha chiziqli tartibga solingan hamda tashqi moddiy manbani bitta logistika tizimidan boshqasiga yoki yakuniy iste'molchiga yetkazish bo'yicha logistika operatsiyalarini amalga oshiruvchi logistika tizimi bo'g'inlari to'plami.

Eng oddiy logistika zanjiri ta'minotchi va iste'molchidan iborat bo'ladi. Murakkab logistika tizimlari daraxtsimo strukturaga yoki, masalan, yo'naltirilgan jadval ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin. logistika zanjirining asosiy bo'g'inlari – materiallar, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar xarid qilish va yetqazib berish; mahsulot va xomashyoni saqlash; tovarlar ishlab chiqarish; tayyor mahsulot omboridan tovarni jo'natish; tayyor mahsulot iste'moli hisoblanadi. Logistika tizimining har bir bo'g'ini o'z elementlarini qamrab oladi, birgalikda ular logistikaning moddiy asosini tashkil qiladi.

Integratsiyalangan logistika nuqtai nazaridan to'liq logistika zanjirlari tushunchasini ajratib ko'rsatish mumkin.

To'liq logistika zanjiri – moddiy resurslar ta'minotchisidan tayyor mahsulot yakuniy iste'molchisigacha logistika tizimi bo'g'inlari chiziqli tartibga solingan

yig'indisi. Tabiiyki, real bozor sharoitlarida bunday zanjirlar amalda mavjud bo'lmaydi. Bu logistika vositachilarining ko'p sonli ekanligi, moddiy resurslar ko'p assortimentli ekanligi, taqsimot kanallari tarqoq ekanligi bilan asoslanadi.

SHu sababli amaliyotda odatda «logistika kanali» tushunchasi ko'rib chiqiladi.

Logistika kanali – moddiy oqimlarni muayyan mahsulot turi (mahsulot assortimenti) ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar ta'minotchilaridan yakuniy iste'molchilargacha o'tkazadigan barcha logistika zanjirlari va ularning qismlarini o'z ichiga oladigan logistika tizimi bo'g'inlari tartibga solingan to'plami.

Logistika operatsiyalarini rejalashtirish va logistika tizimi elementlari darajalarini tahlil qilish zarurati uni makrologistika va mikrologistikaga ajratishni belgilab berdi.

Tovarlar va xizmatlar bozorining globallasuvi, shuningdek, axborot texnologiyalaridagi inqilobiy o'zgarishlar, jismoniy ta'minot oqimlarining biznes jarayonlarining majburiy davomiyligi uchun zarur shart sifatida ta'minlashini talab qiladi.

Logistika operatsiyalari bozorda o'zgarishlar va raqobat sharoitlari tufayli tashqi muhit doimiy ravishda o'zgarib turadi.

Ushbu o'zgarishlarga o'z vaqtida va munosib javob qaytarish uchun har qanday kompaniya logistika tizimini muntazam ravishda rejalashtirish, loyihalashtirish va qayta qurish uchun uslubiyatni talab qiladi, bu vaziyatni hisobga olish va uning rivojlanishining ehtimoliy alternativlarini baholash imkonini beradi. Loyiha doirasida global formatdagi logistika sohasida yangi yo'nalish - ta'minot zanjiri loyihasi faol rivojlanmoqda.


Bu logistik tizimlarni yangi turi bo'lib, bunda umumiy xarajatlarni minimallashtirish, daromadni oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish va noaniqlikning tizimga ta'sirini kamaytirish nuqtai nazaridan yangi turdagi logistik tizimdir, bu ta'minot zanjiri boshqaruvi deyiladi.

Yetkazib berish zanjirini samarali boshqaruvini amalga oshirish uchun uning kontseptsyasini balki klassifikatsiyasini yaxshi anglashi zarur⁴.

Xozirgi kunda respublikamiz mutaxassislari yetkazib berish zanjirini boshkarishni rejalashtirish va modellashtirishda bir kator kiyinchiliklarga duch kelmokdalar

Birinchiidan, kompleks, multifaktoriyaviy, statsionar bo'lmagan jarayonlar (materiallar, axborot, moliyaviy va hokazo) ularning tavsiflari va boshqaruv qarorlarini

optimallashtirish, etarli axborot manbalarini, kuchli analitik vositalar va zamonaviy kompyuter texnologiyalarini jalb qilishni talab qiladi.



1 – rasm. Mamlakat iqtisodiyoti shakllari.

Yuqoridagi rasmda iqtisodiyoti shakllari keltirilgan. Bu rasmda mamlakat iqtisodiyoti shakllari uch guruxga bo'lingan, birinchi guruxiga maxsulot ishlab chiqarish kiritilgan, ikkinchi guruxiga ishlab chiqarilgan maxsulotni taqsimlash kiritilgan va uchinchi guruxiga yaratilgan moddiy nematlarni istemol qilish kiritilgan. Ikkinchidan XX-XXI asrlar oraligida logistika va yetkazib berish zanjirini boshkarish nazariyasi koidalarida uzgarishlar buldi.

Innovatsion paradigmning mohiyati ta'minot zanjirlarida biznes jarayonlarning yaxlit ko'rinishiga asoslangan bo'ladi,

Integral logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvining yangi tushunchasi avtomatik tarzda zanjirli kontragentsiyalarning muvaffaqiyatli o'sishiga olib kelmasligi mumkin va modellashtirish va integratsiyalashgan ta'minot zanjiri rejalashtirish jarayoniga asoslangan yondashuv asosida yangi tushunchalar, usullar va modellarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Uchinchidan, ta'minot zanjirida kontragent bo'lgan kompaniyalar faoliyat yuritadigan tashqi muhit yuqori darajadagi noaniqlik va xatar bilan tavsiflanadi.

Noaniqlik va xavf ostida qaror qabul qilish uchun etarli modellashtirish texnikasidan foydalanish talab etiladi.

"Ta'minot zanjiri" kontsepsiyasi Logistika menejmentida ta'minot zanjiri tushunchasi kabi muhimdir

Logistika zanjiri oxirgi mijozlar uchun materiallarni izlash, ishlab chiqarish va jismoniy taqsimlashda ishtirok etadigan bir qator mustaqil kompaniyalardir.


«Yetkazib berish zanjiri» atamasi «Yetkazib berish zanjirini boshkarish» atamasi bilan bir deyarli paytda vujudga kelgan

Yetkazib berish zanjiri bu bir nechta kompaniyalar tomonidan materiallarni oxirgi istemolchi tomoniga xarakatlantirilishi.

Ta'minot zanjiri - bozorga mahsulot va xizmatlarni yetkazib beradigan kompaniyalarning muvofiqlashtirilishi.¹²

Ta'minot zanjiri mijozlarni qoniqtirish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan bosqichlardan iborat.

Yetkazib berish zanjiri uz ichiga uch va undan ortik korxonalarni materiallar va tayor maxsulotlarni oxirgi istemolchiga yetkazib berish uchun jalb etadi. shuni qayd etish lozimki u o`z ichiga oxirgi mijozni oladi.



2 – rasm. Yetkazib berish zanjiri klassifikatsiyasini tuzilishi

Yuqoridagi rasmda yetkazib berish zanjiri klassifikatsiyasining tuzilishi keltirilgan. Ushbu klassifikatsiyaga asosan u uch guruxga ajratilgan, birinchi guruxiga yetkazib berish zanjirining oddiy boskichi kiritilgan, ikkinchi bosqichiga yetkazib berish zanjirining o`rtacha qiyinlikdagi bosqichi kiritilgan va uchinchi bosqichida yetkazib berish zanjiridagi eng qiyin bosqichi kiritilgan.

Iktisodchi olimlarni ayrimlari yetkazib berish zanjirini uzaro sheriklar zanjiri deb ataydilar, ayrimlari esa yetkazib berish zanjirini ishlab chikarish logistikasi va taksimlash logistikasini uzaro boglikligi deb yuritadilar.

Shunday qilib logistik zanjir raqobatbardosh maxsulotni sungi istemolchilarga yetkazib berishda katnashuvchi kuppina jismoniy va yuridik shaxslarni chizikli tartiblangan tizimi xisoblanadi


Ikkinchi karash, logistik zanjir bu-yagona nazorat ostida turgan kandaydir ishlab chikarish eki yetkazib berish tarmogini texnologik va logistik tizimidir. SHunday kilib bu xolatda logistik zanjir – bu logistik kanallarni yunalishlarini kupligi kabi tor ma'noda keladi. Logistik kanal u keng ma'nodagi tushuncha bulib u iktisodiy terminologiyada «Xaridorlardan tarkib topgan ta'minotchi, dalol, tashib beruvchi, sugurtalovchi kabi shaxsiy tartibli tizim» ni uz ichiga oladi. Logistikani bu ikkita kategoriyasi uzaro uzviy boglangan. Logistikani kanali bozor iqtisodiyotida iste'molchining potentsial tanlovini ifodalaydi va tanlovdan so'ng logistika zanjiriga aylanadi.

Ta'minot zanjirlarini tasniflash Ta'minot zanjirining asosiy xarakteristikalarini tovarlarni an'anaviy tashishdan ajratib turadi: bu esa uzaro sherik-kompaniyalar tizimi xisoblanadi; yetkazib berish zanjiri maksadi bulib-uzaro munosabatda bulgan kompaniyalarni yukori darajadagi kushilgan kiymat va daromad olish xisoblanadi.

Yetkazib berish zanjiri xar xil shakldagi mustakil tashkilotlardan tashkil topgan buladi. Xamkorlar kelishigan umumiy koidalarning strategiya va taktikasidan kelib chikib faoliyat olib boradilar; xamkorlikda bozor sigimini urganish va tovar ishlab chikarishni loyixalashtirish;

Xom – ashyo dan boshlab to tayyor maxsulotlarni yetkazib berish zanjiridagi xarakatiga karab uni xarakteri va istemol kiymati uzgaradi- shu bilan birga u kushimcha kiymat xosil kiladi;

Yuklarni yetkazib berishda ishni tashkil kilish va yetkazib berish zanjirini boshkarish – bu xamkorlikdagi axbarot okimlari va material ulchamlarini takomillashtirish xisoblanadi; foyda va tushumlarni uzaro taksimlash.



3 – rasm. Tovarlarini Yetkazib berish davrida logistik zanjirlarini turlari

Quyidagi rasmda tovarlarni yetkazib berish zanjiridagi yetkazib berish vaqti guruxlarga ajratib berilgan. Birinchi guruxiga bozor talabi bo'yicha yetkazib berish vaqti keltirilgan, birinchisi engil bashorat qiluvchi va ikkinchisi qiyin bashorat qiluvchi. Ikkinchi guruxida yetkazib berish uzoqligi bo'yicha tejamkor ta'minot va qo'shma ta'minot guruxlariga ajratilgan. Uchinchi guruxiga yetkazib berish vaqtining qisqaligi bo'yicha tejamkor ta'minot va tez tez yetkazib berish shartlari bo'yicha guruxlarga ajratilgan.

SHuni kayd etish lozimki Respublikamizda hozirgi kunda logistik zanjirni yukorida kursatilgan belgilarini uziga mujassam etgan kategoriyalari asosida yuklarni yetkazib berishni bunday logistik tizimini yaratib bulmaydi. Buning sababi bulib esa biznesni yopikligi, shaffof emasligi, ikki va xatto uch xil buxgalteriya xisobini yuritilishi, davlat organlari va uz sheriklarini aldashga bulgan xarakatlari, korrupsiya va uzining shaxsiy manfaatini ustun kuyishi xisoblanadi.




4 – rasm. Logistik zanjirda omborlar turlari

Yuqoridagi rasmda logistika va tovarlarni yetkazib berishning logistik zanjirida omborlar turlari keltirilgan. Bunda logistik zanjirdagi omborlar turlari to'rtta turga bo'lingan. Birinchisi zaxira omborlari, ikkinchisi tovar moddiy boyliklarini ishlab chiqarish omborlari, uchinchi tayyor maxsulotlar omborlari va to'rtinchisi texnologik omborlar.

Yetkazib berish zanjirini kuyidagi belgilari buyicha sinflash mumkin:

- tizimining kiyinligi va xamkor sheriklarning kupligi;
- Yetkazib berish zanjirini osonligi;
- Yetkazib berish zanjirini kiyinligi;
- Yetkazib berish tizimi;
- bozor talabiga tez javob kaytarish strategiyasi;
- yuklarni kelib chikishi buyicha;

- bir tipli va xar-xil tipli yuklar mavjudligi;
- sanokli, tukiluvchi, suyuq va gazsimon yuklarni mavjudligi;
- yuklarni nomlanishi soni buyicha;
- kupnomenklaturali va bir tipli yuklar mavjudligi;
- yuklar tashish xajmi buyicha;
- 100 ming t/yil xajimli kam okimli yuklar;
- 100-500 ming t/yil xajmiga ega bulgan urta xajmli yuk okimlari;
- 1000 ming t/yil xajmiga ega bulgan doimiy yuk okimlari;
- doimiy va uzgaruvchan;
- yuklar partiyasini transport ulchamlari buyicha;
- kichkina xajmli yuk junatmalari, vagonlarda yuk junatish buyicha, konteneirlarda yuk junatish buyicha yunalishli yuk junatmalari;
- yuk tashishda foydalanilayotgan transport vositasining turi va soni buyicha: tugri, kushma, multimodal, intermodal, ichki, xalkaro, tranzit;
- transportning ustuvor turi buyicha: temir yul, avtomobil suv transporti;



5 – rasm. Taqsimlash soxasidagi omborlar

Yuqoridagi rasmda taqsimlash soxasidagi omborlarning turlari keltirilgan, jumladan yetkazib berish zanjiridagi taqsimlash omborlari, birinchidan yuk omborlari, ikkinchidan taqsimotchi omborlar, uchinchidan oralik ombolar va to‘rtinchisi magistral omborlarga bo‘linadi.

Yuk tashuvlarini turi va tashish texnologiyasi buyicha: transport tarasiga tuki shorkali, aloxida sanokli joylarda, transport paddonlari va paketlarida, konteynerlarda (urta xajmli, kata xajmli, maxsuslashtirilgan, izotermik, termik);

3.2. Yetkazib berish zanjirini rejalashtirish

Logistik zanjir faoliyati bozor talabini bashorat kilish bilan boshlanadi. Talabni rejalashtirishning past darajadagi aniqligi tufayli tashkilot keng ko'lamda xatolarga duch kelishi mumkin, mijozlarga yomon xizmat ko'rsatishni boshlashi va xarajatlarning ortishi ham mumkin.

Yoki aksincha, yuqori sifatli talab rejalarini ishlab chiqadigan tashkilotlar asosan mijozlarni tez qoniqtirish va xarajatlar samaradorlikning yaxshi muvozanatidan foyda olishadi.

Bu, ayniqsa, iste'mol tovarlari sektoridagi korxonalar uchun juda muhimdir, chunki assortiment matritsasi mingdan ortiq narsalarni chetlab o'tadi.

Bashoratni noaniqligi kata yo'qotishlarga olib keladi: xom-ashyo va materiallardan tuliq foydalanmaslikka, ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarga, savdodagi yo'qotishlarga va boshqa ikkilamchi yo'qotishlarga (tovar ishlab chiqarish jarayonlarini to'xtashiga, tayyor maxsulotning ortiqcha zaxirasi yig'ilib qolishiga).

Agarda bozor sigimini bashorati kamaytirilgan bo'lsa, tovar narxini keskin oshib ketishi va bozorda ushbu tovar kamyob bulib kolishiga, agarda bozor sig'imini bashorati ko'patirilgan bo'lsa unda bozorda tovarni narxi tushib ketishiga va bozorda tovarning ortiqcha xajmi paydo bo'lishiga olib keladi.

Uzoq ishlab chiqarish aylanishi, talabning mavsumiy o'zgarishi, keng mahsulot qatori va mahsulotning hayot muddati qisqarishi prognozlardagi xato ehtimolligini oshiradi.

Talab rejasi

Iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan jismoniy mahsulotlar yoki xizmatlarni yetkazib berish bilan shug'ullanadigan deyarli har qanday tashkilot tomonidan talab rejasi ishlab chiqiladi.

Quyida fikrimni davom etishdan oldin aytib utmoqchimanki, bashorat bustatistika asoslangan kelajakda talabning dastlabki baholanishi, talab rejasi esa - izchil tahlil va bashorat natijalarini tasdiqlash asosida kelajakdagi talabning baholashdir. Bashoratlash rejalashtirishni bosqichlaridan biri xisoblanadi.⁵

Talab rejasini aniqligi: belgilangan vaqtda ta'minotchiga yetkazib berishga; belgilangan joyda belgilangan xajimda ega bo'lishi; asoslangan tezkor qarorlar qabul qilish; moliyaviy rejalashtirish talabga javob berishini ta'minlashga xizmat qiladi.

To'g'ri va ishonchli talab rejasiga ega bo'lishning bir nechta sabablari bor:

Buyurtmalarni bajarishni meyorlashtirilmagan vaqti

Mijozlarga xizmat ko'rsatish muddati iste'molchi kutishga tayyor bo'lgan paytda mahsulotni buyurtma qilish va mahsulotni qabul qilish davri; ko'pincha uning muddati tashkilotni ishlab chiqarish yoki tarqatish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ancha past buladi.

Ushbu muddatni kamaytirish uchun odatda korxonalar juda ko'p xarajatlar qiladilar.

Ishlab chiqarish jarayonlarini o'zgartirish va ishlab chiqarish vaqtini qisqartirishga qaratilgan harakatlar, tarqatish vaqtini qisqartirish uchun bir qator operatsiyalarni iste'molchiga yaqinroq joylashtirish imkonini beradi.

Ushbu vazifani hisobga olgan holda, talabning rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadi mahsulotning vaqtida har qanday vaqtda mavjudligini kafolatlash va iste'molchi kutishga tayyor bo'lgan davrda yetkazib berilishi mumkin.

4-Amaliy mashg'ulot

Mavzu; Xalqaro logistika infratuzilmasi

REJA;

1. O'zbekiston logistika samadorligining o'rni.
2. O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy temir yo'l loyihasi .
3. O'zbekistonni chetlab o'tayotgan transport yo'laklari bilan birlashtirishning asosiy yo'nalishlari .

4.1 O'zbekiston Respublikasi tashqi Iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri mamlakatimiz va Markaziy Osiyo transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish sohasida strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish xisoblanadi.

Binobarin, Prezidentimizning parlamentimizga Murojaatnomasida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuklarini jahondagi hamda mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqadigan ishonchli transport va tranzit yo'laklarini izchil shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi qayd etilgan edi. O'tgan yilning dekabr oyida Prezidentimiz qarori bilan 2018 — 2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash bo'yicha kompleks dastur qabul qilindi. Mazkur dasturda O'zbekiston — Turkmaniston — Eron, O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy xalqaro transport yo'laklari, shuningdek, Eron (BandarAbbos, CHababar) va Pokiston (Gvadar, Karachi) dengiz portlariga

chiqish uchun transafg'on transport yo'lagini qurish bo'yicha erishilgan kelishuvlarni jadallik bilan hayotga tatbiq qilishga alohida ahamiyat berilgan.

Qayd etish kerakki, 2017 yilning mart oyida O'zbekiston va Turkmaniston rahbarlarining uchrashuvi yakunlari bo'yicha O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — O'mon transport-kommunikatsiya yo'lagining muhim uchastkasini amalga oshirishga kirishildi: Amudaryo orqali Turkmanobod — Farob temir yo'li hamda avtomobil yo'li ko'priklari ochildi. Natijada konteynerlarda yuk tashish hajmi 2,5 baravar ko'paydi. O'zbekiston — Turkmaniston — Kaspiy dengizi — Bokuga chiqish orqali Janubiy Kavkaz — Tbilisi — Kars yo'nalishi bo'yicha to'g'ridanto'g'ri transport-kommunikatsiya magistralini yaratish g'oyasini amalga oshirish hamda Gruziya, Turkiya, Ruminiya va boshqa davlatlarning Qora dengiz bo'yidagi portlariga chiqish imkoniyati ochilmoqda.

Bundan tashqari, 20 yillik muzokaralardan so'ng Xitoy va Markaziy Osiyoni Qirg'iziston orqali bog'laydigan temir yo'l qurilishida ham jiddiy siljish yuz berdi. Misol uchun, 2017 yilning 25 — 27 dekabr kunlari XXR, Qirg'iziston va

O'zbekiston delegatsiyalarining Toshkentda bo'lib o'tgan uch tomonlama uchrashuvida O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy loyihasini jadal ro'yobga chiqarishga qaratilgan amaliy qaror qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018 yilning oxiriga qadar yo'nalishni aniq belgilash, texnik-iqtisodiy asoslantirishni ishlab chiqish hamda uni moliyalashtirish masalalarini hal qilish kutilayapti.

Ushbu yo'lak Xitoydan yuklarni eng qisqa masofa bo'ylab Markaziy Osiyo orqali Janubiy Osiyo hamda YAqin SHarq mamlakatlariga, Transkavkaz yo'lagi orqali Evropaga Yetkazib berish imkoniyatini yaratadi.

Loyihaning dastlabki parametrlariga ko'ra, yuklarni konteynerlar orkali Yetkazib berish muddati 7-8 sutka, SHarqiy Osiyodan yaqin sharq va Janubiy Evropa mamlakatlarigacha bo'lgan masofa esa 900 kilometr qisqaradi.

SHu o'rinda Afg'oniston Prezidenti Ashraf Fanining 2017 yil dekabr oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog'ida imzolangan Mozori SHarif — Hirot temir yo'lini qurish to'g'risidagi bitimni alohida qayd etish lozim. Ushbu yo'lak ilgari O'zbekiston tomonidan qurilgan birinchi transport yo'lagi — Hayraton — Mozori Sharif temir yo'lining davomi hisoblanadi. 2014 yilda AQSH Moliya vazirligi Osiyo taraqqiyot bankini Afg'oniston Islom Respublikasi iqtisodiyotini tiklash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan mazkur tarixiy loyihani amalga oshirishni moliyalashtirishga ko'maklashgani uchun taqdirladi. Bugungi kunda ushbu magistral orqali Afg'oniston importining qariyb yarmi olib kirilmoqda. Ular orasida insonparvarlik yuklarining hajmi katta o'rin tutadi.

Mazkur temir yoʻlining yotqizilishi va uning samarali faoliyat olib borishiga erishish Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Afgʻonistonning xalqaro transport va savdo tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyasiga xizmat qiladi.

Birinchidan, u Afgʻonistonni ijtimoiy-iqtisodiy tiklash boʻyicha xalqaro saʼy-harakatlarga haqiqiy hissa qoʻshishga zamin yaratadi. Masalan, Osiyo taraqqiyot bankining hisob-kitoblariga koʻra, Hayraton — Mozori SHarif temir yoʻli foydalanishga topshirilishi natijasida 1,2 ming nafarga yaqin kishilar ishga joylashtirildi. Temir yoʻl boʻylab afgʻonlarning bandligi oʻsish surʼatlari yiliga 10-11 foizni tashkil etdi va natijada 2008 yilgi koʻrsatkichga nisbatan ikki baravar oshdi.

Bundan tashqari, Kobul tovar ayirboshlash hajmi va yuklar tranzitini koʻpaytirishdan qoʻshimcha daromad manbalariga ega boʻlish hisobiga tashqi donorlik yordamiga qaramlikdek oʻtkir muammoni kamaytirish imkoniyatiga ega boʻladi. Bugungi kunda bunday yordam mamlakat YAIMning qariyb 90 foizini tashkil qiladi.

Ekspertlik baholariga qaraganda, Mozori SHarif — Hirot temir yoʻli loyihasini amalga oshirish natijasida Eronning CHabahr portiga toʻgʻridan-toʻgʻri qatnovning ochilishi Afgʻoniston tashqi savdo aylanmasini 50 foiz koʻpaytirish imkonini beradi. Dastlabki hisob-kitoblarga koʻra, temir yoʻl liniyasi qurilishi yakunlanganidan soʻng birinchi yilda konteynerlar orkali yuklar tranziti hajmi taxminan 5,3 million tonna, istiqbolda esa yiliga 15 million tonnaga etishi mumkin.

Ikkinchidan, koʻzda tutilgan loyihaning hayotga tatbiq etilishi afgʻon tinchlik jarayoniga jalb qilingan mamlakatlar oʻrtasida mintaqaviy konsensusga erishishda yangi bosqich boʻladi hamda ularning oʻzaro raqobati uchun emas, balki hamkorligi uchun xolis sharoit yaratadi. Loyihaning roʻyobga chiqarilishidan Afgʻonistonning qariyb barcha qoʻshnilari, avvalambor, Hindiston, Eron va

Pokiston iqtisodiy naf koʻradi.

Eronning CHabahr hamda Bandar-Abbos portlariga olib chiqadigan Mozori SHarif — Hirot transport yoʻlagining yaratilishi Hindistonga Afgʻoniston, Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlari bozorlariga eng qisqa yoʻllar bilan chiqish imkonini beradi. Bugun toʻgʻridan-toʻgʻri transport yoʻllarining yoʻqligi bois Hindiston hamda Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi tovar ayirboshlash hajmi mavjud salohiyatdan juda past boʻlib qolmoqda, yaʼni 1,1 foizni ham tashkil qilmaydi.

Hindiston CHabahr port infratuzilmasini rivojlantirishga 500 million dollar investitsiya kiritdi. CHabahr — Zahedan — Zaranj Janubiy savdo yoʻlagini rivojlantirish doirasida Eron — Afgʻoniston temir yoʻli qurilishida ishtirok etmoqda.

Bu istiqbolda Afg'onistonning Hirot, Qandahor, Kobul va Mozori SHarif singari yirik shaharlarini birlashtiradigan halqa yo'liga chiqish imkonini beradi⁶.

Ushbu yo'lining ishga tushirilishi Eronning port infratuzilmalari tranzit salohiyatidan faol foydalanish imkonini beradi hamda Tehronning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik munosabatlariga yangi ruh bag'ishlaydi. Binobarin, Tehron Afg'oniston hududi orqali o'tadigan transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishda faol qatnashmoqda. 2017 yilning sentyabr oyida Eron — Afg'oniston temir yo'lining mazkur mamlakatdan o'tadigan uchastkasi — Xaf shahridan Afg'oniston bilan chegaradosh SHamti shahrigacha bo'lgan qismi qurib bitkazildi. YAqin vaqt ichida Eronning Xaf shahridan Hirotgacha temir yo'l yotqizishni yakunlash rejalashtirilayapti.

Mozori SHarif — Hirot liniyasi, bundan tashqari, Markaziy Osiyo — Pokiston yo'nalishida ham yuklarni tashishga sharoit tug'diradi. Bunda Eron va Pokistonning Zahedan — Kvetta — Karachi temir yo'l tarmoqlaridan foydalanish mumkin bo'ladi. Hozirgi vaqtda Pokiston tomoni Peshavor — Jalolobod temir yo'li qurilishini faol ilgari surayapti. Bu kelajakda Afg'onistonning yaxlit temir yo'l tizimi bilan bog'lanib, Pokistonning Karachi portiga to'g'ridan-to'g'ri yo'l ochadi. Pokiston Temir yo'llar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Jahon banki ushbu loyihaning texnik parametrlariga qiziqish bildirgan.

Uchinchidan, O'zbekiston — Afg'oniston tranzit-infratuzilma salohiyatidan foydalanish istiqbollari Markaziy Osiyo davlatlariga Hind okeani savdo yo'llariga chiqish imkonini yaratadi. Mintaqa, o'z jug'rofiy joylashuviga ko'ra, Evroosiyo qit'asida qariyb barcha — Janub — SHimol, SHarq — garb yo'nalishlarida muhim quruqlik magistraliga aylanish uchun yuqori darajada transport-tranzit salohiyatiga ega.

Transafg'on transport-kommunikatsiya loyihalari barpo etilishi mintaqadagi boshqa muhim loyihalar, jumladan, O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Ummon, O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy xalqaro transport yo'laklari bilan uyg'un bo'lib, eng qisqa masofali qit'alararo transport yo'laklarini rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston — Afg'oniston — Eron o'rtasidagi muqobil quruqlik yo'laging uzunligi 3,5 ming kilometr bo'lib, Xitoydan Erongacha bo'lgan mavjud dengiz yo'lidan (13,8 ming kilometr) to'rt

baravar qisqadir. O‘z navbatida, Mozori SHarif — Hirot temir yo‘li qurilishi Afg‘onistondan Xitoyga Andijon orqali 3 kun ichida borish imkonini beradi.⁷

SHuni qayd etish kerakki, mazkur magistral ikki yo‘nalishdagi, ya’ni MDH va Boltiq mamlakatlari — O‘zbekiston — Afg‘oniston — Eron portlari — Fors ko‘rfazi va YAqin SHarq mamlakatlari hamda Fors ko‘rfazi mamlakatlari — Afg‘oniston — O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy — SHarqiy va Janubi-

SHarqiy Osiyo mamlakatlari yo‘nalishidagi yangi temir yo‘l yo‘laklarining muhim qismi sanaladi.

O‘zbekistonning yuqori darajadagi transport-tranzit salohiyati sharoitida yuqorida qayd etilgan loyihalarning iqtisodiy ustuvorligi yanada ayonlashadi.

SHubhasiz, temir yo‘llar qurilishining texnik parametrlarini, xavfsizlikni ta‘minlash hamda ularni moliyalashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish masalalarini kelishish nuqtai nazaridan katta hajmdagi ishlarni bajarish kerak bo‘ladi.

YAngi temir yo‘l transporti infratuzilmalarini shakllantirish bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishilganini Markaziy Osiyo mintaqasining tranzit pozitsiyasi kuchayishi va Markaziy Osiyo hamda Afg‘onistonning dunyo iqtisodiyotiga integratsiya bo‘lishi, mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy salohiyati hamda farovonligini oshirishda navbatdagi dolzarb qadam sifatida ko‘rish lozim. Bunda mazkur tashabbuslarning amaliy ro‘yobga chiqarilishi Markaziy Osiyoni nafaqat xalqaro tranzit bo‘g‘iniga, balki Janubiy Osiyo, Osiyo — Tinch okeani havzasi mintaqasi, MDH, Evropa va YAqin SHarq o‘rtasidagi transkontinental iqtisodiy makonning muhim bo‘g‘iniga aylanishiga ham zamin yaratadi.

Bularning barchasi pirovardida O‘zbekistonning barcha yirik tashqi iqtisodiy sheriklari bilan munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi hamda rivojlangan davlatlar, Hindiston, Eron, Pokiston singari jadal sur‘atlar bilan ravnaq topayotgan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytiradi.

Jumladan, O‘zbekiston va Qozog‘iston chegaraoldi hamkorligi xalqaro markazi, transport-logistika markazi barpo etishni rejalashtirmoqda

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘z chegaraoldi hududlarida xalqaro chegaraoldi markazi, transport-logistika markazi (quruq port) qurishni rejalashtirmoqda. Bunga

2018 yil 14 mart kuni ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha qo‘shma hukumatlararo komissiya majlisida oydinlik kiritildi.

Qozog‘iston Respublikasi xukumati xabariga kura 2017 yil yakunlari bo‘yicha temir yo‘l transportida uzaro konteyner tashuvlari hajmi 8 foizga oshib, 20,5 million tonnadan ortikni tashkil etdi. 2018 yilning ikki oyi davomida tashuvlar hajmi 2017 yilning shu davriga nisbatan 44 foizga oshgan.

4.2. O‘zbekiston Respublikasida yuk tashish tizimini rivojlantirish strategiyasi

O‘zbekistonning strategik vazifasi transit’aviya yuk tashishga doir logistika sxemalarida bog‘lovchi bo‘g‘inga aylanishdan, shu bilan bir vaqtda qo‘shni mamlakatlar bilan yuk tashish bo‘yicha o‘zaro samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan va yuk tashishdan tushadigan daromadlarni eksport tushumlarining eng muhim qismlaridan biriga aylantirishdan iborat. Mamlakatning ichki transport tashish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsayotgan, tranzit salohiyatining rivojlanishini sekinlashtiruvchi hamda transport-tranzit salohiyatini to‘laligicha namayon qilishi uchun to‘sqinlik qilayotgan bir qancha sabablar mavjud.

O‘zbekiston hududida xalqaro transport yo‘laklarining joylashganligi ma’muriy markazlarga bog‘lanadi. Bunday eng yirik markaz Toshkent shahridir. Bunda o‘tkazish punktlari muayyan qismining etarli darajada quvvatga ega emasligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda, bu ularning texnik jihatdan zaif jihozlanganligi, shu jumladan bojxona xizmatida AKTdan foydalanish bilan izohlanadi. Bu vakolatli organlar tomonidan tranzit yuklarni tekshirish tartiblarining cho‘zilib ketishiga, avtotransport vositalarining chegarada bo‘sh turib qolishiga olib kelmoqda. Xalqaro avtomobil yuk tashish hajmlari oshishi munosabati bilan ushbu o‘tkazish punktlarini katta yuk ortilgan avtotransportda kesib o‘tish 5 sutkagacha cho‘zilmoqda, bu esa mamlakat avtomobil yo‘laklarining tranzit jihatidan jalb etuvchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston hududi orqali o‘tadigan asosiy transport yo‘laklari zarur infratuzilmaga to‘liq ega emas, istiqbolda xalqaro transport magistrallari maqomini olish imkoniyatiga ega bo‘lgan ayrim uzun yo‘nalishlarda esa infratuzilma endi yaratilmoqda.

Tashqi savdo operatsiyalarini rasmiylashtirish tartib-taomillarining murakkabligi tashish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, eksport qilish va import qilish bilan bog‘liq hujjatlar soni Xitoyda tegishli ravishda 8 ta va 5 tani, Eronda 7 ta va 11 tani, Qozog‘istonda 10 ta va 12 tani, Qirg‘izistonda 9 ta va 10 tani, Rossiyada 9 ta va 11 tani, Tojikistonda 11 ta va 12 tani, O‘zbekistonda 11 ta va 13 tani tashkil etadi⁵. Bundan tashqari, bojxonada tahdidlarni boshqarishni tashkil etish bilan bog‘liq masalalar ham mavjud bugun ham kirayotganda, ham chiqib ketayotganda yuk va yo‘lovchi oqimining deyarli 100 foizi tekshiruvdan

o'tkazilmoqda. Bu bojxona tartibtaomillariga ketadigan vaqtning cho'zilishiga hamda eksport qilish, import qilish va tashishning kechiktirilishiga olib kelmoqda.

Yetkazib berish zanjirining tarqoqligi, Yetkazib beruvchidan qabul qiluvchigacha tovarlarni ortish va yuklash bo'g'inlarining ortiqchaligi logistika tizimiga xosdir.

Iqtisodiy taraqqiyot vositasi rolini bajarish uchun Respublikamiz transport sektorini jiddiy isloh qilish hamda katta hajmdagi investitsiyalarni parovoz va vagonlarni yangilashga sarflash hamda avtomobil, temir yo'l va aviatsiya transporti infratuzilmasini rivojlantirish talab etilmoqda.

Transport xizmatlari narxlarining oshish sur'atlarini pasaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur.

2030 yilga borib avtomobil transporti bo'yicha yuk tashish hajmlari yiliga o'rtacha 9,4 foizga yoki umuman 4,6 foizga o'sishi prognozlaridan kelib chiqqan holda yuk avtomobillari sonini kamida 120 mingta avtomashinaga ko'paytirish talab etiladi. Har yili safdan chiqayotgan avtomobillarni (5%) almashtirish zarurligini inobatga olgan holda bu 2030 yilgacha har yili qariyb 8 ming avtomobil xarid qilinishini talab qiladi. Yillik investitsiya qariyb 960 mln. dollarni yoki 2030 yilgacha umuman 14,4 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak.

Xususiy sektor yuk avtomobillariga investitsiyalar kiritishning bosh manbasi bo'lishi lozimligi tufayli bu vazifani hal etish quyidagilar orqali yuk avtomobillari saroyini yangilash uchun shart-sharoitlar va rag'batlantiruvchi omillar yaratishga doir bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishni nazarda tutadi:

zamonaviy avtotransport vositalarini xarid qilish uchun uzoq muddatli bank kreditlarini berish tizimini takomillashtirish mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan modeldagi yuk avtomobillarini import qilishda olinadigan boj to'lovlarini kamaytirish;

yoqilg'idan samarali foydalanish standartlarini va avtomobillardan ishlangan gazlarni chiqarish standartlarini qattiqashtirish orqali avtomobillar saroyini yangilash uchun normativ bazani takomillashtirish va rag'batlantiruvchi omillarni yaratish.

Umuman olganda, yuk avtomobillari saroyining yangilanishi va ko'p yuk ortilgan avtomobillar ulushining oshirilishi (avtopoezdlarni joriy etish hisobiga yuk ko'tarish qobiliyati oshirilishi) avtomobilda yuk tashish tannarxini 15-28 foizga pasaytirish imkonini beradi. Narxlar pasaytirilganda DAK uchun yuk aylanmasini oshirishga doir omillar yaratilishi:

tariflarni belgilash/indeksatsiyalash prinsiplarini o'zgartirishni va bosqichma-bosqich yangi tarif tizimiga o'tishni, tuzatish koeffitsientlari 6 sonini kamaytirishni, temir yo'l orqali tashishni har tomondan mablag' bilan ta'minlash turlarini kamaytirishni talab qiladi;

lokomotiv va vagonlariga ega bo'lgan temir yo'l transportida kishlok xujaligi maxsulotlarini tashishga mo'ljallangan xususiy kompaniyalar tashkil etilishi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali temir yo'l orqali yuk tashish sohasida raqobat muhitini shakllantirishni talab qiladi.

Transport va logistika tizimining tezkorligi va ishonchliligini oshirish:

avtomobil yo'llari va yo'l bo'yidagi infratuzilmani rivojlantirishni talab qiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030 yilgacha yo'l qurilishiga sarflanadigan sarmoyalar hajmi qariyb 19,3 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak;

2030 yilgacha elektr energiya bilan ta'minlangan temir yo'llar ulushini 45 foizga etkazish talab qilinadi. Buning uchun har yili o'rtacha 178 km temir yo'lni elektr energiya bilan ta'minlash zarur, sarmoyalar hajmi esa 5,34 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak. 2030 yilgacha lokomotiv va vagonlarni yangilash uchun 1,2 mlrd. dollarlik sarmoyalar sarflash zarur.

Umuman olganda, ushbu investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishning o'rtacha tezligini soatiga 70-80 kilometrga, temir yo'l orqali harakatlanishning o'rtacha tezligini soatiga 70-100 kilometrga etkazish imkonini beradi.

Konteynerda tashilgan yuklarning transportga sarflanadigan to'lovlarini 10 foizga kamaytirish uchun konteynerda tashishni 25-30 foizga oshirish zarur. Buning uchun «Uztemiryulkonteyner» AJ konteynerlari saroyini 5 mingta (40 fut.) konteynerga ko'paytirish zarur, bu esa qariyb 22,5 mln. dollar mablag' kiritishni talab qiladi.

Quyidagilar orqali transport-logistika xizmatlari segmentini rivojlantirish uchun mintaqalarda multimodal transport- logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish lozim:

yuk tashish, intermodal va multimodal yuk tashish normativ hamda huquqiy bazasini, texnik va texnologik reglamentini hamda standartlarini, logistika markazlarini, transport-ekspeditorlik faoliyatini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish; multimodal tashishlar samarali bo'lishini ta'minlash uchun axborot bazalarini (bojxona, soliq, statistika va boshqa bazalarni) birlashtirish; bojxona

logistika markazlarining milliy tarmog'ini shakllantirish. Ularda transport-logistika operatsiyalari kamida 3 PL darajada bo'lishi lozim.

Mamlakatning transport-tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun transport yo'nalishlarining diversifikatsiyalanishini, imkoniyatlarning samarali ishga solinishini ta'minlash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. «O'zbekiston Respublikasida xalqaro avtomobilda yuk tashish to'g'risida» gi va «O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yuklarni o'tkazish to'g'risida» gi kabul kilingan qonunlarni xayotga tadbik etish. Ushbu qonunlarda xorijiy davlatlar avtomobil vo sitalarining mamlakatimizga kirishi, mamlakatimizda bo'lishi va undan chiqib ketishi shartlarini tartibga solish hamda engillashtirish uchun avtomobilda xalqaro yuk tashish va yuklarni o'tkazish, tranzit yuk o'tkazuvchilarning huquqiy maqomi masalalari tartibga solinganli diqqatga sazovor.

7 -jadval

O'zbekistonning transport tizimini O'zbekistonni chetlab o'tayotgan transport yo'laklari bilan birlashtirishning asosiy yo'nalishlari

№	O'zbekistonni chetlab o'tadigan yo'nalish	Yo'nalishlarni birlashtirishga doir loyihalar		
		Nomi	Uzunligi	Qiymati
1	«G'arbiy Evropa – G'arbiy Xitoy»	«Toshkent-CHimkent» avtomobil yo'lini modernizatsiya qilish	150 km	300 mln. doll.
2	«Uzen-Qizilqiya-Bereket-Etrek-Gorgan» Kaspiy dengizi transport yo'lagi	«O'zbekiston-Turkmaniston- Eron-Ummon transport yo'lagi loyihasini amalga oshirish	2800 km	Aniqlanmoqda
3	Turmaniston va Afg'oniston o'rtasidagi «Imamnazar-Atamirat-Andxoy-Hirot» temir yo'li	«O'zbekiston temir yo'llari» DAK kuchi bilan «Mozori SHarif - Andxoy» temir yo'l uchastkasini qurish.	120 km	Qariyb 170 mln. dollar
4	Qashg'ardan Erongacha Qirg'iziston, Tojikiston va Afg'oniston orqali o'tadigan temir yo'l	«O'zbekiston-Qirg'iziston- Xitoy» temir yo'lini qurish loyihasini amalga oshirish uchun asos sifatida elektr	150 km	2,7 mlrd. doll.

	hamda avtomobil yo‘li	energiya bilan ta’minlangan «Angren-Pap» temir yo‘l liniyasini qurish		
--	-----------------------	---	--	--

Yuqoridagi jadvalda aslini olganda, bundan avval ham «Ipak yo‘li» loyihalari doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi turli katta davlatlarning e’tibori ostida bo‘lib keldi. AQSH, Rossiya, Hindiston, Evropa Ittifoqi, Turkiya hududiy hamkorlik loyihalarini o‘rtaga tashlab kelyapti. Biroq bu loyihalar katta infrastruktura loyihalarini ko‘zda tutmagan. Ko‘plari qog‘ozda qolib ketgan desak, mubolaga qilmagan bo‘lamiz.

Xo‘sh, Xitoy hukumati tomonidan o‘rtaga tashlangan bu safargi «Ipak yo‘li» loyihasini biz nega birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatladik? Mazkur loyiha quruqlikning qog‘ozda joylashgan O‘zbekiston uchun nimasi bilan jozibali?

Avvalo shuni aytish kerakki, 2013 yilda mazkur tashabbus e’lon qilinganidan keyin Xitoy o‘zining tashqi investitsiya va savdo aloqalarining hammasini «Bir makon, bir yo‘l» bayrog‘i ostida jamladi. BMBY Xitoyning rasmiy tashqi iqtisodiy siyosati maqomiga ko‘tarildi va hatto yaqinda o‘zgartirilgan XXR konstitutsiyasida ham o‘z aksini topdi. Endi O‘zbekiston-Xitoy iqtisodiy aloqalarini BMBY tashabbusi doirasida tahlil qilsa ham bo‘laveradi.

O‘zbekiston 1991 yildan boshlab XXR bilan iqtisodiy aloqalarni yuritib kelyapti. Xitoy O‘zbekistonning eng yirik tijoriy hamkorlaridan biri va mana bir necha yildirki, Xitoy O‘zbekiston uchun eng yirik xorijiy investor. 2017 yilning o‘zida savdo aylanmasi hajmi 5 milliard AQSH dollariga teng kelgan bo‘lsa, tomonlar bu hajmni 2020 yilga etib ikki baravar oshirishni ko‘zlayapti.

Xitoy shirkatlari yurtimizda katta investitsiya bitimlari tuzishga erishishgan. Masalan gaz va uran qazib olish bo‘yicha jami 15 milliard AQSH dollarlik shartnomalar imzolangan. Qo‘shma korxonalar soni 700dan ko‘p bo‘lib, bunda Xitoy investitsiyasi jami 8 milliard AQSH dollaridan [oshdi](#).

O‘zbekiston hukumati BMBY loyihasi e’lon qilingan ilk kunlaridanoq uni qo‘llab-quvvatlashini bildirgan. Natijada «Ipak yo‘li» Iqtisodiy makoni qurilishidagi hamkorlik O‘zbek-Xitoy xalqaro aloqalarining asosiy yo‘nalishiga [aylandi](#). SHu sababli, Xitoy tashkil etgan ilk global moliya instituti – Osiyo infrastruktura banki va Investitsiya bankida O‘zbekiston tashkil etuvchi sifatida qatnashdi va uni faol qo‘llab-quvvatladi.

Prezidentimiz 2017 yil may oyida BMBYning 1-Forumi uchun Pekinga davlat tashrifi bilan bordi va XXRning eng yirik davlat shirkatlari va banklari bilan muzokaralar olib bordi. Natijada jami qiymati 22 milliard AQSH dollarlik 100dan ziyod bitimlarga erishildi. Tashrif doirasida taraflar qo'shma deklaratsiya e'lon qilishgan va unda quyidagi muhim masalalar joy olgan:

O'zbekiston va Xitoy o'rtasida 2009 yil 14 oktyabrda imzolangan uzoq muddatli savdo bitimi doirasida O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, tabiiy resurslarini va energiya mahsulotlarini Xitoy bozoriga eksport qilishga tayyor;

tomonlar Xitoy taraqqiyot banki va Xitoy Eksimbanki O'zbekistondagi turli infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlaydi;

tomonlar yuqori texnologiyali qo'shma korxonalarini rag'batlantirish va tabiiy resurslar bilan bog'liq bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan sarmoyaviy hamkorlik to'g'risida kelishib oldilar;

tomonlar xalqaro avtomobil transporti bitimi tuzilganini alohida e'tirof etish bilan birga, o'rtadagi savdo munosabatlarini mustahkamlash uchun bitim ahamiyatini alohida ta'kidladilar;

tomonlar «O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy» temir yo'l loyihasi bo'yicha muzokaralarni tezlashtirish muhimligini [ta'kidladilar](#).

Hamkorlikning amaliy natijasi o'laroq, BMBY tashabbusining 1-Forumidan uch oy o'tib, 2017 yilning avgust oyida prezident SHavkat Mirziyoev Osiyo infrastruktura va investitsiya banki rahbari Jin Liqunni Toshkentda qabul qildi. Tomonlar O'zbekistondagi bir qator loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikni muhokama qildilar. 2,7 milliard AQSH dollari miqdoridagi ushbu loyihalarga suv xo'jaligi ob'ektlarini modernizatsiya qilish, energetika infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish, temir yo'llarni elektrlashtirish, poytaxt metro tarmog'ini kengaytirish kiradi.

O'zbekistonning maqsadi nima?

Imtiyozli kreditlardan foydalanish, Xitoy ishbilarmonlik majmualarini ishga tushirish, mahalliy firmalarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, o'zbek mahsulotlari uchun muqobil bozorlarni topish – O'zbekiston hukumatining asosiy [maqsadlari](#). Bundan tashqari, tashqi savdoni rivojlantirish, qo'shimcha qiymatli o'zbek mahsulotlarini BMBY loyihasi yoqasida joylashgan mamlakatlarga etkazishda loyiha resurslaridan foydalanish ham maqsad qilingan.

Transport infratuzilmasi bo'lmagan, dunyo portlariga chiqish uchun kamida ikkita davlatni kesib o'tishi lozim bo'lgan O'zbekiston uchun mazkur loyihada

ishtirok etish Evropa Ittifoqi, YAqin SHarq va Xitoy kabi yirik global bozorlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvga yordam beradi.

BMBYga qo‘shilish orqali O‘zbekiston hukumati savdo yo‘llarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini qo‘lga kiritishi mumkin. Ayniqsa, «Ipak yo‘li» Iqtisodiy makonining uchta trans Evroosiyo iqtisodiy yo‘laklari orasida Xitoydan Markaziy Osiyoga, keyin Rossiya orqali Evropaga (Boltiq dengiziga qadar) olib boradigan iqtisodiy yo‘lagi va Xitoydan Markaziy Osiyo va G‘arbiy Osiyo orqali Fors ko‘rfazi va O‘rta Er dengizga qadar cho‘zilgan yo‘llar ahamiyatlidir.

«Bir makon, bir yo‘l» tashabbusi doirasida qurilgan Qamchiq tunneli:

1. Infratuzilma. O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy temir yo‘l loyihasi

O‘zbekiston Respublikasi 2016 yilda Xitoy Eksimbankidan 455 million AQSH dollari miqdorida infratuzilma kreditini jalb qilgan holda sharqiy O‘zbekistonning tog‘li qismida 19,2 km uzunlikdagi Kamchiq tunnelini qurishga muvaffaq bo‘lgandi. 2016 yil iyunida O‘zbekiston va XXR rahbarlari ishtirokida Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li va Qamchiq tunnelining ochilish marosimi o‘tkazildi. Uni XXRning China Railway Group kompaniyasi amalga oshirgan. Ish bu bilan to‘xtamagan, O‘zbekiston qo‘shni Qirg‘iziston bilan birga XXRga «O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy» temir yo‘l loyihasini BMBY doirasida qurish taklifi bilan [chiqdi](#).

Ta’kidlash joizki, ushbu loyiha Xitoy tomonidan emas, balki O‘rta Osiyo davlatlari tomonidan, BMBY e‘lon qilinishidan oldin taklif [qilingan](#). O‘zbekiston-Xitoy o‘rtasidagi qo‘shma bayonotga ushbu loyihaning qo‘shilishi Prezident Mirziyoevning diplomatik yutug‘i sifatida ko‘rilishi mumkin. Biroq Xitoy va sobiq sovet ittifoqi respublikalari temir yo‘llari relslari enining turliligi ushbu temir yo‘li liniyasi qurilishi 20 yilga kechiktirilishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi loyihalardan tashqari, davlatimiz Osiyo Infratuzilma va investitsiya bankiga o‘tgan yili boshida Buxoro-Urganch-Xiva temir yo‘li elektrlashtirilishi bo‘yicha loyihani moliyalashtirish uchun ariza [topshirgan](#). Loyiha 3 bosqichdan iborat bo‘lib, Buxoro-Miskan, Miskan-Urganch va Urganch-Xiva yo‘nalishlari uchun jami 340 million AQSH dollari [so‘ralgan](#). Agar u amalga ohsa, ushbu shaharlar orasidagi qatnov tezlashadi, turistlar harakati engillashadi va yuk tashish ishlari osonlashadi. Hozircha ushbu loyihani bank kengashi qachon tasdiqlanishi noma’lumligicha qolmoqda. Bundan tashqari, Xitoy tomonidan o‘rtaga tashlangan va O‘rta Osiyo davlatlari ham qo‘llab-quvvatlagan Xitoy-O‘rta Osiyo gaz quvurining 4-liniyasi bo‘lgan D-liniyasini qurish so‘nggi yillarda ortga surilmoqda. Tojikistonlik

do'stlarimiz bu liniyaga katta umid bilan qarashayotgan bo'lsa-da, ba'zi bir noaniq sabablarga ko'ra ushbu katta loyiha amalga oshmay turibdi.

Nima bo'lganida ham, taklif etilayotgan loyihalarimiz iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashi, uzoqni ko'zlashi, loyiha amalga oshiriladigan hududlardagi aholi turmush sharatini yaxshilashi, barqaror rivojlanishni (sustainable development) yuzaga keltiradigan bo'lishi shart. Yo'qsa loyihalar Afrika o'lkalaridagi kabi ko'pchilik tomonidan ishlatilmaydigan yoki atrofdagi aholi uchun foydasi tegmaydigan infratuzilmadan iborat bo'lib qoladi. Bunday bo'lmasligi uchun xalqimiz, ayniqsa hududlardagi manfaatdor fuqarolarimiz va ekspertmutaxassislarimiz BMBY loyihalari haqida etarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Xitoy bilan tuzilayotgan barcha shartnomalar iloji boricha oshkor etilishi, izohlanishi, ekspertizadan o'tkazilib, ommaga taqdim etilishi darkor. SHundagina Xitoy bilan bo'ladigan xalqaro aloqalarimiz o'zini oqlashi, har ikki tomon uchun manfaatli bo'lishi mumkin.

5-Amaliy mashg'ulot

Mavzu; Xalqaro logistika faoliyatining xuquqiy va tijorat ta'minoti

Reja

1. Xalqaro logistika faoliyatining xuquqiy asoslari.
- 2 Xalqaro logistika faoliyatining tijorat ta'minoti.
3. Xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishning meъyoriy-huquqiy hujjatlari

Isahdan maqsad; Xalqaro logistika faoliyatining xuquqiy va tijorat ta'minotini o`rganish.

5.1 Xalqaro transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston hozirning o'zidayoq bir qator tashkiliy huquqiy va amaliy chora-tadbirlarni ko'rmoqda. O'zbekiston respublika qonunchilik asosining transport munosabatlarini tartibga soluvchi qismini umum qabul etilgan xalqaro norma va qoidalarga yaqinlashtirish bo'yicha faol olib borilmoqda. Masalan, avtomobilda yuk tashish borasida MDP guvohnomasini qo'llagan holda xalqaro yuk tashish to'g'risidagi Bojxona Konventsiyasi, Xalqaro yuk tashish shartnomasi to'g'risidagi konventsiya,

Yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi konventsiya va Yo'l harakati to'g'risidagi konventsiya ratifikatsiya qilindi. SHunday qilib, tadqiqot ishi va realizatsiya qilishining dolzarbligi qo'shimcha xalqaro yuk tashish hajmlari va valyuta tushumlarini jalb etish, transport harakatlarini qisqartirish, transportning har xil turlari ko'proq o'zaro hamkorlik qilishi, yo'lovchilar va yuklar tashish muddatlarini, transportning energetik va ekologik ko'rsatkichlarini xalqaro andozalariga yaqinlashtirish maqsadida O'zbekiston avtomobil transportining jahon transport tizimiga integratsiyalashuvi bilan shartlangandir. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishini xalqaro yuk tashishlar nuqtai nazaridan tahlil qila turib, quyidagi konventsiyalar va bitimlarga qo'shilishning umumiy yo'nalishlari bo'ladi deb quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- davlatlararo transport aloqalarini rivojlantirish;
- O'zbekiston transportining xalqaro transport huquqlarini joriy etish va u bilan uyg'unlashuvi asosida xalqaro transport tizimiga integratsiyalashuvi;
- transport-yo'l majmuiga xalqaro andozalar va tavsiyalarni tatbiq etish, shuningdek, milliy va xalqaro transport tashkilotlari bilan o'zaro foydali hamkorlik qilish;
- atrof muhit muhofazasi va ekologik xavfsizlik muammolarini kompleks tarzida hal qilish;

- Evropa-O'zbekiston-Janubiy-SHarqiy Osiyo kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi milliy transport kommunikatsiyalarini qurish;

- eksport transport xizmatlarini kengaytirish va takomillashtirish;
- rivojlangan Evropa mamlakatlari darajasidagi servisni ta'minlangan holda turizm xizmatlarini rivojlantirish.

4. Asosiy xalqaro transport yo'laklarini tahlil qilish, axborot, yuklarning saqlanishi va ularga ishlov berilishini o'z ichiga oluvchi zarur xizmat ko'rsatish darajasini, harakatdagi tarkibga xizmat ko'rsatilishini, haydovchilar va yo'lovchilarga zarur yo'l xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlay oladigan transportekspeditsiya tizimini tashkil qilish ushbu ish amalga oshirilishining eng qulay sharti sanaladi.

5. Me'yoriy huquqiy negizni Evropa halqaro bitimlari va bitimlariga moslashtirmasdan turib kelib tushishining imkoni bo'lmaydigan xorij sarmoyasini o'z ichiga oluvchi byudjetdan tashqari mablag'lar xalqaro transport yo'laklarini bunyod etish va rivojlangan mamlakatlar darajasida transport xizmati ko'rsatish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbai bo'lishi lozim.

6. Tahlillarning dalolat berishicha, avtomobil transporti sohasida 18 ta xalqaro hujjatlar mavjud bo'lib, ulardan asosiy konventsiyalarni O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolanishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, BMTning Evropa Iqtisodiy Komissiyalari doirasida xalqaro konventsiyalarni ishlab chiqish va imzolash xalqaro yuk tashish sohasidagi faoliyatni

tartibga soluvchi asosiy integratsiya mexanizmi sanaladi. Ularning tizimlashtirilishi quyidagi uchta hal qiluvchi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan:

Yuk tashish mexanizmining asosiy yo'nalishlari

1.2.1-chizma




Dastlabki xalqaro hujjatlarni imzolash 1954 yilda orada ikki oy farq bilan ikkita hujjatni imzolash tariqasida amalga oshirildi. Ular yo'l-transport majmui va yo'lovchilar tashishni tartibga soladi.

O'zbekiston ham boshqa davlatlarda ko'proq qiziqish uyg'otgan xavfli yuklarni xalqaro yo'lda tashish to'g'risida Evropa Bitimiga, CHegarada yuklar nazoratini o'tkazish shartlarini kelishib olish to'g'risidagi Xalqaro Konventsiyaga, Xalqaro kombinatsiyalashgan yuk tashishning muhim yo'nalishlari va tegishli ob'ektlar to'g'risida Evropa Bitimiga, yo'lovchilar va bagajni xalqaro avtomobilda tashish shartnomasi to'g'risidagi konventsiyalarga qo'shilishni rejalashtirmoqda. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi halqaro avtomobilda tashishning me'yoriy-huquqiy negizini shakllantirishga e'tibor bermoqda.

Xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy hujjatlari

1.2.2-chizma



Bundan tashqari, quyidagi konventsiyalar bor:

5. 1980 yildagi temir yo'l bo'ylab yukni xalqaro transportirovka qilishga oid Konventsiyadagi qoidalar (COTIF) Temir yo'l transporti bilan yukni xalqaro

tashish bo'yicha kontraktga oid YAgona qoidalar (CIM) (bundan keyin CIM deb yuritiladi);

6. Transport nakladnoylariga taalluqli qonunchilikning ba'zi qoidalarini birxillashtirish bo'yicha Xalqaro Konventsiya (1924, Bryussel) Bryusselda tuzilgan Bayonnoma asosida kiritilgan tuzatishlari bilan (bundan keyin GaagaVisbu qoidalari deb yuritiladi).

7. YUkni dengiz transporti bilan transportirovka qilish bo'yicha BMT Konventsiyasi, 1978, Gamburg (bundan keyin Gamburg qoidalari deb yuritiladi).

8. YUkni avtotransport bilan xalqaro tashishga oid ba'zi qoidalarini birxillashtirish bo'yicha Konventsiya, Varshava, 1929 (bundan keyin Varshava Konventsiyasi deb yuritiladi). YUklarni ichki suv transporti bilan xalqaro tashish va xalqaro mul'timodal tashish xususida to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda hech qanday xalqaro konventsiyalar amalda emas. 1988 yili Jenevada yukni xalqaro mul'timodal tashish bo'yicha BMT Konventsiyasi tavsiya etilgandi. Bu Konventsiyani faqatgina 9 davlat ratifikatsiya qilgan va hech qachon kuchga kirmaydi. Xalqaro mul'timodal tashishlarga to'xtalganda esa, bu sohada mul'timodal tashishlar bo'yicha hujjatlar uchun UNCTAD/IIC qoidalari, FIATA Kombinatsiyalangan transport hujjati va yangi chiqarilgan BIMCO/INCA COMBIDOS singari xalqaro andozaviy kontraktlardan foydalaniladi.

2011 yil 1 yanvardan boshlab Xalqaro savdo palatasi - Jahon biznes tashkiloti (International Chamber of Commerce, ICC) tomonidan ishlab chiqilgan Inkoterms-2010 (Incoterms-2010) ning yangi tahriri kuchga kirdi.

Inkotermsning amal qilish sohasi oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha taraflarning tovarlarni etkazib berish (etkazib berish shartlari) bobida huquq va majburiyatlariga tatbiq etiladi. Ular xalqaro savdo shartnomalarining muhim elementi hisoblanadi, bugungi kunda TIF va xalqaro savdo ularsiz butkul boshqacha amalga oshirilgan bo'lar edi.

Inkoterms atamalari tovarlarni sotuvchidan haridorga etkazishdagi chiqimlar va hatarlarni tavsiflaydi, shuningdek yuk ortish-tushirish ishlari, tovarlarni tashish, ularni sug'urtalash va bojxonada tozalash bo'yicha taraflarning majburiyatlarini tartibga soladi.

Inkoterms-2010 ning yangi tahririga ko'ra hususiyatlari

Inkoterms qoidalarining 2010 yil tahriridagi yangi versiyasi bir qator muhim o'zgartirishlar va yangiliklarni o'z ichiga oladi. Tarkibiga ko'ra u transportning xar qanday turlarida hamda dengiz orqali va ichki suvlarda tashish

chog'ida foydalaniladigan atamalarning ikki guruhidan iborat (Inkoterms-2000da 4 guruh bor edi). Bundan tashqari, ular miqdori 13 atamadan 11 atamaga qisqardi, buning ustiga ularning ikkitasi mutlaqo yangi atamalar: DAT (terminalda etkazib berishlar) va DAP (punktda etkazib berishlar).

Inkoterms-2010da har bir atamaga uning ma'nosiga qisqacha tushuntirish berilgan, bu esa ko'pincha etarlicha huquqiy bilimlarga ega bo'lmagan tadbirkorlarga shartnomalar tuzayotganda xatolarga yo'l qo'ymaslik va kerakli atamani tanlash imkonini beradi. Qoidalarining yangi versiyasida FOB, CFR va CIF atamalariga qo'shimchalar kiritilgan.

Inkoterms-2010 qoidalarini qo'llash sohasining yanada kengaygani ularning shubhasiz afzalligidir. 2010 yil versiyasi ushbu qoidalarni bir davlat yoki EI va MDH singari integratsiya birlashmalari doirasida xalqaro va ichki savdoda qo'llash imkonini beradi.

YUklarni terminalda saqlash chiqimlarini to'lash uchun mas'ul tarafni belgilashda ham vaziyatni tuzatishga va aniqlik kiritishga yo'naltirilgan tuzatishlar kiritildi.

6-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU; Logistika faoliyatini bojxona ta'minoti

Reja

- 1, Xalqaro transport tashuvlari va unda bojxona organlarining asosiy vazifalari
2. Bojxona nazoratining shakllari
3. Bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirish

Ishdan maqsad; Xalqaro transport tashuvlari va unda bojxona organlarining asosiy vazifalari, Bojxona nazoratining shakllari, bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirishni o'rganish. Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi kerak. Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir. Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmui bojxona rasmiylashtiruvi hisoblanadi. Bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda bojxona organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan taqiqlar va cheklovlarni belgilashga haqli emas.

Bojxona organi bojxona nazoratini o'tkazish uchun: nazorat qilinishi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli shaxslardan va boshqa shaxslardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni; tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan va boshqa organlardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilib olish huquqiga ega.

Hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yo'llangan, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan shaxslar va organlar ushbu hujjatlar va ma'lumotlarni bojxona organiga mumkin qadar qisqa muddatlarda yuborishi shart. Bojxona deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yo'qotgan yildan keyingi yildan e'tiboran uch yil davomida saqlanadi.

Bojxona nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish; og'zaki so'rov; axborot olish; bojxona ko'zdan kechiruvchi; tovarlarning tamg'alanganligini tekshirish; bojxona ko'rigi; shaxsiy ko'rik; bojxona identifikatsiyalashi; bojxona kuzatuvchi; binolar va hududlarni tekshirish; tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, ularni hisobga olish tizimini tekshirish hamda ushbu tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish;

tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati.

Bojxona rasmiylashtiruvchi bojxona organiga tovarlar va (yoki) transport vositalari xususida hujjatlar taqdim etilgan paytdan, ushbu Kodeksning 162-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa, og'zaki ma'lum qilingan yoxud jismoniy shaxsning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish niyatidan dalolat beruvchi boshqa harakatlar bajarilgan paytdan e'tiboran boshlanadi. Bojxona rasmiylashtiruvchi bojxona organi va deklarant yoxud vakolatli shaxs o'rtasidagi tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish va (yoki) bojxona rejimining amal qilishini tugallash, bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash yoxud ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tartibga solinganidan keyin tugallanadi.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvchi:

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda veterinariya, fitosanitariya nazorati, ekologik nazorat va boshqa turdagi davlat nazorati amalga oshirilganidan keyin;

agar ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, mazkur hujjatlarning mavjudligi tasdiqlanganidan keyin tugallanadi.

Tovarlarning va (yoki) transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi hamda taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan va barcha zarur hujjatlar hamda ma'lumotlar taqdim etilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi. Bu muddat boshqa davlat organlari tomonidan tovarlar va (yoki) transport vositalari yuzasidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqtni o'z ichiga olmaydi.

Transport tashuvlari haqidagi bilimlar "Logistika" fanining asosiy tarkibiy qismiga kiradi, logistika so'zi grekcha "logistike" so'zidan olingan bo'lib, "hisoblash, idrok etish mahorati" degan ma'noni bildiradi. Amaliy logistikaning yuzaga kelish tarixi juda qadim davrlarga borib taqalib, Rim imperiyasida "logist"lar oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatish bilan shug'ullanganlar. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, bizning yurtimiz, tarixan Osiyo va Evropani birlashtirgan – Buyuk Ipak Yo'li orqali amalga oshirilgan xalqaro savdoda eng muhim markazlaridanbiri bo'lib, bu yo'l orqali karvonlarda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yuklar tashuvi amalga oshirilgan.

Bugungi kunda nazariyotchilar va amaliyotchilar logistikaning bir qancha turlarini farqlaydilar: ta'minot logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, marketing logistikasi, taqsimot logistikasi, transport logistikasi va hokazolar. Xalqaro iqtisodiy globalizatsiya sharoitida transport logistikasi birlamchi ahamiyatga sazovor bo'ldi. Kommunikatsiyaning ushbu turi davlatlar iqtisodiyotining va jahon hamjamiyatining strukturaviy-texnologik qismiga aylanib borib, transport tashuvlarini samarali va yuqori sifatli tashkil etilishiga birinchi darajadagi vazifa sifatida qaralmoqda. Xalqaro logistik tizimlarda optimallashtirish printsipligiga asoslanib, transportning har xil turlaridan foydalaniladi.

Bugungi kunda transport logistikasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ transport vositalari turini tanlash;
- ✓ transport vositalari ko'rinishini tanlash;
- ✓ transport tashuvi jarayonini ishlab chiqarish va omborda saqlash jarayonlari bilan birgalikda rejalashtirish;
- ✓ aralash transport tashuvlarida turli transport vositalari orqali tashuvni rejalashtirish;
- ✓ transport-ombor jarayonining texnologik yaxlitligini ta'minlash;
- ✓ etkazib berishning ratsional marshrutini aniqlash.

Tayyor mahsulot realizatsiyasida korxonada mahsulotni etkazib berish bilan bog'liq masalalar to'plamiga duch keladi. Birinchi o'rinda, bu transport turini, tashuvni tashkillash usullarini tanlash bilan bog'liq masalalardir. Ratsional transport

vositasini tanlashda tashiladigan yuk xususiyatlari va bir qancha boshqa talablarga e'tibor beriladi. Transport logistikasining rivojlanishi oboruvchi, qabul qiluvchi va transport korxonasi umumiy foydasiga hal bo'lib, kompleks transport-texnologik tizimlari tashkil etishga asoslanishi lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport tashuvlari bilan bog'liq operatsiyalar tashqi savdo bitimlarini ham boshlang'ich, ham yakunlovchi qismi bo'lib xizmat qiladi. Bunda transport tashuvi nafaqat savdo-sotiq bitimini amalga oshiradi, balki tovarning bitimdagi narxiga ham katta ta'sir qiladi. Korxonaning hatto yuqori sifatli eksportga mo'ljallangan mahsulot chiqarishga qaratilgan barcha urinishlari transport tashuvini amalga oshirishdagi kachiliklar va xatolar tufayli zoe ketishi mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda transport tashuvi jarayonining ishtirokchilari murakkab munosabatlarga kirishadilar. Bu munosabatlarning mexanizmlari iqtisodiy va siyosiy omillar, xalqaro huquq va tijorat normalari, aktlar va an'analari asosida shakllanadi. Bunday sharoitda yuk egasiga xalqaro bozorlar, mijozlar joylashishi, alohida davlatlar siyosati va xalqaro tashkilotlar ta'siri ostida shakllanadigan transport tashuvlari holatiga moslashish tobora qiyinlashib bormoqda. Bugungi kunda professional bilimlarga ega bo'lish, turli davlatlarning qonunchiligi, xalqaro konventsiyalar, transport vositalarining texnik-iqtisodiy xususiyatlarini bilish, yuklarni qayta ortish, transport va vositachilik bozori haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Transport xizmatlarining mahsuloti tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etkazib berish jarayonidir. Transport xizmatlari boshqa xizmatlar kabi o'z xususiyatlariga ega:

1. Transport xizmatlari yangi mahsulot ishlab chiqarmaydi, biroq ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish joyidan istemolchiga etkazib berish transport xizmatlari yaratadigan iste'mol qiymatini tashkil etadi.

2. Transport xizmatlarining realizatsiyasi, transport tashuvlaridan tashqarida saqlab yoki amalga oshirilib bo'lmaydigan foydali natijada namoyon bo'ladi. Ya'ni, transport xizmatlarining yaratilishi va iste'mol qilinishi davri bir vaqtga to'g'ri keladi.

3. Transport tashuvlari xalqaro tovar aylanmasida alohida o'rin tutadi. Bir tomondan, u xalqaro mehnat taqsimotini va xalqaro aloqalarni asosini tashkil etadi, boshqa tomondan, transport sanoati jahon bozorida o'z xizmatlarining eksport qiluvchisi bo'lib ishtirok etadi.

4. TIFda amalga oshiriladigan transport xizmatlariga bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini tavsiflovchi barcha omillar ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, bu omillarga

mahsulotlarga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishi, neft bahosining, valyuta narxlarining o'zgarishlari, davlatning TIFga aralashish darajasi, turli davlatlarning iqtisodiy va siyosiy munosabatlari holatini kiritish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Transport xizmatlari deganda nima tushinasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi TIF ning asosiy tashkil etuvchilari nimalar?
3. O'zbekiston Respublikasining TIS asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Nima uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tartibga solishga muxtoj?
5. Xalqaro yo'nalishlarda yuk tashuvchilari qanday minimum bilimlarga ega bo'lishlari lozim?
6. Xalqaro yo'nalishlarda tashilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarida qanday xujjatlar bo'lishi lozim?
7. Bojxona organi bojxona maqsadlari uchun qanday xujjatlar talab qilishga haqli?
8. Bojxona organi masabdor shaxsi bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovarlardan qanday bojxona to'lovlari undirishlari mumkin?
9. Bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalarini rasmiylashtirish tartibi qanday?
10. Eksport import tovarlaridan soliqlar undiriladimi, agar undirilsa qanday?

7-Amaliy mashg'ulot

Mavzu; Xalqaro logistikada axborot va servis xizmat ko'rsatish

Reja

1. Xalqaro logistikada axborot xizmat ko'rsatish
2. Xalqaro logistikada servis xizmat ko'rsatish
3. Ta'minot tizimini axborot bilan ta'minlashning afzalliklari

Xalqaro logistikasining axborot ta'minoti Axborot berish – moddiy harakatning universal xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Uning ahamiyatini odatda biror bir hodisa borasidagi bilimlarda noaniqlikning qisqarib borish prizmasi bilan belgilaydilar. Axborot, axborot berish – informatsiya (lot.) tushintirish, aniqlashtirish, ma'lum qilishdir. Shu ma'noda qo'llaniluvchi so'zlar – yoritish, xabardor qilish, nimadir haqida ma'lumot berish. Matematika va kibernetikada informatsiya – noaniqlikning hal etib borilish miqdoriy o'lchovi (entropiya), tizimni tashkillashtirish me'yorida. Kibernetika va logistika tektologik fanlar sirasiga kiradi. Umumiy tashkiliylikka oid fanda: “informatsiya – muayyan tizimning atrof muhit, boshqa tizim yoki o'zining turli o'zgarish davrlarida tashkiliylikka solishtirgandagi tashkiliyli darajasidir, ya'ni muayyan tizm hamda tashqi muhit yoki boshqa tizim o'rtasidagi tafovut yoki shunchaki shu tizimning ikki turlicha tektotlogik holatlarida o'rtasidagi farqdir. Axborot o'z-

o`zidan mavjud bo`la olmaydi – u moddiy. U hamisha nimadir haqida. Hamisha axborot manbai va uning iste`molchisi (axborot yo`naltirilgan shaxs) bo`ladi. Logistikada axborot, informatsiya atamasini turli ma`nolarda qo`llash mumkin: axborot – tizimning noaniqlik o`lchovi; axborot – tizimning tashkiliylik o`lchovi xisoblanadi. Axborot maydoni ham bir turda bo`lmaydi: moddiy oqim tashkiliylik o`lchovining tashqi olam tashkiliylik o`lchoviga, uning tomonidan mahsulotning ishlab chiqarilish va iste`mol nuqtalari o`rtasidagi masofaviy farq bosib o`tilayotgan paytdagi, nisbati; moddiy oqimning tanaffus holati va hududini (omborlashtirish) bosib o`tish jarayonidagi tashkiliylik me`yorida¹⁰⁸. Axborotning moddiy jihati muntazam kengayib bormoqda. U logistikaning barcha sohalariga xizmat qiladi. Tijorat logistikani axborot bilan ta`minlashning quyidagi yo`nalishlarga ajratish mumkin: - Mahsulotning ishlab chiqarish va iste`mol qilinish/foydalanish nuqtalari o`rtasidagi masofaviy bo`linishni bosib o`tish jarayonini ta`minlash; - Iste`mol va ishlab chiqaruv maqsadlariga muvofiq bo`lgan mahsulot va xizmat bozorini ta`minlash; - Logistik xizmat ko`rsatishga ixtisoslashgan tadbirkorlikni ta`minlash. Logistik faoliyat borasidagi turli-tuman ma`lumotlar “kuchga to`lib”, kuchli axborot oqimini hosil qiladi, qaysiki ekonomik oqim tizimiga element sifatida qo`shilgan. Axborot ta`minoti tashkiliylik o`lchovi sifatida tijorat logistikaning barcha funksional maydonini qamrab oldi – jamg`arma, ishlab chiqarish, sotuv, butun logistik jarayon faoliyatini boshqaradi. Iqtisodiy logistika tizimida axborot logistikasi – bu bir element. Unga nisbatan yanada ilg`orroq tartibdagi tizim sifatida namoyon bo`lad (1-rasmga qarang). Uning mavzu maydoni – axborot oqimidir. Shu bilan bir qatorda, axborot oqimi iqtisodiy oqimning bir qismi sifatida logistikaning boshqa turlarida muhim rol o`ynaydi: Bu holat axborotning logistik tizimi elementlarini bog`lashda muhim rol o`ynashi bilan izohlanadi. Logistik kompaniyalarni rivojlanib borgan sari axborot raqobat kurashi faol jarayonlarga aylanib boradi. Axborotning roli, ayniqsa, birja “firibgarlari” ning spekulativ bozorlarida yaqqol ko`rinadi. Axborotni qimmat va foydasi o`sib borishi uni o`ziga xoh mahsuli – tovar sifatida ko`rishimizga imkon beradi. Tovar holatida axborot narx-navo munosabatlari yangi maydonni hosil qiladi. Jamiyatning ijtimoiy-istisodiy faoliyatini kompyuterlashtirish katta hajmdagi axborot resursini mahsulot sifatida ishlab chiqarish imkonin berdi.

3. strategik rejalashtirish — biznesning amaldagi saviyasini ko'rib turgan shakli va usuliga, muntazam ravishda o'zgarib kelayotgan tashqi muhit sharoitida rivojlanishiga tegishli. Strategik rejalashtirish faqatgina yirik va strategik, 10 yildan 20 yilgacha vaqt oralig'iga bog'liq bo'lgan maqsadlar ifodalanadi;

4. uzoq muddatli rejalashtirish — investitsiya rejalari va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish dasturlari tuziladi. 10 yilgacha bo'lgan vaqt qamrab olinadi;

5. o'rta muddatli rejalashtirish — uzoq muddatli dasturlarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Bunda rejalashtirishning moliyaviy, iqtisodiy, texnik va texnologik jihatlari hisobga olinadi. Bunday rejalashtirishning vaqt bilan belgilanadigan oralig'i (besh yil atrofida) investitsiyaga, ayniqsa asbob-uskunalar va bino layyorlash, maxsus jihoz tayyorlash uchun vaqtga ehtiyoj borligi bilan izohlanadi;

6. o'zgaruvchan qisqa muddatli rejalashtirish.

Rejalashtirish tizimiga qo'yiladigan talablar:

2. *hujjat bilan ta'minlanishi* — rejali hisob-kitoblarni kelishish

5. *mukammallik*,

6. *aniqlik* — rejalashtirish obyektlarining xususiyatini qay darajada aniq o'lchanishi lozimligini to'g'ri tanlash hamda rejaning qismlari va mazmunini aniqlash muhimdir.

muvofiglik — rejalashtirish tizimining barcha alohida rejaları yaxlit holga keltiriladi va muvofiglashtiriladi. Muvofiglik eng awal rejaning tarkibiy qismlariga va alohida rejalar o'rtasidagi bogliqlikka tegishli. Rejalarning mazmuni jihatidan maqsadlar, prognozlar, tadbirlar, mablaglar, rejalar va muddati uchun mas'ul shaxslar harakati muvofiglashtiriladi. Alohida rejalarining zamrligi, shoshilinchligi, iyerarxialigi, izchilligi va o'zgaruvchanlik darajasi yuzasidan muvofiglashtirilishi talab etiladi. Rejalarning yaxlit holga keltirilishi turli darajadagi rejalar muvofigligini o'z ichiga oladi.

Rejalar muvofigligi — biron darajadagi rejalarning muvofiglashtirilishi butun bir tizim faoliyatini rejalashtirish, ya'ni logistik ish tartibini bajarishga qaratilgan bir-biri bilan bogliq materiallar oqimini qayta ishlash, standart va texnik sharoitlar rejalarini ishlab chiqish demakdir.

Iqtisodiy rejalashtirish narxlar, baholar, ish haqi va boshqa xarajatlarning umumiy tendensiyasini baholashda zamr bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Tarmoqli rejalashtirish tarmoq modellarini va jadvallarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Logistika vazifalari korxonaning umumiy biznes-rejasiga kiritilishi lozim. Shu tariqa bozor sharoitini tahlil etish va ish harakati uslubini belgilash jarayonida xaridorlar talabini aniqlash va taqsimlash vositalarini tanlash zamr bo'ladi. Ish harakatining boshqa turlarini baholash va keyinchalik ko'proq raqobat ko'rsatadigan strategiyani aniqlash jarayonida tovarlarni yetkazib berish, saqlash va harakatlantirish bilan bogliq omillar hisobga olinishi kerak.

Kompaniyalar aksariyat hollarda uyushgan rejalashtirishga logistika masalalarini kiritmaydi va shuning uchun foyda olmaydi. Buning sababi materiallar oqimi boshqaruvi jarayonining o'zgaruvchan mohiyatidir. Bunday korxonalarda logistikani ta'minot bilan tenglashtiradilar, qisqa muddatli **omil sifatida izohlaydilar**, uzoq muddatli rejalashtirish bilan kamda-kambog'iydilar.

Yuqori o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan logistika ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli omil bo'lgani sababli ular orasidagi irqni belgilash juda murakkab. Biroq logistikaga qilinadigan moliyaviy va moddiy xarajatlar miqdori, shuningdek, logistikaning korxonaga raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatish darajasi bunday irqni aniq belgilashni talab etadi, ayniqsa, umumiy biznes-rejaga logistika elementlari kiritilishi zarur bo'lgan hollarda.

Nazorat uchun savollar

1. *Logistika faoliyatining strategiyasi va uning turlari.*
2. *Moddiy oqimlarni bashorat qilish qoidalari.*
3. *Islilab chiqarishning moddiy ta'minotni rejalashtirish masalalari nimadan iborat?*
4. *Strategik reja ko'rsatkichlarini aniqlash usullari.*
5. *Amalga oshirilayotgan ehtiyojlar asosida moddiy ta'minot.*

12-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: O'zbekiston xududida yuklarni Xalqaro avtomobil-yo'l bog'lamlarida tashishlarni xuquqiy tartibga solish.

REJA

1. Xalqaro logistikaning xuquqiy omillari.
2. O'zbekiston xududida yuklarni tashish.
3. Xalqaro avtomobil-yo'l bog'lamlarida tashishlarni xuquqiy tartibga solish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018 — 2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 2-dekabrda PQ-3422-son **qarorini** ijro etish yuzasidan va avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan O'zbekiston Respublikasining majburiyatlarini amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish O'zbekiston Respublikasining, jumladan, bunday tashishlarni ruxsatnomalar asosida amalga oshirish shartlarini nazarda tutgan xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshirilishi;O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari har yili o'zaroviylik shartlarida avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishni amalga oshirish uchun ruxsatnomalar blankalarini ayirboshlashi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishga ruxsatnomalar ayirboshlash, taqsimlash, berish va foydalanish kvotalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston avtomobil transporti agentligi:

milliy tashuvchilar ehtiyojlarini qondirmaydigan ayirboshlash kvotasi bo'yicha avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish uchun xorijiy/ko'p tomonlama

ruxsatnomalarni taqsimlash shartlarini hamda O‘zbekistonning ruxsatnomalari blankalari shakllarini ikki oy muddatda tasdiqlasin; ushbu qarorning maqsadlari, mohiyati va amaliy ahamiyati milliy avtomobilda yuk va yo‘lovchilar tashuvchilar o‘rtasida keng yoritilishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **3-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning **2-bandi** qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab uch oy o‘tgandan so‘ng kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari — “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi A.J. Ramatov va O‘zbekiston avtomobil transporti agentligi boshlig‘i D.T. Dehqonov zimmasiga yuklansin.

**Avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishga ruxsatnomalarni
ayirboshlash kvotasini belgilash, taqsimlash, berish va foydalanish tartibi
to‘g‘risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishga ruxsatnomalarni ayirboshlash kvotasini belgilash, taqsimlash, berish va foydalanish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizomning amal qilishi milliy va xorijiy tashuvchilarga tatbiq etiladi.

Avtomobilda yo‘lovchilarni muntazam xalqaro tashishni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasining avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish sohasidagi xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Avtomobil transportida xavfli, katta hajmli va og‘ir vaznli yuklarni tashish xususiyatlari alohida normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

avtotransport vositasi:

yo‘lovchilarni, bagajni xalqaro tashishda — yo‘lovchilarni, bagajni tashish uchun mo‘ljallangan va haydovchi o‘rindig‘i bilan hisoblaganda 9 tadan ortiq o‘rindiqqa ega bo‘lgan avtotransport vositasi (avtobus);

yuklarni xalqaro tashishda — yuklarni tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositasi (yuk avtomobili, tirkamali yuk avtomobili, shatakchi avtomobil yoki yarim tirkamali shatakchi avtomobil);

milliy tashuvchi — O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatga olingan, mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asoslarda unga tegishli avtotransport vositasida yuk yoki yo'lovchilarni xalqaro tashishda foydalanuvchi va bunga maxsus ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

xorijiy tashuvchi — xorijiy davlat hududida ro'yxatga olingan, mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asoslarda unga tegishli avtotransport vositasidan yuk yoki yo'lovchilarni xalqaro tashishda foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish — yuk yoki yo'lovchilarni ikki yoki undan ortiq davlatlar hududlari bo'ylab avtomobil transportida tashish, shuningdek, yuksiz avtotransport vositasining ikki yoki undan ortiq davlatlar hududi bo'ylab o'tishi;

avtomobilda ikki tomonlama yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish (ikki tomonlama yuk va yo'lovchilar tashish) — milliy tashuvchiga tegishli avtotransport vositasida O'zbekiston Respublikasi hududidan xorijiy davlat hududiga yoki xorijiy davlat hududidan O'zbekiston Respublikasi hududiga tashish hamda xorijiy davlat tashuvchisiga tegishli avtotransport vositasida va ushbu avtotransport vositasi ro'yxatga olingan xorijiy davlat hududidan O'zbekiston Respublikasi hududiga yoki O'zbekiston Respublikasi hududidan ushbu xorijiy davlat hududiga tashish;

avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tranzit tashish (tranzit tashish) — avtotransport vositasining yo'lovchilar yoki yuk bilan (yoki ularsiz) jo'nash va borish punktlari ushbu davlat hududida bo'lmagan davlat hududi bo'ylab o'tishi;

uchinchi davlat hududidan yoxud uchinchi davlat hududiga avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish (uchinchi davlatga/dan tashish) — jo'natuvchi mamlakatda yuklangan va qabul qiluvchi mamlakatda tushirilgan, jo'natish yoki qabul qilish mamlakati hisoblanmaydigan mamlakatda ro'yxatga olingan avtotransport vositalarida amalga oshiriladigan yuklarni tashish;

avtomobilda yo'lovchilarni xalqaro muntazam tashish — oldindan kelishilgan yo'nalish, jadval, tariflar, tashuvchi tomonidan yo'lovchilarni chiqarish va tushirish amalga oshiriladigan to'xtash punktlari bo'yicha Davlat chegarasidan tashqarida yoki O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi tashqarisidan avtomobil transportida yo'lovchilar va yukni muntazam tashish.

avtomobilda yo‘lovchilarni xalqaro nomuntazam tashish — avtomobil transportida yo‘lovchilarni xalqaro muntazam tashishga tegishli bo‘lmagan, Davlat chegarasidan tashqarida yoki O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi tashqarisidan avtomobil transportida amalga oshiriladigan yo‘lovchilar va bagajni tashish.

qatnov — avtotransport vositasining jo‘nash punktidan borish punktigacha o‘tishi.

ruxsatnoma — avtotransport vositasining davlat hududi bo‘ylab o‘tishi va unda ko‘rsatilgan tashish turini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat (blanka);

O‘zbekiston ruxsatnomasi — xorijiy tashuvchiga tegishli avtotransport vositasining O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab o‘tishiga bir martalik ruxsatnoma;

xorijiy ruxsatnoma — milliy tashuvchiga tegishli avtotransport vositasining xorijiy davlat hududi bo‘ylab o‘tishiga bir martalik ruxsatnoma;

ko‘p tomonlama ruxsatnoma — bunday ruxsatnoma egasiga tegishli bo‘lgan avtotransport vositasining ko‘p tomonlama ruxsat berish tizimiga a‘zo bo‘lgan har qanday davlat hududi bo‘ylab bir martalik o‘tishiga ruxsatnoma;

ruxsatnoma blankalarini ayirboshlash kvotasi — xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan ayirboshlash uchun kelishilgan ruxsatnomalar soni;

xalqaro tovar-transport yukxati — xalqaro yo‘llarda yuklarni tashish shartnomasi to‘g‘risidagi Konvensiyada nazarda tutilgan, shu jumladan, tashilayotgan yuk, uning jo‘natuvchisi va qabul qiluvchisi, tashuvchisi va tashuvni amalga oshiruvchi avtotransport vositasi to‘g‘risida, shuningdek, uni ortish va tushirish joylari haqidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan hujjat;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi — O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi.

(2-bandning yigirmanchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 271-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.05.2020-y., 09/20/271/0565-son)

2-bob. Avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishning umumiy shartlari

3. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy tashuvchilar tomonidan avtomobilda xalqaro, shuningdek tranzit tashish O‘zbekiston Respublikasining avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish sohasidagi xalqaro shartnomalari

qoidalariga hamda O‘zbekiston Respublikasining avtomobil transporti to‘g‘risidagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasining avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish sohasidagi xalqaro shartnomalarida ikki tomonlama va tranzit tashishni ruxsatnomasiz amalga oshirish nazarda tutilgan taqdirda, bunday tashish turini tasdiqlovchi xalqaro tovar-transport yukxati asosida amalga oshiriladi.

5. Amalga oshirilayotgan avtomobilda xalqaro yuk tashish turi (ikki tomonlama, tranzit yoki uchinchi davlat hududiga/dan tashish) O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organlari tomonidan belgilangan mezonlar va tartibga muvofiq xalqaro tovar-transport yukxatidagi ma’lumotlar asosida belgilanadi.

6. O‘zbekiston ruxsatnomalarida avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish turlari (ikki tomonlama, tranzit yoki uchinchi davlatga/dan tashish) va ulardan foydalanish shartlari ko‘rsatiladi.

7. Ruxsatnomalar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

a) ikki tomonlama yuk tashish uchun;

b) tranzit yuk tashish uchun;

v) uchinchi davlatga/dan yuk tashish uchun;

g) ikki tomonlama/tranzit yuk tashish uchun;

d) nomuntazam ikki tomonlama qatnovlarda yo‘lovchilarni tashish uchun;

e) nomuntazam tranzit qatnovlarda yo‘lovchilarni tashish uchun;

j) nomuntazam ikki tomonlama/tranzit qatnovlarda yo‘lovchilarni tashish uchun.

Qayd etilgan ruxsatnomalardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish masalalari bo‘yicha qo‘shma/araslash komissiyalarning protokol qarorlari bilan ruxsatnomaning boshqa turlari nazarda tutilishi mumkin.

8. Xorijiy tashuvchilarga tegishli bo‘lgan, shu jumladan, ular tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirilgan avtotransport vositalarida, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqa kelishuv bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan punktlar orasida yo‘lovchi va yuklarni tashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

9. Avtomobilda xalqaro tashishlarini amalga oshiruvchi tashuvchilar o‘z davlatida ro‘yxatga olingan va farqlovchi belgilariga ega bo‘lgan avtotransport

vositalaridan foydalanishlari lozim, bunda tirkamalar va yarim tirkamalar boshqa davlatda ro'yxatga olingan va farqlovchi belgilarga ega bo'lishi mumkin.

10. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchiligiga muvofiq avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishni amalga oshirish uchun talab etiladigan O'zbekiston ruxsatnomalari, xalqaro tovar-transport yukxatlari va boshqa hujjatlar avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishidan oldin xorijiy tashuvchi tomonidan to'ldirilishi lozim va avtotransport haydovchilari yonida bo'lishi hamda nazorat qiluvchi organlar talablariga muvofiq avtotransport vositasi haydovchilari tomonidan taqdim etilishi lozim.

11. O'zbekiston Respublikasi hududi va xorijiy davlat hududi bo'ylab avtomobilda yo'lovchilarni xalqaro muntazam tashish O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatning vakolatli organlari kelishuvi bo'yicha amalga oshiriladi.

12. O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi O'zbekiston Respublikasining avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish sohasidagi xalqaro shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajarish doirasida ushbu Nizomga [1-ilovadagi](#) sxema bo'yicha:

milliy tashuvchilarning xorijiy/ko'p tomonlama ruxsatnomalarga bo'lgan bir yillik ehtiyoji haqidagi ma'lumotlarni shakllantiradi;

xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda ruxsatnoma blankalarini ayirboshlash kvotasini aniqlaydi;

xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan ruxsatnomalarni ayirboshlashni tashkil etadi;

ma'lumotlarni o'zining butunjahon Internet axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytida joylashtirish yo'li bilan milliy tashuvchilarni xorijiy/ko'p tomonlama ruxsatnomalarning mavjudligi haqida xabardor qiladi;

xorijiy/ko'p tomonlama ruxsatnomalar milliy tashuvchilarga berilishini ta'minlaydi.

3-bob. Ruxsatnoma blankalarini ayirboshlash kvotasi

13. Xorijiy/ko'p tomonlama ruxsatnomalarga bo'lgan bir yillik umumiy ehtiyojni aniqlash uchun milliy tashuvchilar kelgusi yil boshlanishidan kamida uch oy oldin O'zbekiston Respublikasining vakolatli organiga ushbu Nizomga [2-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha buyurtmanomalar taqdim etadilar.

Xorijiy/ko'p tomonlama ruxsatnomalarga bir yillik umumiy ehtiyojni aniqlash uchun buyurtmanomalar O'zbekiston Respublikasining vakolatli organiga bevosita

pochta aloqasi yoki elektron tarzda, ular olganligi haqidagi xabarnoma bilan taqdim etilishi mumkin. Elektron tarzda taqdim etilgan hujjatlar milliy tashuvchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi lozim.

Buyurtmanomada rejalashtirilayotgan qatnovlar soni (yuk tashish uchun), tashuvchining xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarga bir yillik ehtiyoji har bir davlat/ko‘p tomonlama ruxsatnoma tizimi va tashish turi bo‘yicha ko‘rsatiladi, shuningdek, avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish uchun foydalaniladigan avtotransport vositalari soni qayd etiladi. Buyurtmanoma kelgusi yil mobaynida avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishni amalga oshirishning aniq prognozlari asosida tuzilishi lozim.

Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarga bir yillik umumiy ehtiyojni aniqlash uchun buyurtmanomalar belgilangan muddatlarda taqdim etilmagan taqdirda, milliy tashuvchilar asoslangan sabablarini ko‘rsatgan holda qolgan davrga yil davomida buyurtmanoma taqdim etishi mumkin.

14. O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi ushbu Nizomning **13-bandiga** muvofiq berilgan buyurtmanomalar haqidagi umumlashtirilgan ma’lumotlar asosida kelgusi yil boshlanishidan ikki oy oldin xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarga bir yillik umumiy ehtiyoj to‘g‘risidagi yig‘ma ma’lumotlarni shakllantiradi.

15. O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi kelgusi yil boshlanishiga qadar xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda ruxsatnomalar blankalarini ayirboshlash kvotasini aniqlaydi va ularni ayirboshlash jarayonini kelishib oladi.

Ruxsatnoma blankalarini ayirboshlash o‘zaroviylik shartida amalga oshiriladi.

4-bob. Ruxsatnoma blankalarini ayirboshlash, ularni taqsimlash va zaxirasini shakllantirish

16. O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi ruxsatnoma blankalarini ayirboshlash kvotasi doirasida xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga O‘zbekiston/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni berishni va xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni olishni amalga oshiradi.

17. Milliy tashuvchilar ehtiyojini qondiruvchi xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalar ayirboshlash kvotasida ular qabul qilib olinganidan so‘ng, o‘n ish kuni mobaynida milliy tashuvchilar o‘rtasida xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarga bir yillik umumiy ehtiyojning yig‘ma ma’lumotlariga muvofiq taqsimlanishi lozim.

Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarning milliy tashuvchilar ehtiyojini qondirmaydigan ayirboshlash kvotasidagi taqsimlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan milliy tashuvchining avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish borasidagi ish tajribasini, avtotransport vositalarining mavjudligi va o‘tgan hisobot yilida foydalanilgan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarning sonini inobatga olgan holda belgilanadi.

18. O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi taqsimlanadigan ruxsatnomalar bo‘yicha zaxiralarni xorijiy davlatlarning vakolatli organlaridan olingan ruxsatnomalar sonining besh foizigacha miqdorda shakllantirishi mumkin. Taqsimlangan ruxsatnomalar milliy tashuvchi tomonidan bir chorak davomida olinmagan taqdirda, ular kelgusi chorak zaxirasiga o‘tkaziladi.

19. Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni olish uchun qo‘shimcha buyurtmanoma taqdim etgan milliy tashuvchilar ular bilan O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organining zaxirasidan yoki boshqa milliy tashuvchilar tomonidan olinmay qolgan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnoma blankalari hisobidan ta‘minlanadilar.

Zaxira yoki olinmay qolgan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnoma blankalari mavjud bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi qo‘shimcha buyurtmanoma olingan kundan boshlab o‘n ish kuni davomida xorijiy davlatning vakolatli organidan joriy yil uchun qo‘shimcha ruxsatnoma blankalari ayirboshlash kvotasini so‘raydi.

5-bob. Milliy tashuvchilarga xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni berish va ulardan foydalanish

20. Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni olish uchun ushbu Nizomga 3-[ilovaga](#) muvofiq shaklda tuzilgan ariza milliy tashuvchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organiga taqdim etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni olish uchun berilgan ariza O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan ariza olingan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida ko‘rib chiqiladi.

(20-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 271-sonli [qarori](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.05.2020-y., 09/20/271/0565-son)

Ariza O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organiga bevosita pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda olinganligi haqidagi bildirishnoma bilan taqdim etiladi. Elektron tarzda taqdim etilgan hujjatlar milliy tashuvchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

21. Har bir beriladigan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnoma uchun ruxsatnomani berish sanasida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining to‘rttdan biri miqdorida yig‘im undiriladi.

(21-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-avgustdagi 716-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.08.2019-y., 09/19/716/3636-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Yig‘ilgan mablag‘ O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasi g‘aznachilik hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va undan ruxsatnomalar blankalarini tayyorlash, vakillik xarajatlari, qo‘shma/aralash komissiyalar yig‘ilishlarini tashkil etish va o‘tkazish hamda avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish masalalari bo‘yicha boshqa tadbirlarga sarflangan xarajatlarini qoplash hamda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida band bo‘lgan xodimlar ta‘minoti uchun foydalaniladi.

(21-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 271-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.05.2020-y., 09/20/271/0565-son)

22. Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalar avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan milliy tashuvchilarga beriladi, ushbu Nizomning 31-bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

23. Muayyan davlatning buyurtmanomada qayd etilgan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalari soni milliy tashuvchining avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan mavjud avtotransport vositalari sonidan ko‘p bo‘lgan taqdirda, ruxsatnomalar ko‘rsatib o‘tilgan avtotransport vositalarining haqiqiy soniga muvofiq beriladi.

Milliy tashuvchiga muayyan davlatning avval berilgan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalari o‘rniga yangilarini berish ushbu davlatning avval berilgan ruxsatnomalarini qaytarish sharti bilan amalga oshiriladi.

24. Quyidagilar xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni berishni rad etishga asos bo‘ladi:

a) milliy tashuvchida avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishni amalga oshirish uchun litsenziya va (yoki) litsenziya kartochkalari mavjud emasligi yoxud ularning amal qilish muddati to‘xtatib qo‘yilganligi, ushbu Nizomning 31-bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno;

b) xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalar yoki ular bo‘yicha huquqni ushbu Nizomning **33-bandiga** muvofiq boshqa shaxslarga berish holati aniqlanganligi;

v) O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organida xorijiy ruxsatnomalarning mavjud emasligi;

g) tashuvchi tomonidan taqdim etilgan buyurtmanomada noto‘g‘ri yoki buzilgan ma’lumotlar mavjudligi.

25. Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni berishning boshqa asoslarga ko‘ra, shu jumladan, maqsadga muvofiq emaslik sababi bilan rad etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

26. Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni berish rad etilganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma milliy tashuvchiga tegishli qaror qabul qilingan sanadan boshlab bir ish kunidan kech bo‘lmagan muddatda yozma shaklda, shu jumladan, axborot tizimi orqali elektron shaklda, rad etish sababi, qonunchilikning aniq normasi ko‘rsatilib va milliy tashuvchi tomonidan qayd etilgan kamchiliklar bartaraf etilib, qayta ko‘rib chiqish uchun hujjatlar taqdim etilishi mumkin bo‘lgan muddat ko‘rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi).

Milliy tashuvchi tomonidan rad etish sabablarini bartaraf etish va takroran ko‘rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etish muddati, xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnoma berilishi rad etilganligi to‘g‘risida yozma yoki elektron shakldagi bildirishnoma olingan sanadan boshlab o‘n ish kunidan kam bo‘lmasligi lozim.

27. Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnoma berishni rad etishga asos bo‘lgan sabablar milliy tashuvchi tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etilgan taqdirda, arizani takroran ko‘rib chiqish, xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomani berish yoki uni berishni rad etish O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan rad etish sabablari bartaraf etilganligi to‘g‘risidagi ariza va ular bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar qabul qilingan sanadan e‘tiboran bir ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda amalga oshiriladi.

28. Arizani takroran ko‘rib chiqish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan ariza beruvchi oldin yozma ravishda, shu jumladan, axborot tizimi orqali yo‘llangan elektron shakldagi bildirishnomada ko‘rsatilmagan rad etish sabablarini keltirishga yo‘l qo‘yilmaydi, ilgari qayd etilgan sabablarning bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog‘liq rad etish sabablarini keltirish bundan mustasno.

29. Milliy tashuvchi tomonidan yozma shakldagi bildirishnomada ko‘rsatilgan muddat tamom bo‘lganidan keyin taqdim etilgan ariza yangi taqdim etilgan ariza hisoblanadi va umumiy tartibda ko‘rib chiqiladi.

30. Milliy tashuvchi xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnoma berishning rad etilganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organi mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega bo‘ladi.

31. Milliy tashuvchilarning arizalariga binoan O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organi tomonidan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnoma zaxiradan va ular tomonidan o‘tgan chorak davomida yangi xarid qilingan va O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan yuklangan avtotransport vositalari uchun olinmagan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalar blankalari hisobidan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga yangi xarid qilingan avtotransport vositalari olib kirilishi holati milliy tashuvchilar tomonidan oldi-sotdi shartnomalari yoki hisob-fakturalar (invoys) mavjudligi bilan tasdiqlanadi.

32. Milliy tashuvchiga xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnoma berilganda blankaning tegishli kataklarida O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organi tomonidan majburiy tarzda tashuvchining nomi va uning manzili qayd etiladi, shuningdek, muhr (shtamp) va ruxsatnomani bergan shaxsning imzosi qo‘yiladi.

Xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarga, agar avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish masalalari bo‘yicha qo‘shma/aralash komissiyalar protokol qarorlarida boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo‘lsa, tuzatishlar kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

33. Olingan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalar milliy tashuvchilar tomonidan ushbu milliy tashuvchining litsenziya kartochkasida qayd etilgan avtotransport vositasida foydalaniladi, yangi xarid qilingan va O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan, litsenziya kartochkalariga ega bo‘lmagan yuklangan avtotransport vositalari uchun ruxsatnomalar bundan mustasno.

Ruxsatnomalarni yoki ular bo‘yicha huquqlarni boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi. Ruxsatnomalarni yoki ular bo‘yicha huquqlarni boshqa shaxslarga berish holati aniqlangan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi uch oygacha muddatga, qayta aniqlangan taqdirda — olti oygacha muddatga xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni berishni to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

34. Foydalanilgan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalar O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organiga safar yakunlanganidan so‘ng bir oy muddatda, foydalanilmaganlari — ularning amal qilish muddati tugagan kundan boshlab yigirma kalendar kundan kech bo‘lmagan muddatda qaytarilishi lozim.

Milliy tashuvchilar xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalarni ilova xati bilan birga topshiradilar, unda qaytarilgan sana, davlat/ko‘p tomonlama ruxsat berish tizimi nomi va xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalar raqamlari qayd etilib, ushbu ruxsatnomalar ilova qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi qaytarilgan xorijiy/ko‘p tomonlama ruxsatnomalar hisobini mamlakatlar va milliy tashuvchilar bo‘yicha yuritadi.

6-bob. O‘zbekiston ruxsatnomalarini xorijiy tashuvchilarga berish va ulardan foydalanish

35. O‘zbekiston ruxsatnomalari xorijiy tashuvchilarga o‘z davlatlarining vakolatli organlari tomonidan tegishli yilga ayirboshlangan ruxsatnomalar hisobidan beriladi. O‘zbekiston ruxsatnomalari joriy kalendar yilda va kelgusi yilning 31-yanvarigacha (ushbu sana ham shunga kiradi) amal qiladi, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqa holat nazarda tutilmagan bo‘lsa.

36. Xorijiy tashuvchi har bir safarga borishda o‘z davlatining vakolatli organidan O‘zbekiston ruxsatnomasi blankasini olishi shart. Ushbu blankadan u faqat bir marta va amalga oshirilayotgan avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishning bir turi bo‘yicha foydalanishi mumkin, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan tuzilgan avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashish masalalari bo‘yicha qo‘shma/aralash protokol qarorlarida boshqa holat nazarda tutilmagan bo‘lsa.

O‘zbekiston ruxsatnomasi blankasining to‘ldirilishi zarur bo‘lgan barcha bandlarida to‘laqonli va aniq ma’lumotlar qayd etilishi lozim. Hech bo‘lmaganda bitta to‘ldirilmagan bandning mavjudligi O‘zbekiston Respublikasi nazorat organlari tomonidan ruxsatnomaning haqiqiy emas deb e’tirof etilishi uchun asos bo‘ladi.

37. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab tranzit qatnovdan orqaga qaytib harakatlanayotgan xorijiy yuk avtotransport vositasining O‘zbekiston Respublikasi hududida yo‘l-yo‘lakay yuk olishiga O‘zbekistonning avtomobilda yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishning tegishli turi uchun haqiqiy bo‘lgan qo‘shimcha ruxsatnomasi mavjud bo‘lgan taqdirdagina ruxsat etiladi.

38. O‘zbekiston Respublikasi hududiga uchinchi mamlakatlardan boshqa transport turlaridan (havo, temir yo‘l, dengiz) foydalangan holda yuk tashish, kelgusida avtotransport ro‘yxatga olingan mamlakatda qayta yuklanishi (yuk ortilishi/yuk tushirilishi) bilan amalga oshirilganda, qayd etilgan tashish ishlov berish terminalining

(transport turlarini almashtirish joyi) haqiqiy bojxona muhrlari bosilgan tovar-transport hujjatlari bilan tasdiqlangan taqdirda, uchinchi mamlakatga/dan O‘zbekiston ruxsatnomasi talab etilmaydi. Shu bilan birga, bunday tashish ikki tomonlama tashish uchun beriladigan O‘zbekiston ruxsatnomasi asosida amalga oshiriladi.

39. O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanish uchun mo‘ljallangan ro‘yxatga olish va farqlash belgilariga ega bo‘lmagan, shu jumladan, yuklangan avtotransport vositalarini olib kelishda O‘zbekiston ruxsatnomasi talab etilmaydi.

7-bob. Ruxsatnoma blankalari shakli

40. Ruxsatnoma blankalari qat’iy hisobot beriladigan hujjatlar hisoblanadi hamda hisobga olish seriyasi, raqam va himoyalangan darajasiga ega. O‘zbekiston ruxsatnomalarining blankalari shakli O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi hamda uning buyurtmasiga binoan matbaa usulida tayyorlanadi.

Ruxsatnoma blankalarining hisobga olinishi, saqlanishi va maqsadli foydalanilishi uchun O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organining rahbari javob beradi.

Босқичлар	Субъектлар	Чора-тадбирлар	Бажариш муддатлари
1-босқич	Миллий ташувчи	<p>1. Келгуси йил мобайнида автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишнинг аниқ прогнозлари асосида ҳар бир давлат/кўп томонлама рухсатномалар тизими ва ташиш турлари бўйича эҳтиёжни шакллантиради.</p> <p>2. Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органига хорижий/кўп томонлама рухсатномаларга бўлган умумий йиллик эҳтиёжни белгилаш учун буюртманома тақдим этади.</p> <p>3. Хорижий/кўп томонлама рухсатномаларга умумий йиллик эҳтиёжни аниқлаш учун буюртманомалар белгиланган муддатларда тақдим этилмаган тақдирда, асосланган сабабларини кўрсатган ҳолда қолган даврга буюртманома тақдим этади</p>	<p>Келгуси йил бошланишидан камидан уч ой олдин</p> <p>Йил давомида</p>
2-босқич	Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи	<p>Буюртманомалар тўғрисидаги умумлаштирилган маълумотлар асосида хорижий/кўп томонлама рухсатномаларга миллий ташувчиларнинг умумий йиллик эҳтиёжи ҳақидаги йиғма маълумотларни шакллантиради.</p>	<p>Келгуси йил бошланишидан камидан икки ой олдин</p>
3-босқич	Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи	<p>1. Хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан биргаликда рухсатномалар бланкаларини айирбошлаш квотасини белгилайди ва уларни айирбошлаш жараёнини келишпади.</p> <p>2. Хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан рухсатномаларни айирбошлашни ташкил этади</p>	<p>Келгуси йил бошлангунига қадар</p>

4-босқич	Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи	<p>1. Бутунжаҳон Интернет ахборот тармоғидаги ўзининг расмий веб-сайтида маълумотларни жойлаштириш йўли билан хорижий/кўп томонлама рухсатномаларнинг мавжудлиги ҳақида миллий ташувчиларни хабардор қилади.</p> <p>2. Хорижий/кўп томонлама рухсатномаларни миллий ташувчилар ўртасида тақсимлайди</p>	Хорижий/кўп-томонлама рухсатномалар олингандан кейин ўн иш куни мобайнида
5-босқич	Миллий ташувчи	Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш учун хорижий/кўп томонлама рухсатномаларни олиш учун Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органига ариза беради.	Режалаштирилаётган сафар бошланишидан олдин
6-босқич	Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи	<p>1. Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш учун хорижий/кўп томонлама рухсатномаларни олиш учун миллий ташувчиларнинг аризаларини кўриб чиқади.</p> <p>2. Миллий ташувчиларга хорижий рухсатномаларни беради</p>	Икки иш куни мобайнида
7-босқич	Миллий ташувчи	<p>Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органига олинган хорижий/кўп томонлама рухсатномаларни қайтаради:</p> <p>фойдаланилганлари;</p> <p>фойдаланилмаганлари.</p>	<p>Сафар якунланганидан сўнг бир ой мобайнида</p> <p>Уларнинг амал қилиши тамом бўлган кундан бошлаб йиғирма календарь кундан кечикмай</p>

(F.I.O.)

M.O‘.

Sana 20_____ y. “_____” _____

VI. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar xamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. G.A.Samatov “Yetkazib berishlar zanjirida boshqaruv” o‘quv qo‘llanma
2. T.M.Rozina. Raspreditel'naya logistika, kurs leksiy.Mn BGEU,2009.
3. L.B.Mirotin. M.: Transportnaya logistika. M.: “ Ekzamen”, 2002, 512 s.
4. L.B.Mirotin. Integrirovannaya logistika nakopitel'no- raspreditel'nyx kompleksov.M.: Ekzamen, 2003
5. Djonson Dj. i dr. Sovremennaya logistika. 7-ye izd.-M.: Vilyams, 2002, 624 s.
6. V.V.Дыбская, Ye.I.Zaysev, V.I.Sergeev, A.N.Sterlikova. Logistika. Integratsiya i optimizatsiya logisticheskix biznes-protsessov v sepyax postavok. M.: «EKSMO», 2011,981 s.
7. X.Ch.Buriev, G.A.Samatov, I.B.Rustamova. Agrologistika asoslari. - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003, 272 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

8. Sh. Mirziyoev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — T.: O‘zbekiston, 2016.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakterlar strategiyasi” tug‘risidagi Farmoni (“Xalq so‘zi”, gazetasi, 2017 yil, 8 fevral)
10. Sh. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash — yurt taraqqiyoti va xalk farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston, 2017.
11. G.A.Samatov, B.I.Kamildjanov, F.R.Galimova. Logistik boshkaruv konsepsiyalari va modellari. T.: «Fan va texriologiya», 2015, 227 b.
12. Sh.A.Butaev, K-M.Sidiknazarov, A.S.Murodov, A.U.Kuziev. Logistika (yetkazib berish zanjirida okimlarni boshkarish). «Extrtmum - PRESS». T.: 2012,577 6.
13. G.A.Samatov, Yo.K.Karrieva, B.B.Payziev. Rakobat muxitida Xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchliligi. T.: TDAU nashr taxririyyati, 2003, 81 6.

14. Bauersoks Donald DJ., Kloss Deyvid Dj. Logistika: integrirovannaya sep postavok. - M.: Olimp-Biznes, 2001, 640 s

Internet saytlari

15. www.inf.com
16. www.sas.com
17. <http://www.uz.uz.business>
18. <http://www.press-service.uz>

G A L A S A R I

LOGISTIKA

Iste'molchi talablarini ko'proq qanoatlantirish maqsadlarida xomashyo, yarimfabrikatlar, tayyor mahsulotlar va tegishli axborotlarni jamlash, saqlash, ishlab chiqarilgan joydan iste'mol joyiga tashish va uzatishning texnologik va tejamkor samarali operatsiyalarini rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonidir.

LOGISTIK OPERATSIYALAR

Moddiy va axborot oqimlarni o'zgartirishga qaratilgan harakatlarning ajratilgan majmuasi.

LOGISTIKA XARAJATLARI

Logistik operatsiyalar (omborga joylashtirish, tashish va hokazo, buyurtmalar, zaxiralar, etkazib berishlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va uzatish) ni bajarishga sarflangan xarajatlar.

LOGISTIKA KANALI

Etkazib beruvchi. iste'molchi, tashuvchi, vositachi (diler, ekspeditor va boshqalar), sug'urtachilardan tashkil topgan, qisman tartibga solingan tizim.

LOGISTIKA ZANJIRI

Tashqi moddiy oqimni bir logistika tizimidan boshqasiga (ishlab chiqarish iste'moli holida) yoki yakuniy iste'molchiga (noishlab chiqarish, shaxsiy iste'mol holida) etkazish bo'yicha logistika operatsiyalarini amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslar (ishlab chiqaruvchilar, distribyuterlar, umumiy foydalanish omborlari va boshqalar) ning to'g'ri chiziqli tartibga solingan tizimidir

LOGISTIKA TIZIMI

U yoki bu logistika vazifasi va operatsiyalarni bajaruvchi teskari aloqaga ega moslashtirilgan tizimdir. U, qoidaga ko'ra, bir necha tizimlardan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega.

LOGISTIKA TIZIMINING SAMARADORLIGI

Mohiyati bo'yicha bu logistika xarajatlarining berilgan darajasida ko'rib chiqilayotgan logistika tizimi ishining sifatini ta'riflash uchun ko'rsatkich (yoki ko'rsatkichlar guruhi).

TASHISH BUYURTMASI

Transport xizmatlarini oldindan buyurtma qilish

TASHISH INTERVALI

“O'z vaqtida” tizimida: buyurtma qilingan maxsulotning iste'molchiga etkazilishi kerak bo'lgan vaqt davri. Ba'zi mavjud tizimlarda etkazib berish oralig'i ± 30 min. Bo'ladi, etkazib berish muddatining bajarilmasligi uchun belgilangan jarima bir necha ming dollarga etadi.

TASHISH KOEFFITSIENTI

Tovarlar (massasi) nisbati ishlab chiqarilgan hajmi (ommaviy) olib

Tijorat tashishlari uchun transport vositalaridan foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar.

TAGLIK

Tashish, saqlash va qayta yuklashda qo'llaniladigan to'g'ri burchakli yoki kvadrat, yog'och yoki metall platforma

TAGLIKNI KO'CHIRISH (TAGLIKNI ALMASHTIRISH)

Palletni birinchi saqlash joyidan boshqasiga tashish yoki formasini yo'qolishi va sinishi sababli almashtirish

TOKCHA, STELLAJ, SHTABEL'

Shtabel- birin-ketin taxlangan tara-donali yuklar.

TONNA-KM

o'lchov birligi. Transport vositasining yuk kutarish qobiliyatini hisobga olgan holda yuk bosib utgan masofa

TRANSPORT VOSITALARINI TAMG'ALASH

Omborxona eshiklari va yuk vagonlari tirqishlarini tamg'alash uchun, yumshoq metall yoki plastmassaning muxr shakli qabariq tushirilgan bo'lagi

TRANSPORT VOSITASI

Yuklarni yoki yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan qurilma. TV dan foydalanish uchun yo'llar, terminallar, to'xtash joylari, texnik xizmat ko'rsatish yoki yoqilg'i quyish shaxobchalari, jalb etish vositalari. Transport vositalarining texnik xarakteristikalariga masalan, yuk ko'tarish qobiliyati va tezlik kiradi.

TRANSPORT VOSITASI TURI

Tashish jarayonida ishlatiladigan transport turi, masalan konteyner, yuk avtomobili, yo'lovchi kemasi va x.k.

TRANSPORT QADOG'I

Transportirovka kilish va bojxona amallarini bajarish uchun mo'ljallagan tara yoki qadoqlash vositasi

TRANSPORT OQIMI

Yo'llarda xarakatlanayotgan transport vositalari to intensivlik transport vositasining tarkibi, zichligi, tezligi va turib qolishlar bilan tavsiflanadi.

TRANSPORT ISH

Qoyishqoq ishlab chiqarish, tuzish, qoyishqoq ombor xo'jaligida ishlashga mo'ljallangan maxsuslashtirilgan sanoat robotlari.

TRANSPORT TAYYORLOV ISHLARIGA XARAJATLAR

Logistik xarakatlarning bir turi bo'lib, yo'l tizimini shakllantirish, transport xarajatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

TRANSPORT TIZIMI

Transport tizimi temir yo'l, avtomobil yo'llari, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan temir yo'l uskunolari, vokzallari, bekatlari, yuk omborlari va boshqa infratuzilmalar tashkil etadi.

TRANSPORT YUK XATI

Tovar bilan birga etkazib beriladigan yuk jo‘natuvchi tomonidan rasmiylashtiriladigan xujjat. Yuk qabul qiluvchi tomonidan imzolangan yuk xati yuk qabul qilib oluvchining tilxati bo‘lib hisoblanadi.

TRANSPORTDA TASHISH

Etkazib berish punktidan to qabul qilish punktigacha transportda yuklarni tashishni tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan logistik operatsiya hisoblanadi. .

TRANSPORT-EKSPEDITSION XIZMATLAR

Transport-ekspeditsion xizmatlar Yukni tashishga buyurtmani rasmiylashtirish; Yuklarni tashishga tayyorlash; tashish hujjatlarini rasmiylashtirish; Yuklarni markalash; Yukni harakat vositalariga yuklash; Yukni etkazib berish; Yukni kuzatib borish va qo‘riqlash; Yukni boshqa transportga o‘tkazish; Yukni topshirish-qabul qilish; mijozlarni tashish bo‘yicha axborot bilan ta‘minlab borish va h.k.

TUSHIRISH

Tushirish-transport vositasini yoki transportni Yukdan ozod qilish logistik operatsiya.

TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI ETKAZIB BERISH

Vositachilarsiz xaridorga maxsulotlarni sanoat kompaniyalarini etkazib berishi.

TARTIBGA SOLUVCHI

Tegishli guvohnomasi va belgisi (maxsus kiyimi yoki taniqlik belgilari: qo‘l bog‘ichi, jezl, qizil ishorali yorug‘lik qaytargich yoki yorug‘lik qaytargichsiz gardish, qizil chiroq yoki bayroqcha) bo‘lgan militsiya, harbiy avtonazorat xodimi, yo‘ldan foydalanish idoralarining xizmatchisi, temir yo‘l kesishmasi, sol kechuvlari (parom) navbatchisi, jamoatchi avtonazoratchi va militsiyaning shtatdan tashqari xodimi.

TIRKAMA

Mexanik transport vositasi tarkibida harakatlanishga mo‘ljallangan, yurgizgich bilan jihozlanmagan transport vositasi.

tashish jarayonini yo‘lovchilarga, yuk jo‘natuvsi va yuk oluvchilarga qilinadigan xizmatlar ichiga kiruvchi servisni tushinish mumkun

TRANSPORT OQIMI

Aloqa yo‘llarida xarakatlanayotgan transport vositalari jamlanmasi

TRANSPORT EKSPEDITORLIK XIZMATLARI

Yuklarni etkazib berish bo'yicha yuk egalari xisobidan va topshirig'iga ko'ra olib boriladigan maxsuslashtirilgan faoliyat

TANK-KONTEYNER

Quyiladigan yuklarni tashish uchun universal qadoq

TAXOGRAF

Avtomobilning xarakat tartibini yozib boruvchi asbob

TRANSPORTDA XAVFSIZLIK

Avtomobil yo'l xavfsizlik dasturining bajarilishi, shu jumladan, xaydovchilik ma'lumoti va xulkatvori sohasidagi ustuvor ishlar, transport vositasi va infratuzilmaning butligi.

UNIVERSAL KONTEYNER

Har xil yuklarni tashish uchun mo'ljallangan universal tara

FOYDALI YUK

Gabarit o'lchami (Yuk joyining maksimal o'lchamlari), og'irligi, shuningdek, natura va bahoda ifodalangan tashish jarayonidagi tovar

XAVFLI MATERIALLAR

Xavfiligi yuqori bo'lgan tovarlarga qo'llaniladigan talablar va harakatlar bajariladigan tovarlar

XAVFLI YUKLAR

Tashish jarayonida, saqlashda va qayta Yuklashda yong'in chiqishiga, portlashga, TV ni va yo'l inshootlarini shikastlanishiga, insonlar va hayvonlarni kasallanishi, jarohatlanishi yoki halok bo'lishi, hamda ekologik yo'qotishlarga sabab bo'ladigan Yuklar. Portlaydigan, engil yonadigan mahsulotlar, infeksiyalar, radioaktiv materiallar

XARID LOGISTIKASI

Iste'molchi bilan to'g'ri aloqa logistikasi – iste'molchi bilan to'g'ridan to'g'ri aloqani ta'minlovchi etkazib berish zanjiri jarayonlari va vositalari

XARIDOR

Biron bir maxsulotni xarid qiluvchi yoki xarid qilishga maqsad qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs yoki shunday shaxsning vorisi.

XIZMAT KO'RSATISH VAQTI

Vaqtinchalik oraliq bo‘lib, bunda tizimga xizmat ko‘rsatish buyurtmalari bajariladi.

CHORRAHA

Yo‘llarning o‘zaro bir sathda kesishadigan, tutashadigan va ayriladigan joyi

CHEKLANGAN JOYLASHTIRISH

Har bir alohida saklovchiga Yuk birligini ombor stelajidagi alohida yacheykaga biriktirish.

SHAHARLARARO CHIPTA

Shaharl atrofi yo‘nalishlarida yo‘lovchi tashish poezdida chiptada ko‘rsatilgan stansiyalar orasida harakatlanish huquqini beradigan hujjat

SHIKASTLANGAN MAHSULOT

Sifatsiz, shikastlangan tovarlar

SHOVQIN

Odam uchun yoqimsiz har qanday tovushlar

SHTRIX-KOD

Shtrix-kod --mahsulotning grafik ko‘rinishidagi katta raqami

SHARTLI TONNA-KM

Yuklarni va yo‘lovchilarni tashishda shartli natural ko‘rsatkich. Keltirilgan qiymat tkm va yo‘lovchi kilometrlarni qo‘shib aniqlanadi

EGASIZ MOL-MULK

Egasi yo‘q, egasi noma’lum yoki egasi mulk shaxsiyligi huquqini rad etgan mol-mulkka nisbatan qo‘llaniladigan termin

EGILUVCHAN OMBORXONA MODULI

Egiluvchan omborxonona moduli Yuklarni tavsifi bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda avtomatik ravishda qadoqlashga, komplektlashga iashishga va boshqa operatsiyalarga moslashtirilgan bo‘lib, omborxonona –Yuklarini qayta ishlash egiluvchan tizimiga o‘tkazish imkoniga ega

EKSPEDITOR

Transport ekspeditorlik tashkilotida shartnoma asosida tashishni tashkil etuvchi shaxs

EKSPLUATATSIYADAN TASHQARI (HOLI) DAVR

Dengiz va daryo transporti kemalarining byudjetdan tashqari vaqti, transport statistikasi ko'rsatkichi

ELEVATORLAR

Yuklarni vertikal yoki unga yaqin qiya yo'nalishda uzluksiz yuqoriga eltib (ko'tarib) beruvchi mashinalardir;

EKSPORT HUJJATLARI

Maxsulotlarning eksportini bojxona rasmiylashtiriluviga joylashtirish uchun asosiy hujjat

ESHIKDAN ESHIKGANA ETKAZIB BERISH)

Jo'natuvchi omboridan qabul qiluvchining omborigacha tovarni etkazib berish

YUK

Umumfoydalanish transporti yoki boshqa tashuvchi tomonidan tashishga qabul qilingan mahsulot

YUK (MAXSULOT) TOVAR MONIFEST

Tashish uchun qabul qilingan yoki tashish jarayonidagi maxsulot jismoniy yoki yuridik shaxsning qo'yiluchan mulki bo'lib bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishni ko'zda tutadi.

YUK JO'NATUVCHI

Yuk jo'natish punktida yukni tashuvchiga topshiruvchi shaxs: o'zining nomidan Yuk tashish uchun shartnoma tuzuvchi shaxs.

YUKNING SIFATI

u Yuk bilan munosabatda (muomalada) bo'lish uslublarini ko'rsatuvchi tasvirdir;

YUKNI JO'NATISH YO'RIQNOMASI

Yuk tashishni maxsus shartnomalarini tartibini bildiruvchi hujjat

YALPI MAHSULOT

Ishlab chiqarish hajmini tavsiflovchi mahsulot tayyorlik darajasiga bog‘liq bo‘lmagan ko‘rsatkichi

YAROQSIZ MAHSULOT

Sifatsiz, yaroqsiz mahsulot (shikastlangan, buzilgan tovarlar)

O‘Z-O‘ZIDAN ALANGALANISH

Modda ma‘lum temperaturaga kizdirilganda unga alanga bevosita alangalanish sodir buladi

O‘RAMALI TAXLAGICH

Tovar saqlanadigan ombordagi joy

O‘TISH YO‘LI, ALLEYA (HAR BIR ALLEEGA 2 QATOR TO‘G‘RI KELADI.

Ombordagi taxlagichlar orasidagi yo‘lak, ombor devorlari vaorasidagi taxlagichlar

O‘TAG‘ON AVTOMOBIL

O‘tag‘onligini oshrish uchun kamida 3 o‘qqa, maxsus tizim va agregatlarga, mustaqil podveskaga, kengaytirilgan diametrli shinaga va sh.k. Ega avtomobil

QABUL (TIZIMGA)

Yuk qabul qiluvchiga kelgan mahsulotning nomenklaturasi, miqdori va sifatining mosligini aniqlash.

QADOQLASH VARAQASI

Bitta Yuk joyiga joylashtirilgan tovarlar ro‘yxati. Qadoqlash varaqasi qadoqlovchi tomonidan imzolanadi.

QO‘SHIMCHA ETKAZIB BERISH

Mahsulotnita‘minlashdata‘minlovchitomonidanyo‘lqo‘yilgankamchiliknito‘ldirish

HARAKAT TARKIBINING TORTISH ELKASI

Harakat tarkibining bir yo‘nalish bo‘icha harakatlanish masofasi

HARAKATLAR

insonning xohish – irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda vujudga keladi;

HUDUD, MAYDON

Bir turda saqlash, tarqatish va qadoqlash uchun ajratilgan ombor maydoni

HUDUDDAGI TASHISH

Transportstatistikasining ko'rsatkichlar tizimida bo'lib, ma'lum regiondagi jo'natilgan yuklarning miqdori.

HAYDOVCHI

Yo'llarda biron-bir transport vositasini boshqarib borayotgan shaxs

HARAKAT MIQDORI (JADALLIGI)

Yo'lining biron-bir ko'ndalang kesimidan vaqt birligi ichida o'tgan transport vositalarining soni (avt/sut yoki avt/soat) - bu ko'rsatkich kuzatish va avtomatik usullar bilan o'lchanishi mumkin

HARAKAT OQIMINING TEZLIGI

